

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

T.H.Asadov

ONA TILI

(Kasb-hunar kollejlari uchun metodik qo'llanma)

**“Buxoro” nashriyoti,
2012**

Mazkur metodik qo'llanma namunaviy o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, kasb-hunar kollej o'quvchi-talabalari uchun mo'ljallangan. Qo'llanmada ona tili fani mavzu va rejalari, ma'ruza matnlari, tayanch tushunchalar, topshiriqli mashqlar, shuningdek, mavzuni mustahkamlovchi savol va testlar o'rin olgan. Mavzular so'ngida fonetika, leksikologiya, frazeologiyaga oid amaliy mashg'ulotlar, namunali dars ishlanmasi hamda nazorat testlari jamlangan.

Ushbu qo'llanma o'quvchi-talabalar, abituriyentlar, ona tili va adabiyot o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: *filologiya fanlari nomzodi, dotsent H.Safarova*
filologiya fanlari nomzodi, dotsent B.Qilichev
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent D.Yo'ldosheva

Mazkur metodik qo'llanma Buxoro davlat universiteti O'quv - metodik kengashining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan (1-yig'ilish, 28.08.2012).

*Ushbu kitobni otam – Hamro Asadovninig
yorqin xotirasiga bag'ishlayman.*

SO'ZBOSHI

Qo'lingizdagi mazkur qo'llanma “Ona tili va adabiyot” namunaviy o'quv dasturi asosida yaratilgan. Reja mavzulari 5 - 9 sinflarda o'rganilgan bilim va ko'nikmalarning tadrijiy davomi sifatida berilgan. Tilshunoslik hodisalari, ularni amalda qo'llash va bu borada e'tibor berilishi lozim bo'lgan vazifalar o'z aksini topgan.

Sir emaski, bugungi kun yoshlari bilim borasida har tomonlama ildamlab bormoqda. Bu jarayonda ona tili fani “fanlararo ko'prik” vazifasini o'tashi qayta-qayta takrorlanmoqda. Yondosh fanlarni o'qib-uyushda, mukammal o'zlashtirishda mazkur fanning ahamiyati beqiyos. Hozirgi kun ta'lim tizimi o'quvchi-talabalar oldida ulug' vazifalarni qo'ymoqda. Xususan, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni kamol toptirish kun masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov “Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” nomli ma'ruzasida maxsus to'xtaladi: “Ta'lim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo'nda qilib ifoda etish mumkin: Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim-tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak”. (Barkamol avlod orzusi. T.: “Sharq”, 1999. 15-16-b.) Demakki, ta'lim-tarbiya ta'lim tizimidan ko'zlangan bosh vazifa hisoblanadi.

Shaxs tafakkurining oshishi bevosita ona tili bilan bog'liq. Mustaqil fikrlashga, izlanishga, o'ylashga zarurat tug'diruvchi topshiriqli amaliy mashqlar ona tili fani jarayonining tub o'zagini tashkil etmog'i lozim.

Qo'llanmadagi har bir mavzuni yoritishda DTS me'zonlariga amal qilishga harakat qilindi. Mavzuga oid reja va tayanch tushunchalar, har bir mavzuga tegishli qisqa nazariy matn mavzusi, mavzuni mustahkamlovchi topshiriqli mashqlar, nazorat testlari, qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati berildi.

Imlo savodxonlikni oshirish, nutq o'stirish, so'z ma'nosining taraqqiyoti, so'zning turli ma'no qirralari ustida ishlash, so'zning uslubiy imkoniyatlari, fikrni ifoda etishning oddiy va murakkab ko'rinishlariga alohida e'tibor qaratildi. Til hodisalarining o'rgatilishdagi izchillikka ahamiyat berildi. Egallangan bilimni ko'nikmaga aylantiruvchi mashg'ulotlarga kengroq o'rin ajratildi.

O'ylaymizki, qo'lingizdagi ushbu qollanma kasb-hunar kollejlariida ona tili fanining ko'zlangan o'rinlarini o'qib-o'zlashtirishda sizga qo'l keladi.

1-MAVZU: TIL VA TAFAKKUR, ULARNING O'ZARO MUNOSABATI. TIL VA NUTQ. NUTQIY FAOLIYAT KO'RINISHLARI

Reja:

1. Til va tafakkur.
2. Til va nutq.
3. Nutqiy faoliyat ko'rinishlari.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: ong, tafakkur, til, til va nutq, og'zaki nutq, yozma nutq.

Til va tafakkur. Tafakkur arabcha so'z bo'lib, fikr yuritish, o'ylash, fikrlash kabi ma'nolarni ifodalaydi. Tafakkur orqali obyektiv borliqni taniy boshlaymiz. Bu borada mutafakkir Alisher Navoiy shunday yozadi:

Ki har ishni qildi odamizod,

Tafakkur birla qildi oni bunyod.

Ko'rinadiki, inson tafakkuri, zakovati va ongi eng oliy ne'mat hisoblanadi.

Tafakkur fikrning ko'pligi hisoblanar ekan, til mana shu fikrlarning voqe bo'lishidir, ya'ni fikr (tafakkur)ning ro'yobga chiqishida til asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Til va tafakkur uzviy bog'liq. Tilsiz tafakkur va tafakkursiz til mavjud bo'lolmaydi (obrazli qilib aytadigan bo'lsak, tansiz jon, jonsiz tan bo'lolmaganidek).

XX asrning buyuk yozuvchilaridan biri Oybek "Navoiy" asarida "Bir soatlik tafakkur bir yillik toatdan afzal" deydi. Buning ma'nosi shuki, kishi qanchalik ko'p o'ylasa, fikr yuritisa, uning qiladigan amali ham, aytadigan so'zi ham shunchalik go'zal bo'ladi, boshqalarga ibrat bo'ladi.

Tafakkur, jamiyat, mehnat faoliyati davomida o'sib, rivojlanib boradi. Demakki, til va uning ko'rinishi bo'lgan nutq ham tafakkur bilan bog'liq holda takomillashib boradi.

1-topshiriq. Matnni o'qib, quyidagi savollarga javob bering.

1. Buyuk bobomiz A.Navoiyning yuqoridagi fikrini o'z so'zlaringiz bilan izohlang.

2. Til va tafakkur bog'liqligi haqida gapiring, misollar bilan tushuntiring.

3. Tilning rivojida tafakkurning, tafakkurning rivojida tilning qay darajada ahamiyati bor?

4. "Bir soatlik tafakkur bir yillik toatdan afzal" deganda nimani tushunasiz?

5. "O'zga bir tilni egallash boshqa bir xalqning(millatning) tafakkur tarzini o'zlashtirish demakdir". Ushbu fikrga izoh bering.

Til va nutq. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "til"ga shunday ta'rif beriladi: "Kishilar o'rtasida, jamiyatda o'zaro fikr almashishning muhim vositasi; tilshunoslikning asosiy o'rganilish obyekti". Biz o'z fikrimizni tilsiz turli vositalar bilan (qo'l, bosh, yuz, ko'z harakati bilan) ham bir qism ifodalashimiz mumkin. Biroq til va uni ro'yobga chiqaruvchi nutqimizsiz ko'zlangan maqsadga to'liq erisholmaymiz. Inson ongi biror bir voqelik aks ettirar ekan, u so'zlar orqali (nuqt vositalari bilan) yuzaga chiqaradi. Odamzodning bolaligidan to umrining oxirigacha oladigan ilmiy va hayotiy ta'limi so'z va til vositasida amalga oshadi. Tafakkur, til va uning yuzaga chiqaruvchi (og'zaki,yozma shaklda) vosita so'z bo'lar ekan (nutq), bu borada A.Navoiyning quyidagi misralarini eslatib o'tish maqsadga muvofiq:

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharif yo'qdur ondin.

Bilim va tafakkurni rivojlantiruvchi manba til. Olimlar ta'kidlaganidek, ona tili fani boshqa fanlarni o'rganishda ko'prik vazifasini o'taydi. Boshqa fanlarga tilshunoslik orqali erishiladi.

Til va nutq o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Til – aloqa quroli. Nutq ana shu aloqa jarayonini amalga oshiruvchi vosita, aloqa shaklidir.

2. Tilning umri uni yaratgan xalqning o'zidek uzoq tarixga ega. Nutqning umri alohida bir shaxs umri bilan teng.

3. Til muayyan bir tilda so'zlovchilar uchun umumiy bo'ladi. Til me'yorlaridan kelib chiqib, barchaga bir xil talab qo'yiladi. Masalan, *maktab* so'zi turli hududlarda turlicha talaffuz etilsa ham (jumladan, *maktap*, *mektep* va h.k.), orfoepiya qoidasiga ko'ra shu millatning barcha vakili maktab tarzida talaffuz etishi me'yoriy hol sanaydi.

4. Til nisbatan turg'un, barqaror bo'lsa, nutq doim harakatda bo'lib, o'zgaruvchan bo'ladi. Til va nutq o'z birliklariga ega. Til birliklari sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

Fonema – tilning eng kichik birligi bo'lib, aloqa quroli uchun muhim ahamiyatli bo'lgan farqlovchi belgi.

Fonema – tilning ma'no farqlash qiymatiga ega bo'lgan eng kichik birligi. Fonema hozirgi zamon tilshunosligining mustaqil tarmog'i bo'lmish fonologiyada o'rganiladi.

Morfema – tilning xususiy ma'noga ega bo'lgan, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan birligi: *tur, yur, boshliq* va b.

Leksema – jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan til birligi.

Nutq kundalik hayotda kishilar orasidagi o'zaro aloqa ehtiyojini qondiruvchi vositadir. Nutq til materialining namoyon bo'lish jarayoni. Nutq birliklari quyidagilar:

Tovush – havo oqimining nutq a'zolari orqali shakllanib, ma'no ifodalash uchun xizmat qiladigan nutq birligi.

Harf – tovushning yozuvdagi shartli belgisi.

So'z – leksemaning nutqda reallashishi.

So'z birikmasi – ikki va undan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topgan, tushuncha ifodalaydigan grammatik hodisadir.

Gap – nutqning bir va undan ortiq so'z vositasida hosil qilingan birligi.

5. Tilning hajmi noaniq, nutqning hajmi esa aniq. U diolog, monolog, matn shaklida bo'ladi. Nutqning ikki shakli bor: og'zaki va yozma. Har ikki shaklga qo'yiladigan talablar:

- 1) nutqning to'g'riligi;
- 2) nutqning aniqligi;
- 3) nutqning tozaligi;
- 4) nutqning ravonligi;
- 5) nutqning soddaligi;
- 6) nutqning mantiqiyligi;
- 7) nutqning ta'sirchanligi;

II topshiriq. Nutqqa qo'yiladigan talablarni o'qituvchi hamkorligida izohlashga harakat qiling. Misollar bilan izohlang. Matn tuzing.

1-mashq.

Gaplarni o'qing va o'z fikr-mulohazalaringizni bildiring.

1. Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oynayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir. (A. Avloniy)
2. Nutq – qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi. (R.Emirson)
3. Har bir kishining madaniylik darajasi, o'qib qanchalik tarbiya ko'rganligi uning yozma va og'zaki nutqidan bilinadi. (S.Ibrohimov)
4. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. (I.A. Karimov)
5. So'zlash qobiliyati – hodisalar ichiga kirishining yagona va betakror vositasi. (L.I. Tolstoy)

III topshiriq. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, A. Navoiyning “Hayrat ul-abror”, A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlaridan til va so'z qudratiga bag'ishlangan o'rinlarni o'qib, parchalar yod oling.

Nutqning faoliyat ko'rinishlari. Nutq faoliyati ikki usulda namoyon bo'ladi: og'zaki va yozma shaklda.

Og'zaki nutqning ikki ko'rinishi bor:

- 1) oddiy so'zlashuv nutqi;
- 2) adabiy so'zlashuv nutqi.

Oddiy so'zlashuv nutqi tabiiy nutq sifatida namoyon bo'lib, sheva ta'sirida bo'lgan nutq hisoblanadi. Bunda adabiy til me'yorlariga amal qilinmaydi, noadabiy qatlam so'zlari uchrab qoladi (o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari – varvarizm, so'kinch, haqorat so'zlar–vulgarizm, nutqda ortiqcha takrorlanadigan parazit so'zlar, jumladan, *haligi, shu desangiz, ibi, innaykeyin, habba* va h.k.).

Adabiy so'zlashuv nutqida til me'yorlari (orfoepiya qoidalariga) qat'iy amal qilinadi. Yozma nutqning paydo bo'lishi og'zaki nutq ta'sirida bo'lgan. Yozma nutq adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo'ysunuvchi grafik shaklidagi nutqdir. Yozma nutq yetti bo'limda 82 qoidani qamrab olgan me'yorlardan iborat. U og'zaki nutq kabi kishilar orasidagi bevosita aloqa vositasi

emas. Yozma manbalar orqali biz o'tmish tariximizni o'rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishini ta'minlaymiz.

Nutqning bu shakllari quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Nutq ayrim shaxslarga (bir kishiga) tegishli bo'lishi (monolog), ikki kishi o'rtasida yuz berishi (dialog) va bir necha shaxs orasida bo'lishi (polilog) mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Til va tafakkurning o'zaro munosabati haqida ma'lumot bering.
2. Til va tafakkurning rivojini ta'minlovchi holat nima?
3. Til va nutq, ularning farqi haqida nima deya olasiz?
4. Nutqning to'g'riligi va aniqligi nutq madaniyati uchun qanday ahamiyatga ega?
5. Nutqning ravonligi, soddaligiga qanday erishiladi?
6. Nutqning mantiqiyligi va ta'sirchanligi deganda nimani tushunasiz?
7. Og'zaki va yozma nutq shakllariga xos xususiyat nimadan iborat?
8. Til, nutq va so'zlashuv odobi haqida maqol, hikmatli so'z ayting.

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2008.
2. Abdurahmonov G'., Rustamov H. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. Toshkent, “O'qituvchi”, 2004.
3. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Тошкент, “Ўқитувчи”, 2003.
4. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1993.
5. Ne'matov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Buxoro, 2005.
6. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, “Sharq”, 2009.
7. Воҳидов Р., Неъматов Ҳ., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. Тошкент, “Ёзувчи”, 2001.

Mavzu bo'yicha testlar:

1. Qaysi gapda grammatik me'yor buzilgan?
 - A) Ko'zining oq-u qorasi bo'lgan Otabekning holi nima kechdi?
 - B) Tolibning xayolini yana qo'shnining qizi bo'ldi.
 - C) Umrini tog'larda o'tkazgan odamning tabiat tilini bilmaydi deyish qiyin.
 - D) Institutga yaqinroq bog'lardan birontasiga borib tayyorlanmoqchi bo'ldi.
2. Tilning lug'aviy birligi berilgan javobni toping.
 - A) leksema
 - B) ibora
 - C) atama(termin)
 - D) so'z birikmasi
 - E) A,B va C
3. Qaysi qatorda lug'aviy (til) birliklar nomi sanalgan?
 - A) tovush, qo'shimcha, so'z
 - B) qo'shimcha, so'z, ibora, gap
 - C) so'z, ibora, gap
 - D) ibora, gap
 - E) leksema, ibora
4. Til va nutqni farqlovchi tilga xos xususiyatlarni aniqlang.
 1. Aloqa materiali
 2. Aloqa shakli
 3. Xalq, millat yaratadi.
 4. Nisbatan turg'un.
 5. Doim harakatda
 6. Hajmi noaniq
 7. Uning ikki shakli mavjud
 - A) 1,2,3,4,
 - B) 2,5,6,7
 - C) 1,3,4,5,6
 - D) 1,3,4,6

2-MAVZU: O'ZBEK TILINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Reja:

9. Qadimgi turkiy til.
10. Eski turkiy adabiy til.
11. Eski o'zbek adabiy tili.
12. Yangi o'zbek adabiy tili.
13. Hozirgi o'zbek adabiy tili.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek tili, hozirgi o'zbek adabiy tili.

2-mashq.

Gaplarni o'qing va o'zbek tili taraqqiyoti bosqichlarining qaysi davriga mosligini aniqlang.

1. Bilga To'nyuquq ban o'zim Tabg'ach alina qilintim. Turk va bo'dun Tabg'achqa ko'rur arti (Mazmuni: Bilga To'nyuquq man. O'zim Tabg'ach elida voyaga yetdim. Turk xalqi Tabg'achga qarar edi). (To'nyuquq bitigi) 2. Alp Er To'nga o'ldumu, Esiz ajun qoldumu. O'zlak o'chin aldimu, Emdi jurak jirtilur. ("Devonu lug'otit turk"). 3. Til arslan turur, ko'r, eshikda yatur. Aya evlug, arsiq bashingni yeyur. (Yusuf Xos Hojib) 4. Furqatingdin zafaron uzra to'karmen lololar, Lolalar ermaski, bag'rimdim erur pargolalar. (A. Navoiy) 5. Visoli lazzatidin zavq topmog'liq erur dushvor, Firoqi shiddatinda yo'qsa jon bermoqliq osondur. (Bobur) 6. Soz bazmidin navo ushshoqg'a maxsus o'lub, Changdek faryodlar mahzun-u dilozorimga xos. (Ogahiy)

O'zbek tili O'zbekistonda, shuningdek, O'rta Osiyo Respublikalarida va Shimoliy Afg'onistonda tarqalgan o'zbek xalqining tilidir. Bu tilda 15 mln.ga yaqin kishi so'zlashadi.

O'zbek xalqi O'rta Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo'lib, uning bir tarmog'i hisoblanadi. Turkiy tillar qadimdan Sibir, Oltoy, O'rta Osiyo, Qozog'iston, Volga bo'yi, Kavkaz, Qrim, Moldaviya, qisman Boltiqbo'yi, Kichik Osiyo (Turkiya), Xitoy, Afg'oniston, Eron, Bolgariya, Ruminiya, Yugoslaviya, Albaniya, Gretsiya, Kiprga tarqalgan. Bu maskanlarda qozoq, yoqut, oltoy, shop, xakas, cho'lim, uyg'ur, qirg'iz, o'zbek, qoraqalpoq, turuxman, totor, boshqird, chuvash, qaraim, qrim-totor, bolqor, gagauz, turkman, ozarbayjon, turk, karakas, no'g'ay, oyrot, tuva (24-25 xil) kabi millat va elatlar istiqomat qilishadi.

O'zbek tili tarixini olimlar quyidagicha davrlashtiradilar:

1. *Qadimgi turkiy til.* V-IX asrlarda Shimoliy Mo'g'iliston, Markaziy Osiyo, Markaziy va Shimoliy Xitoy, Sibir, Qirg'iziston, Janubiy O'zbekiston va Qozog'iston o'lkalarida tarqalgan qadimgi turkiy (runik) yozuv yodgorliklari tilining umumiy nomi. Qadimgi turkiy til yodgorligi, asosan, qabrlar ustida qo'yiladigan toshlardagi yozuvlardan iborat. Xususan, Kultegin, To'nyuquq, Bilga Xoqon qabr toshlari katta tarixiy, badiiy, lingvistik qimmatga ega. Yodnomalardagi aksariyat so'zlar turkiy bo'lib, oz miqdorda xitoy, mo'gulcha, sanskritcha va so'g'cha so'zlar ham uchraydi.

2. *Eski turkiy adabiy tili.* XI asrdan XIV asrning I yarmigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu tildagi yirik asarlar sirasiga "Devonu

lug'otut turk", "Qutadg'u bilig", "Hibbatul haqoyiq", shuningdek, "Devonu hikmat", "Qisasi Rabg'uziy", "Muhabbatnoma", "Me'rojnoma", "Muqaddimat ul adab", "Yusuf va Zulayho", "O'g'uznoma" kabilar kiradi.

Tushum kelishigi: -(i)g', vosita kelishigi: -(i)n, chiqish kelishigi: -din, jo'nalish kelishigi: -garu(qaru), -g'aru, sifatdosh: -duq, shart mayli: -sar, shakllarida qo'llangan.

3. *Eski o'zbek adabiy tili.* XIV asrning II yarmidan XIX asrning I yarmigacha bo'lgan yozma yodgorliklar tilidir. Ilmiy adabiyotlarda chig'atoy tili deb ham nomlanadi. Eski o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi Movarounnahrda temuriylar hokimyatining o'rnatilishi davriga to'g'ri keladi.

Bu bosqichning birinchi davrida Haydar Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiylar ijod etgan. Ikkinchi taraqqiyot bosqichida A.Navoiy, uchinchi taraqqiyot davrida Bobur, Ubaydiy, Aziziy, Boqiy, Mashrab, to'rtinchi taraqqiyot bosqichida Munis, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Zavqiy kabi shoirlar ijod qilishgan.

4. *Yangi o'zbek adabiy tili.* XIX asrning II yarmi XX asr boshlarida amal qilgan til hisoblanadi. Bu davrdagi matbuot tili, adiblarning ijod namunalari, jadid namoyondalari asarlari tili shu bosqichga mansubdir.

5. *Hozirgi o'zbek adabiy tili.* XX asrning 30- yillaridan hozirgi kunga qadar bo'lgan tilga nisbatan aytiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili rivojlangan, ijtimoiy mavqesi yuksalgan, sayqallangan, fonetik va leksik-grammatik jihatdan me'yorlashgan milliy tildir.

3-mashq.

Quyida berilgan gaplarni hamda o'zbek tilining turli taraqqiyot bosqichlarida yaratilgan ijod namunalarining fonetik, leksik, morfologik xususiyatlarini aniqlang.

1. Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz. (A.Navoiy) 2. Zamona kulfatidin bu ko'ngil dog' o'ldi, dog' o'ldi, Bu charxi bemuruvvatdan ko'ngil dog' o'ldi, dog' o'ldi. (Uvaysiy) 3. Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar. (Furqat) 4. Kel, ey soqiy, ketur paymona bizga, Inoyatlar qilur jonona bizga. (Xorazmiy)

I topshiriq. Mumtoz adabiyot namunalaridan ayting va leksik-grammatik tahlil qiling.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

10. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari haqida gapiring.
11. O'zbek tilini bosqichma-bosqich o'rganilishining ahamiyati nimada?
12. Qadimgi turkiy til haqida gapiring.
13. Eski turkiy til adabiy til davrida qanday yirik asarlar yozilgan va ularning mualliflari kim?
14. Eski turkiy til adabiy tili davrida ijod qilgan adiblarni sanang va ular ijodidan namunalar ayting.
15. Hozirgi o'zbek adabiy tilini rivojlanishiga hissa qo'shgan qaysi tilshunoslarni bilasiz?

II topshiriq. “Til – millat ko'zgusi” mavzusida insho yozing.

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2008.
2. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1972.
3. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент, 1984.
4. Малов С. Памятники древнетюрской письменности. М. –Л., 1951.
5. Ne'matov H., Axmatov N., Axmedov A. O'zbek tili tarixi. Buxoro, 2008.
6. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, “Sharq”, 2009.
7. Rahmonov N, Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. Toshkent, 2009.

Mavzu bo'yicha testlar:

- | | |
|---|--|
| 1. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari o'zbek tili taraqqiyot bosqichining qaysi davriga to'g'ri keladi?
A) qadimgi turkiy til
B) eski turkiy til
C) eski o'zbek adabiy tili
D) A,B | 2. Turkiy tillar oilasida qancha til mavjud?
A) 20 ga yaqin
B) 30 ga yaqin
C) 40dan ortiq
D) 50dan ortiq |
|---|--|

3. XI asrdan XIV asrning I yarmigacha bo'lgan davrda amal qilgan til qanday nomlanadi?
 A) qadimgi turkiy til
 B) eski turkiy til
 C) eski o'zbek adabiy tili
 D) hozirgi o'zbek adabiy tili
4. Turkiy tillar oilasiga kiruvchi qatorni aniqlang.
 A) qozoq, tojik, qirg'iz
 B) no'g'ay, chuvash, hind
 C) o'g'uz, chigil, arman
 D) turk, ozarbayjon, boshqird
5. Turkiy tillarda so'zlovchilar qaysi hududlarda yashagan?
 A) Eron, Hindiston, Kichik Osiyo
 B) Sibir, Koreya, Volga bo'yi
 C) Afg'oniston, Sibir, Qozog'iston
 D) Arabiston, Xitoy, O'rta Osiyo
6. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka asos solgan olim nomi qaysi javobda ko'rsatilgan?
 A) M. Zamaxshariy
 B) A. Navoiy
 C) A. Yugnakiy
 D) M. Qoshg'ariy
7. "Budun" so'zining ma'nosini toping.
 A) bilim
 B) xalq
 C) vujud
 D) botir
8. Eski o'zbek tilida qaysi kelishik shakli -karu, -g'aru, -qaru qo'shimchalari bilan ifodalangan?
 A) qaratqich kelishigi
 B) tushum kelishigi
 C) jo'nalish kelishigi
 D) o'rin-payt kelishigi

3-MAVZU: DAVLAT TILI HAQIDAGI QONUN VA UNDAN KELIB CHIQADIGAN VAZIFALAR

Reja:

1. O'zbek tili – davlat tili.
2. Tilga e'tibor – elga e'tibor.
3. Tilimizning buguni va ertasi.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: davlat tili, qonun, davlat tili maqomi, tilga e'tibor, tilimiz ertasi.

Oldingi mavzularda ko'rib o'tganimizdek, o'zbek tili uzoq tarixiy davrni boshdan kechirdi. Yot tillar ta'siridan omon qolish uchun o'z rivoj yo'lini tanlab, bugungi kunga qadar iste'mol doirasini kengaytirib kelmoqda. Dunyoda 3mingdan ortiq til bo'lsa-da, hammasi ham Davlat tili maqomiga ega emas (200 ga yaqin yozuv

mavjud). O'zbek tili Davlat tili maqomini qo'lga kiritgunga qadar juda ko'p tazyiqlarga uchragan. Xalqimiz mustaqillikni qo'lga kiritish arafasida (1989-yil 21-oktabrda) O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilindi.

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek tili – davlat tiliga e'tibor kuchaydi, ona tilimizning ijtimoiy mavqei kengaydi. O'zbek tilining taraqqiyoti va istiqboli to'g'risida g'amxo'rlik qilinib, bir qancha qarorlar qabul qilindi.

1. 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" qonun qabul qilindi.

2. 1995-yil 24-avgustda "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" (82 qoida) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi.

3. Milliy munosabatlarni yaxshilash, davr taqozosi bilan 1995-yil 21-dekabrda "Davlat tili haqida"gi qonun (1989-yil 21-oktabrda tasdiqlangan qonun)ga ba'zi o'zgartirishlar kiritildi.

4. "Davlat tili haqida"gi qonun 24 moddadan iborat bo'lib, 1-moddasida "O'zbekiston Respublikasi Davlat tili o'zbek tilidir", deb yozilgan.

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida ham "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili o'zbek tilidir", deb ta'kidlangan.

Adabiy va milliy til bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ayni paytda bir-biridan farqlanadi. O'zbek adabiy tilini shakllanishi ayrim shevalar bilan bog'liq (Fonetik jihatdan Toshkent shevasi, morfologik jihatdan Farg'ona shevasi). Milliy til esa shu millatning barcha vakillari uchun xos bo'lgan tildir. O'zbek xalqi nutqida qo'llanuvchi barcha so'zlar, hatto mahalliy so'zlar ham milliy tilning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ko'rinadiki, milliy tilning qamrov doirasi adabiy tildan keng.

I topshiriq. "Tilga e'tibor – elga e'tibor" mavzusida og'zaki matn tuzing.

4-mashq.

So'z so'zlash odobi bo'yicha quyida aytilgan fikrlarni ko'chiring va o'z fikr-mulohazalaringizni bildiring.

1. Ey farzand, so'zing yuzin va orqasin bilg'il va ularg'a rioya qilg'il, har na so'z desang yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zing nechuk ekanin bilmasang qushga

o'xsharsanki, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zining ma'nosini bilmas. (Kaykovus "Qobusnoma") 2. Nodonlardek yuzta so'zni qilma qator, donolardek bir so'z degil, lek ma'nodor. (S.Sheroziy) 3. So'z joy-u vaqtiga bo'lar ekan mos, Sehri afsun uchun u bo'lar asos. (A.Jomiy) 4. Ko'p ortiqcha so'zlashuv eshitguvchini ranjitar. (Zamaxshariy) 5. Kishi so'z tufayli bo'ladi malik, ortiq so'z bu boshni etadi egik. (Yusuf Xos Xojib)

Esda saqlang:

O'zbek tili jahon tillari orasida o'z mavqeiga ega. Tilimiz bugungi kunda tez sur'atlar bilan rivojlanib, lug'at xazinamizdagi so'zlar miqdoran oshib, so'zning ma'no qirralari o'sib, tilimizning imkoniyatlari kengayib bormoqda. Buning yorqin dalillaridan biri sifatida yaqin yillarda besh jildda chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" ni ko'rsatish mumkin (Toshkent 2006-2008). Lug'at 80 000 dan ortiq so'zni qamrab olgan.

II topshiriq. "Tilimizning buguni va ertasi" mavzuida insho yozing.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishining ahamiyati haqida gapiring.
2. Adabiy til va milliy tilning bir-biridan farqi nimada?
3. "Tilga e'tibor – elga e'tibor" maqolining mazmuni haqida gapiring.
4. Prezidentimiz I.A. Karimovning "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi", deb e'tirof etgan so'zlaridan qanday ma'no uqishingizni so'zlab bering.
5. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qilinishining o'ziga xosligi nimada deb bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиздир. Тошкент, "Ўқитувчи", 2000.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, "Ўзбекистон", 2008.

3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, "Sharq", 2009.

4. O'zbek tilining imlo lug'ati. A.Hojiyev tahriri ostida. Toshkent, "O'qituvchi", 1997.

Mavzu bo'yicha testlar:

- | | |
|--|--|
| 1. Hozirgi adabiy til qaysi shevalar asosida shakllantirilgan?
A) Buxoro, Samarqand
B) Toshkent, Farg'ona
C) Jizzax, Sirdaryo
D) Andijon, Marg'ilon | 4. Yangi tahrirdagi "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" qachon tasdiqlandi?
A) 1993-yil 2-sentabr
B) 1995-yil 24-avgust
C) 1989-yil 21-oktabr
D) 1995-yil 21-dekabr |
| 2. Hozirgi o'zbek adabiy tilining asosi bo'lgan Toshkent va Farg'ona shevalari qaysi lahjaga mansub?
A) qarluq
B) qipchoq
C) o'g'uz
D) uyg'ur | 5. "Davlat tili haqida"gi qonun necha moddadan iborat?
A) 20 B) 33 C) 82 D) 24 |
| 3. "Davlat tili haqida"gi qonunga qachon o'zgartirish kiritildi?
A) 1993-yil 2-sentabr
B) 1995-yil 24-avgust
C) 1989-yil 21-oktabr
D) 1995-yil 21-dekabr | 6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili o'zbek tilidir", deb yozilgan?
A) 4- moddasida
B) 1- moddasida
C) 8- moddasida
D) 5- moddasida |

4-MAVZU: TO'G'RI YOZISH SAVODXONLIK ASOSI. O'ZBEK IMLOSINING NAZARIY ASOS VA TAMOYILLARI

Reja:

1. Savodxonlik – madaniyatlilik belgisi.
2. Talaffuz va imlo masalalari.
3. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari va bo'limlari.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: savodxonlik, imlo, orfografiya, talaffuz, til me'yorlari.

Og'zaki va yozma savodxonlik til me'yorlarini puxta o'zlashtirish bilan bog'liq. Har qaysi zamonda, har qaysi makonda savodxonlik insonning yaxshi fazilati sifatida ulug'lanib kelingan. Og'zaki va yozma savodxonlikka erishishni ta'minlovchi tilshunoslikning bo'limi orfoepiya, orfografiya sanaladi.

Talaffuz imlo bir-biri bilan uzviy bog'liq. Adabiy til qonuniyati asosida to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz qilish ham shunchalik zarur. Ammo so'zning talaffuzi bilan yozilishi doim ham to'g'ri kelavermaydi. Masalan, iztirob, izquvar, bo'zchi, tuzsiz kabi so'zlarda jarangsiz undoshdan oldin "s" aytilsa ham, "z" yoziladi. Yoki baland, Samarqand, poyezd; do'st, g'isht kabi so'zlarda d,t tovushi ba'zan aytilmasa ham, yozuvda yoziladi.

1995-yilning 24-avgustda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan 339-son Qarorida 82 qoida mavjud bo'lib yetti bo'limda o'z ifodasini topgan. Bular: "Harflar imlosi"(1-32 qoida), "Asos va qo'shimchalar imlosi"(33-37 qoida), "Qo'shib yozish" (38-50 qoida), "Chiziqli bilan yozish" (51-56 qoida), "Ajratib yozish" (57-65 qoida), "Bosh harflar imlosi" (66-74 qoida), "Ko'chirish qoidalari" (75-82 qoida)

5-mashq.

Ko'chiring. So'zlarning imlosi va talaffuziga e'tibor bering.

Tatbiq, taalluqli, taassuf, taomil, tafovud, tavsilot, xatti-harakat, oliyjanob, hasharot, mutaxassis, muomala, miqyos, toshbag'ir, qabihlik, dasturulamal, jangovar, istehzomuz, tajovuzkor, xushmuomala, taraddud, astoydil, manba, felyeton, tazyiq, takabbur.

I topshiriq. Yuqoridagi so'zlarda unli va undosh tovushlarning talaffuz va imlosi qay jihatdan farqlanadi, buning sababi nimada deb o'ylaysiz.

6-mashq.

Quyida berilgan qo'sh unli va qo'sh undosh so'zlarni ko'chiring. Qatorni mustaqil davom ettiring. Yozgan so'zlaringizni imlo lug'atidan foydalangan holda tekshiring.

a) mudofaa, inshoot, mutolaa, badiiy, taassurot, taajjub, murojaat, istehzomuz...

b) faoliyat, faol, jamoa, sharoit, doira, doim, voqea...

d) kashshof, mashshoq, pashsha, ushshoq, gramm, metall...

Unlilar imlosi

A a harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr* kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, *vaqt, vahm* kabi so'zlarda a aytiladi va yoziladi.

O o harfi:

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos* kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

U u harfi

1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz; mafkura; ko'zgu, uyqu; aluminiy, yubiley* kabi so'zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg'ovul, chirmovuq* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida o unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi v undoshidan keyin u aytiladi va yoziladi.

O'o' harfi *o'q, o'zbek, o'simlik, do'ppi; bo'tako'z, semizo't, gulko'rpa, noo'rin* kabi so'zlarda orqa qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

E e harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e'lon, ne'mat, she'r* kabi so'zlarda old qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

Undoshlar imlosi

B b harfi

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi so'zlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi so'zlar oxirida p aytilsa ham, b yoziladi;

3) *qibla, tobla* kabi so'zlarda ba'zan v aytilsa ham, b yoziladi.

P p harfi *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi so'zlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

V v harfi

1) *ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi so'zlarda ovozdor sirg'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi o'zlashma so'zlarda v ba'zan f aytilsa ham, v yoziladi.

F f harfi

1) *fan, fe'l, futbol, fizika; asfalt, juft; insof, isrof* kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi so'zlarda f tovushi ba'zan p aytilsa ham, asliga muvofiq f yoziladi.

D d harfi

1) *dala, odaty bunyod, modda, jiddiy* kabi so'zlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *obod, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxo'r* kabi so'zlarda t aytilsa ham, d yoziladi.

Z z harfi

1) *zar, zamon; toza_y o'zbek; yoz, g'oz* kabi so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, bo'zchi, tuzsiz* kabi so'zlarda jarangsiz undoshdan oldin s aytilsa ham, z yoziladi.

Sh sh harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

S, h harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga ' (tutuq) belgisi qo'yiladi: *Is'hoq, as'hob* kabi.

J j harfi

1) *jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj* kabi so'zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, projektor; gijda, ajdar, tiraj* kabi o'zlashma so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

N n harfi

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi so'zlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, ko'rinmaslik* kabi so'zlarda n tovushi ba'zan m aytilsa ham, n yoziladi.

Ng ng harflar birikmasi *yangi, ko'ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi so'zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarqand, poyezd; do'st, artist, g'isht* kabi so'zlarda **d, t** tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall + lar = metallar, kilogramm + mi = kilogrammi* kabi.

‘ - tutuq belgisi:

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi o'zlashma so'zlarda unidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi.

II topshiriq. Yozilishi murakkab bo'lgan so'zlar qatnashgan saylanma diktant tashkil eting. Shu asosida “Eng zo'r savodxon” g'olibini aniqlang.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Kishilar nutqida kimgadir nisbatan “savodli inson” jumlasini eshitib qolasiz. Shu jumlagi munosabatingizni bildiring.

2. Imlo savodxonligi deganda nima tushunasiz?

3. Og'zaki va yozma til me'yorlari tilshunoslikning qaysi bo'limlarida o'rganiladi?

4. Qo'sh unli va qo'sh undosh so'zlar asosan qaysi tillardan o'zlashgan so'z qatlamida uchraydi?

5. Kitob javoningizda imlo lug'ati bormi? Yana qanday lug'at turlarini bilasiz?

III topshiriq. Imlo lug'atidan foydalanib, har bir harf bo'yicha imlosi qiyin so'zlardan 10-15 ta yozing.

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиёти пойдевори. Тошкент. 1998.

2. Abdurahmonov G'., Rustamov H. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. Toshkent, “O'qituvchi”, 2004.

3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, "Sharq", 2009.

4. O'zbek tilining imlo lug'ati. A.Hojiyev tahriri ostida. . Toshkent, "O'qituvchi ", 1997.

Mavzu bo'yicha testlar:

1. Asos va qo'shimchalar imlosi A) oqim, bosqich, cho'ziq
"O'zbek tilining asosiy imlo B) so'roq, oqibat, sog'liq
qoidalarini"ning qaysi bandlarida C) taqsimot, maqsad, oqsil
ifodalangan? D) chaqmoq, iqlim, botqoq
A) 1-7 4. Qaysi qatordagi so'zlarda tutuq
B) 8-32 belgisi noto'g'ri ishlatilgan?
C) 33-37 A) ta'sir, qit'a, me'mor
D) 38-50 B) ta'na, shu'la, fe'l
2. Bosh harflar imlosi "O'zbek C) a'lo, ta'lim, mas'ul
tilining asosiy imlo qoidalarini"ning D) af'yun, voqe', tole'
qaysi bandlarida aks etgan? 5. Bosh harfning ishlatilishi
A) 51-56 tilshunoslikning qaysi bo'limida
B) 57-65 o'rganiladi?
C) 66-74 A) fonetikada
D) 75-82 B) orfoepiyada
3. Qaysi so'zlarda q tovushi x x C) orfografiyada
tarzida talaffuz etilsa ham, q q D) morfologiyada
yoziladi?

5-MAVZU: ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

Reja:

1. Tovush almashish hodisasi.
2. Tovush tushish hodisasi.
3. Tovush ortish hodisa.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: so'z asosi, qo'shimcha, tovush almashish, tovush tushish, tovush ortish.

7-mashq.

Gaplarni o'qing, fonetik qoida asosida yozilgan so'zlarni aniqlang va o'zgarishlar sababini aniqlang.

1. Sovuqdan o'rtog'imning qulog'i, burni qizarib ketgan edi. 2. Malika opaning ikkala o'g'li shaharda o'qib, ulg'ayib yana bag'riga qaytdi. 3. Tuyalar suvsizlikka chidamliligi bilan boshqa cho'l hayvonlaridan ajralib turadi. 4. Qizcha yig'lab onasi tomon yugurdi. 5. Nilufar qo'g'irchog'ini bag'riga bosgancha, yugurib oyisining oldiga bordi. 6. Sharofatning yupqa lablari ko'karib pirpiradi, burni oqarib, kataklari kerildi. 7. Devoriga tolgul va bo'yni uzun oftobaning surati solingan baland ayvon. (A. Qahhor)

Asos va qo'shimchalar imlosi:

33. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) a unlisi bilan tugagan fe'llarga -v, -q, -qi qo'shimchasi qo'shilganda a unlisi o' aytiladi va shunday yoziladi: *sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz; so'ra-so'roq, bo'ya-bo'yoq; o'yna-o'ynoqi, sayra-sayroqi* kabi;

2) i unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga -v, -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli u aytiladi va shunday yoziladi: *o'qi-o'quvchi, qazi-qazuvchi, sovi-sovuq* kabi. Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli i aytiladi va shunday yoziladi: *og'ri-og'riq, qavi-qaviq* kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv qo'shiladi: *ol-oluv, yoz-yozuv* kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: *uz-uzuq, yut-yutuq* kabi. Lekin *uyushiq, burushiq, uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida i aytiladi va shunday yoziladi.

34. k, q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, *bek, yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k undoshi g undoshiga, q undoshi g' undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak-tilaging, yurak-yuragim, kubok-kubogi, bek-begi; tayoq-tayogi, qoshiq-qoshig'i, yaxshiroq-yaxshirogi, yo'q-yo'gi* kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k, q tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *ishtirok-ishtiroki, ocherk-ocherki, erk-erki, huquq-huquqim, ravnaq-ravnaqi, yuq-yuqi* kabi.

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) *o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil* kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *qayir, ayir* kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi -il qo'shimchasi qo'shilganda, *ikki, olti, yetti* so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o'rin-o'rnim, qorin-qorni, burun-burning, o'gil-o'gling, ko'ngil-ko'ngli, yarim-yarmi; qayir-qayril, ulug'-ulg'ay, sariq-sarg'ay, ikki-ikkov, ikki-ikkala, yetti-yettov* kabi;

2) *u, bu, shu, o'sha* olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -da, -gach, -cha qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda, bunday, shunda, o'shancha* kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: *buningiz, o'shanisi* kabi;

3) *o, o', u, e* unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: *bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi* (yoki *bobolari*); *orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;

b) *parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo* so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yim, obro'yingiz* kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi *parvo, avzo, obro', mavqe* so'zlariga -yi shaklida, *xudo, mavzu* so'zlariga esa -si shaklida qo'shiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi y undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda -si qo'shiladi: *dohiysi* kabi);

4) *men, sen* olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchadagi n tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

36. Quyidagi qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

1) -bon, -boz qo'shimchalari ba'zan -von, -voz aytilsa ham, hamma vaqt -bon, -boz yoziladi: *darvozabon; masxaraboz* kabi.

Lekin -vachcha qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

2) *o'rin* kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining, o'tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi -di qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan t aytilsa ham, hamma vaqt d yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

I topshiriq. Badiiy asarlardan tovush almashish sodir bo'lgan so'z qatnashgan gaplarni ko'chirib yozing.

8-mashq.

Gaplarni o'qing ajratib ko'rsatilgan so'zlarda sodir bo'lgan tovush o'zgarishlarni izohlang.

1. – Ha, qizi tushmagur. Nafasini ham chiqarmaydi-ya. **Achchig'i** ham **burnining** uchida, – dedi Murotali. (Sh. Rashidov). 2. Ayniqsa siz hamon o'zingizning **bekligingizga** borib, istig'noingizni eskicha olib borasiz. (A. Qodiriy) 3. Ufqdagi bir jom oltin batamom yerga singib ketdi, yiroq-yiroqlarda **lovullab** yongan shafaq asta so'ndi. (O. Yoqubov) 4. Siz hurmatlilarga ma'lumdir, bizning shul Otabekdan o'zga farzandimiz bo'lmay, dunyoda o'zimizdan keyin qoldiradigan **tuyog'imiz** va ko'z **tikkan** orzu havasimiz faqat shul Otabekdir. (A. Qodiriy)

II topshiriq. Jo'nalish kelishigining -ga, sifatdoshning -gan, ravishdoshning -gach, -gani, -guncha, qo'shimchalarini k va q tovushlari bilan tugagan so'zlarga qo'shib ko'ring, qo'shimchada bo'lgan tovush almashishni izohlang.

9- mashq.

Men, sen olmoshlariga -ning, -ni, -niki qo'shimchalarini park, eshik, chelak; quloq, buloq so'zlariga egalik shakllarini qo'shib gaplar tuzing.

III topshiriq. Xalq, yo'q, huquq, ocherk, bek, ishtirok, o'q, nok, tayoq, xulq, idrok, ittifoq, chok, o'roq, ishtiyoq kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shib ko'ring. Qaysi so'zlarda tovush o'zgaradi.

10-mashq.

Tovush ortishi, tovush tushishi sodir bo'lgan so'zlar qatnashgan gaplar yozing.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O's, shosh, kes fe'llariga -gan, -guncha, -gach qo'shimchalarini qo'shib talaffuz qilib ko'ring. Og'zaki va yozma nutqda bo'layotgan farqlanishni tushuntiring.

2. Asos va qo'shimchada sodir bo'ladigan tovush o'zgarishlariga misol ayting.

3. Rost, go'sht, qand, Toshkent kabi so'zlarning talaffuzidagi tovush tushishi bilan o'g'lim, singlim, ko'nglim, shahri kabilardagi tovush tushishi qanday farqlanadi?

4. Tovush ortish deganda nima tushunasiz?

5. Doim, shariat, material, doira so'zlarining talaffuzida qanday o'zgarish yuz berishini izohlang.

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А.Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиёти пойдевори. Тошкент. 1998.

2. Abdurahmonov G'., Rustamov H. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi ", 2004.

3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, "Sharq", 2009.

4. O'zbek tilining imlo lug'ati. A.Hojiyev tahriri ostida. . Toshkent, "O'qituvchi ", 1997.

Mavzu bo'yicha testlar:

1. Fonetik yozuv qoidasi so'zga qaysi qo'shimchalar qo'shilganda kuzatiladi?

A) so'z yasovchi

B) so'z yasovchi, shakl yasovchi

C) shakl yasovchi

D) ot,sifat, fe'l yasovchi

2. Egalik qo'shimchasi qo'shilganda, asosda o'zgarish bo'ladigan so'zlar qatorini toping.

A) qarmoq, etik, koptok, park, qoshiq

B) qishloq, quloq, huquq, palak, chelak

C) qaymoq, o'rik, eshik, o'rtoq, buloq

D) ishtiyoq, o'q, eshik, ko'sak, zavq

3. Qaysi qatordagi otlarda egalik qo'shimchasi qo'shilganda k tovushi g tovushiga aylanmaydi?

A) terak, yurak

B) bilak, chelak

C) tilak, ko'ylak

D) idrok, ishtirok

4. Sovuqdan o'rtog'imning qulog'i, burni qizarib ketgan edi. Ushbu gapdagi nechta so'z fonetik yozuv asosida yozilgan?

A) 4 ta

B) 3 ta

C) 5 ta

D) 2 ta

5. Yasama so'zlar berilgan qatorni toping.

A) shaftolizor, musobaqa

B) bilim,namiq

C) terim,temir

D) o'qing,unim

6-MAVZU: QO'SHMA VA JUFT SO'ZLAR IMLOSI

Reja:

1. Qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar.
2. Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar.
3. Juft so'zlar imlosi.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: qo'shma so'z, qo'shma so'z imlosi, juft so'z, juft so'z imlosi.

11-mashq.

Berilgan gaplardagi qo'shma va juft so'zlarni ajratib ko'chiring. Imlosiga e'tibor bering.

1. Shu payt tog' cho'qqisidan katta bir tosh yumaladi va yo'lidagi boshqa toshlarni qo'porib, dahshatli toshbo'ron boshlandi. (S.Ayniy)
2. Uzil-kesil javobimizni o'n kundan so'ng xabar qilamiz. (O. Mo'minov)
3. – Kim aytdi sizga meni toshbag'ir deb, – kampir arqonga yopishdi. (Gazetadan)
4. Baland g'isht poydevori to'rt uy, dahliz, devoriga tolgul va bo'yni uzun oftobaning surati solingan baland ayvon, oshxona. (A. Qahhor)
5. Quv, epchil, dag'dag'ali alloflar qo'llari, og'izlari, ko'zlari bilan ishlab, tosh-tarozidan urib, beva-bechorani ovlaydilar. (Oybek)
6. O'g'ilcha bilan qizchasi, dadam xo'rozqand olib keladilar, deb ko'z tikib o'tiribdimi? (Sh. Toshmatov)

Qo'shib yozish zarur bo'lgan o'rinlar:

38. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

39. -(a)r (inkori -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: *pirpirak (pir-pir + ak), hayhayla (hay- hay + la), gijgijla (gij-gij + la)* kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *olaqarga, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi*

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvch qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, urto'qmoq, ochildasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *kinoteat, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

Chiziqcha bilan yozish zarur bo'lgan so'zlar:

51. Juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz,, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta (10-15ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy- uyiga, ich-ichidan* kabi.

Eslatma:

1) juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli*, *xayr-xo'shlashmoq* kabi;

2) juft so'z qismlari orasida -u (-yu) bog'lovchilari kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va bu so'z qismlari ajratib yoziladi: *do'st-u dushman* (*do'st-dushman*), *kecha-yu kunduz* (*kecha- kunduz*) kabi;

3) yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-oldi*, *horasan-qo'yasan*, *uxlabman-qolibman* kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil*, *yam- yashil*, *dum-dumaloq*, *kuppa-kunduzi*, *to'ppa- to'g'ri*, *bab-barobar* kabi so'z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq so'zi qo'shib yoziladi).

53. So'zning -ma, ba- yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *ko'chama-ko'cha*, *uyma-uy*, *rang-barang*, *dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: *ro'baro'*, *darbadar* kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan olingan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser*, *kilovatt- soat* kabi.

-chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -ey (-yey) yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi*, *boraylik-chi*, *sen-a*, *kutaman-a*, *bola-ya*, *mingta-ya*, *keldi-ku*, *kelgan-u*, *yaxski-yu*, *yaxshi-da*, *qo'y-e*, *yashang-e*, *og'lim-ey*, *keldi-yey* kabi. Ammo -mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina,-qina) yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: *keliboq*, *o'ziyoq*, *ko'rganov*, *ko'rdiyov*, *mengina*, *qo'shiqqina* kabi.

55. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi: 7-sinf, 5-„A" sinf; 3-,7-,8- sinf o'quvchilari, 60- yillar, 1991- yilning 7-sentabri kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XX asr, X sinf kabi.

I topshiriq. Yuqorida berilgan qo'shma so'zlarga so'roq berib, qaysi turkumga oidligini aniqlang, imlosi bo'yicha xulosa chiqaring.

12-mashq.

Berilgan so'zlarni o'qing. Qo'shib yoziladigan so'zlarni alohida, ajratib yoziladigan so'zlarni alohida yozing.

Poy(avzal), so'z(boshi), bodom(qovoq), a'zoyi(badan), gul(beor), Karim(qassob), Oltin(ko'l), Sir(daryo), tim(qora), Katta(qo'rg'on),

umum(ta'lim), temir(yo'l), Yangi(yo'l), hamma(yoq), havo (rang), kul(rang), oq(rang), chinni(gul), nilufar(gul), atir(gul), mosh(rang), qizil(ishton), gul(hamishabahor), Qo'sh(qo'rg'on), Katta(qo'rg'on), o'rin(bosar), ish(yoqmas), Kavkaz(orti), Ural(bo'yi), Issiq(ko'l), til(oldi), til(orqa), dev(sifat), muz(yorar), o'q (o'tmas).

II topshiriq. Yuqoridagi so'zlarning ajratib va qo'shib yozilish sabablarini tushuntiring.

Ajratib yozish lozim bo'lgan so'zlar:

57. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma* kabi.

58. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil bilan kelsa ajratib yoziladi: *aytib ber, olib bor, ko'rib qo'y, qaray qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish* kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: *aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan(bilar ekan)*kabi.

59. Ko'makchilar ajratib yoziladi: *shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kunbo'yi* kabi. Lekin *bilan* ko'makchisining -la shakli, uchun ko'makchisining -chun shakli chiziqli bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun* kabi.

60. Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: *hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa* kabi. Lekin *birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon* so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, qay so'zi yoq, yer so'zlari bilan ishlatilganda bir tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: *qayoqqa, qayerda* kabi.

Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to'q, jiqqa, tim, liq, lang kabi so'zlar ajratib yoziladi: *to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq* kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi* kabi.

63. *Yildan yilga, tomdan tomga* kabi birinchi qismi chiqish kelishigida ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajtarib yoziladi.

64. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi* kabilar ajrab yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga *i* shaklida unli bilan tugagan so'zlarga *yi* shaklida qo'shiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimai hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: *gulbeor, dardisar* kabi.

III topshiriq. Joy nomlari (topominlar)ni ifodolovchi qo'shma so'zlar yozing.

13-mashq.

Qavs ichidagi so'zlarni chiziqcha bilan, qo'shib, ajratib yozing, izohlang.

O'rta(Chirchiq), orom(baxsh), har (kun), she'r(yurak), temir(tersak), och(yashil), kiyim(kechak), rang(barang), achchiq(tosh), to'q(qizil), oz(moz), to'rt(kul), eks (chempion), qiyma(taxta), unter(ofitser), qo'zi(qorin), taklif(noma), kirdi(chiqdi), bir yuz yigirma(besh), sotib(olmoq), ko'k(sulton), yer-u(ko'k), yuzma(yuz), tasdiq(qildi), g'ayri(tabiiy), baqa(terak), jigar(rang), kilovatt(soat).

14-mashq.

Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, juft va takror so'zlar hosil qiling.

Temir..., ota..., ekin..., shovqin..., to'y..., shon..., qosh..., harf..., yarog'..., say..., xatti..., raxm..., azob..., asbob..., orzu..., choy..., non..., yosh..., bola..., qavm..., urf..., ot..., kuch..., o'g'il..., yosh..., imo...

15-mashq.

Qismlari o'zaro sinonim, o'zaro antonim, o'zaro ma'nosi yaqin juft so'zlarni uch guruhga bo'lib yozing.

Azob-uqubat, alam-hasrat, yer-ko'k, chol-kampir, baxt-taxt, o'g'il-qiz, igna-ip, yem-xashak, or-nomus, tog'-tosh, mol-mulk, murod-maqsad, qish-u yoz, savol-javob, ko'rpa-to'shak, nevara-chevara, achchiq-chuchuk, yaxshi-yomon, uzoq-yaqin, qo'y-qo'zi

IV topshiriq. Yuqoridagi qatorni davom ettiring.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qo'shma so'z sodda, juft, takror so'zlardan qanday farqlanadi?
2. Qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar haqida gapiring.
3. Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar haqida gapiring.
4. Chiziqcha(defis) bilan yoziladigan so'zlar haqida ma'lumot bering.
5. Juft so'zlar o'rtasida ikki so'zni bog'laydigan -u, -yu bog'lovchisi bo'lsa, qanday yoziladi?
6. Non-pon, osh-posh, ot-pot, choy-poy shaklidagi takrorlarni izohlang. Nutqdagi imkoniyati qanday?

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиёти пойдевори. Тошкент. 1998.
2. Abdurahmonov G'., Rustamov H. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi", 2004.
3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, "Sharq", 2009.
4. O'zbek tilining imlo lug'ati. A.Hojiyev tahriri ostida. . Toshkent, "O'qituvchi", 1997.

Mavzu bo'yicha testlar:

1. Bir-biriga yaqin ma'noli juft so'zlarni toping.
A) kuch-qudrat, oziq-ovqat, baxt-saodat
B) uy-joy, oyoq-qo'l, daftar-kitob
C) yosh-qari, ost-ust, ur-yiqit
D) bug'doy-mug'doy, temir-tersak, choy-poy
2. Qaysi fikr noto'g'ri?
A) Ikkinchi qismi turdosh otdan iborat atoqli otlar qo'shib yoziladi
B) Ikki asosdan tarkib topgan turdosh otlar doim qo'shib yoziladi
C) Ikkinchi qismi atoqli otdan iborat bo'lgan qo'shma otlar ba'zan ajratib, ba'zan qo'shib yoziladi
D) B,C
3. Ikkinchi qismi birinchi qismining tovush o'zgarishi asosidagi takroridan tarkib topgan otlar...
A) takroriy otlar
B) qo'shma otlar
C) juft otlar
D) orttirma otlar

4. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiruchi to'q,jiqqa, tim, liq,lang,och, kabi so'zlar qanday yoziladi?
- A) qo'shib yoziladi
B) ayrimlari qo'shib, ayrimlari ajratib yoziladi
C) ajratib yoziladi
- D) chiziqcha bilan yoziladi
5. Qaysi so'z turkumiga oid qo'shma so'zlar doim ajratib yoziladi?
- A) ot, fe'l
B) sifat,son
C) son,fe'l
D) son,ot

7-MAVZU: BOSH HARF VA QISQARTMA SO'ZLAR IMLOSI

Reja:

1. Bosh harflar imlosi.
2. Qisqartma so'zlar imlosi.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: bosh harf, qisqartma so'z, geografik nom, atoqli ot, taxallus.

Bosh harflar imlosi

66.Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Dilbar, O'rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat, Shuhrat o'gli, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpigichxon, Salomjon Alikov kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi *Andijon*, *Yangiyo'l* (shaharlar), *Naymancha*, *Buloqboshi* (qishloqlar), *Bodomzor*, *Chig'atoy*, (mahallalar), *Zavraq* (dara), *Yorqoq* (yaylov) *Qoratog'*, *Pomir* (tog'lar), *Oqtepa*, *Uchtepa* (tepalar), *Zarafshon*, *Sirdaryo* (daryolar) , *Yoyilma*(kanal); *Turkiya*, *Hindiston* (mamlakatlar] kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz*, *Markaziy Qizilqum* kabi.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: "*Tong*" (mehmonxona) "Saodat" (firma), "Navo'z"

(xayriya jamg'armasi), "Kamalak" (matbaa birlashmasi), "G'uncha"(bog'cha), "Botanika"(sanatoriy), "Qutluq qon"(roman), "Dilorom"(opera), "Tanovar"(kuy), "Ozodlik"(haykal), "Jasorat"(yodgorlik), "Sino" (sovtgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarning, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o'rinbosari; Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: „*O'zbekiston Qahramoni*” (unvon) „*Oltin Yulduz*” (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: „*Sog'lom avlod uchun*” (orden), „*O'zbekistonda xizml ko'rsatgan fan arbobi*” (faxriy unvon), „*Matbaa a'lochisi*” (nishon) kabi.

73. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi: Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim (O. Yoqubov).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSH (Amerika Qo'shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi)* kabi. Qisqartma ot tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti)* kabi.

16-mashq.

Gaplarni ko'chiring. Bosh harflar bilan yozilgan so'z va so'z birikmalarini qaysi qoidaga muvofiqligini aniqlang.

1. E. Vohidov va A.Oripov kabi iste'dodli adiblarimiz "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lishgan. 2. E.Vohidovning "Nido" dostoni o'ta ta'sirli yozilgan. 3. A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari 1913-yilda yozilgan. 4. Do'stimning opasi SamDUda o'qiydi. 6. Hurmatli K.Akobirov Sizni bu kungi tantanali visol oqshomiga taklif etamiz. 7. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari O'rta Osiyo turkiy tillarining eng bebaho yodgorligidir.

I topshiriq. Bosh harf bilan yoziladigan geografik joy nomi, taxallus, tashkilot, orden, medal, adabiy asar, mahsulot nomlariga 10tadan misol yozing.

Qisqartma so'zlar haqida bilib oling.

So'z qismlarini qisqartirish yo'li bilan hosil bo'lgan so'zlar qisqartma deyiladi. Qisqartma otlarning yozilishi quyidagicha:

1. So'zlarning birinchi harfidan tuziladigan qisqartma so'zlarning har bir tovushi bosh harf bilan yoziladi va ularning orasida nuqta qo'yilmaydi: BMT, MDH, EHM va b.

2. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: Tosh DTU (Toshkent davlat texnika instituti), BuxDU (Buxoro davlat universiteti)

Izoh: Ism, ota ismi, familiyalar yoki ularning bir qismi qisqartirilishi mumkin: A.Fitrat, Z.M.Bobur. o'qishda ular to'la nom bilan aytiladi. Bularga nisbatan shartli qisqartmalar birikmasi qo'llaniladi.

17-mashq.

Berilgan qisqartma so'zlarni o'qib ko'ring va to'liq holda ko'chirib yozing.

AQSH, O'ZMU, MDH, XXP, EHM, SamPI, QarDU, AYQSH

Esda saqlang: qisqartma so'zlarning talaffuziga e'tibor bering: BMT(Be em te), MDH (Em de ha) va b.

II topshiriq. Qisqartma so'zlar ro'yxatini tuzing.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Turli faxriy unvon va ordenlarga sazovor bo'lgan kishilar nomini sanang.
2. Yozuvchi va shoirlar taxallusini ayting.
3. Qaysi shahar va tumanlarda bo'lgansiz?
4. Qaysi dengiz, daryo, kanal, ko'l nomlarini bilasiz?
5. Qisqartma so'zlar qaysi usullarda hosil bo'ladi?
6. Atoqli otlar va bosh harflar imlosi bir hodisami, ularning farqi nimada?

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А.Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиёти пойдевори. Тошкент. 1998.
2. Abdurahmonov G'., Rustamov H. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi", 2004.
3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, "Sharq", 2009.
4. O'zbek tilining imlo lug'ati. A.Hojiyev tahriri ostida. . Toshkent, "O'qituvchi", 1997.

Mavzu bo'yicha testlar:

- | | |
|--|--|
| 1.Qaysi hukm noto'g'ri | B) Markaziy Osiyo davlatlari |
| A) Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi | C) "Oltin Yulduz" medali |
| B) Muhim tarixiy sana va bayram nomlarining har bir so'zi bosh harf bilan yoziladi | D) "O'zbekiston Qahramoni" unvoni |
| C) Yer, quyosh, so'zlari, planeta ma'nosida kelsa, bosh harf bilan yoziladi | 3. Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping. |
| D) Siz, o'zingiz so'zlari hurmat ma'nosida kelsa, bosh harf bilan yoziladi | A) Tilshunoslik instituti |
| 2. Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping. | B) Bosh vazirning o'rinbosari |
| A) Katta Farg'ona Kanali | C) O'zbekiston Milliy Tiklanish demokratik partiyasi |
| | D) Jahon Tinchlik Kengashi |
| | 4. Qisqartma so'zlarni toping. |
| | A) boychechak, oqtosh |
| | B) Xotira kuni, Ramazon hayiti |
| | C) gultojixo'roz, "Bobur" bog'i |

- D) pedkollej, avtoqism
5. Qisqartma so'zlar haqidagi qaysi fikr to'g'ri
- A) qisqartma so'zlar orasiga nuqta qo'yiladi
- B) qisqartma so'zlar lug'ati mavjud emas
- C) qisqartma so'zlar bo'g'indan bo'g'inga ko'chishi mumkin
- D) har qanday birlikni qisqartma so'zga aylantirish mumkin

8-MAVZU: TINISH BELGILARI IMLOSI

Reja:

1. O'zbek tilida tinish belgilari.
2. Tinish belgilarining og'zaki va yozma nutqdagi ahamiyati.
3. Tinish belgilarining ishlatilish o'rinlari.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: tinish belgi, punktuatsiya, nuqta, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, ko'p nuqta, so'roq, undov, qavs, tire, qo'shtirnoq.

18-mashq.

Tinish belgilarining ishlatilish sababi, gapning ohangi va mazmunini izohlab bering.

1. Oh... Qanday soz, chiroyli bu uy! Qara bizga, ey ulug' jahon, bunday quvvat go'zallik qayda! (H.Po'lat) 2. – Qani so'zla, ishlaring yaxshimi, do'stlar qalay, adabiyotda nima yangiliklar bor? – so'radi Ahmad Husayn. (Oybek) 3. Qoramtir, pushti, qo'ng'ir bulut karvonlari Sharqqa qarab shoshilar edi.(P.Tursun) 4. Alisher Navoiy Astrobodga jo'nab ketdi, ammo uni xalq hech qachon unutmaydi. (Oybek)

Bilib oling.

O'zbek tilida 10 ta tinish belgisi bo'lib, tinish belgilari, ularning ishlatilish o'rinlarini o'rgatadigan tilshunoslikning bo'limi punktuatsiya deyiladi. Punktuatsiya lotincha *punctum* – nuqta so'zidan olingan. Punktuatsiya sintaksis bilan uzviy bog'liq.

Nuqta quyidagi o'rinlarda qo'llaniladi:

1. Tinch ohang bilan aytilgan darak, buyruq va undov gaplardan keyin: Bahor erta keldi.

2. Birinchi qismida nuqta, ko'p nuqta, undov yoki so'roq belgisi bo'lgan ko'chirma gaplar o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng: "O'rtoqlar, hozir eng hal qiluvchi palla!"—deb nutqini davom ettirdi O'ktam. — dalalarda mehnatni, musobaqani qizitish pallasi". (Oybek)

3. Qisqartirilgan ism, familiyalarning birinchi harfi yoki qismidan keyin: A.Qod. (Abdulla Qodiriy)

4. Sanash yoki ayrim fikrning qismlarini ifodalagan va oy,kun, yillarni bir-biridan ajratish uchun qo'llanilgan raqam yoki harflardan keyin: 8.IX.2011 kabi.

So'roq belgisining qo'llanish o'rni quyidagicha:

1. So'roq belgisi so'roq gaplardan keyin qo'llaniladi: Kinoga borasanmi?

2. So'roq gaplar bittadan ko'p bo'lib ketishi mumkin, bunday paytlarda so'roq belgisi quyidagicha qo'yiladi:

a) so'roq gapning har biriga ahamiyat berish lozim topilsa yoki qaysi so'roq gap mazmuniga ko'ra mustaqil bo'lsa, har biridan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi: Qishloqdagilar qanday? Og'aynilar yaxshi yurishibdimi?

b) agar so'roq gaplar mazmunan umumiy bir fikrni ifodalasa, so'roq belgisi eng so'nggi gapdan keyin qo'yiladi: —Tag'in mehmon boshlab keldingizmi? Kim kelyapti: Sarvimi, Rahbarmi, yo akangning bolalarini yetaklab kelyapsanmi?

Undov belgisining qo'llanish o'rinlari quyidagicha:

1. Kuchli his-hayajonni ifodalagandan so'ng: Hayot naqadar go'zal!

2. Buyurish, tilak, orzu ma'nolarini ifodalagan gaplardan so'ng: Tezda ko'chaga chiqing!

3. Gap boshida kelib, kuchli his hayajon ifodalagan undalmialardan, undov hamda *ha* va *yo'q* so'zlaridan so'ng: Do'stlar! Bizga ishoning. Yo'q! Rustam bunday qabihlikka bormaydi hech qachon!

Ko'p nuqta quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Fikrning tugallanganligini, so'zlovchining hayajonlanib yana nimadir aytmoqchi ekanligini ko'rsatish uchun: Agar hozir gapingizni to'xtatmasangiz...

2. Ba'zan ko'p nuqta so'zlovchining o'ylashi, mulohaza qilishini ko'rsatadi: Bugun ...bugun oldingizga o'tsam bo'ladimi?

3. Ba'zan kimningdir savoliga javob bermay indamay turishini ko'rsatish uchun ham ko'p nuqta qo'yiladi:

- Gapimga rozimisan?

- ...

4. Biror so'z yoki gapning tushuntirilganligini ko'rsatish uchun : Bugun yettinchi bo'limga kelib, ...fig'oni oshdi.

Vergul quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Uyushiq bo'laklar orasida: a) bog'lovchisiz birikkan uyushiq bo'laklar orasida: Andijon, Namangan, Qo'qon, Marg'ilon – O'zbekistonning chamani, boy bo'stoni. b) takrorlanuvchi bog'lovchilar bilan birikkan uyushiq bo'laklar orasida: u goh kulimsiraydi, goh chuqur uyga toladi. d) zidlov bog'lovchilari bilan birikkab uyushiq bo'laklar orasida: Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi.

2. Undalmalarni ajratish uchun: Yurak, sensan mening sozim.(U.Nosir)

3. Kirish so'zlarni ajratish uchun: Xullas, ertaga shu yerda yig'iladigan bo'ldilar.

4. *Ha va yo'q* so'zlarini gap bo'laklaridan ajratish uchun: Ha, nu gapingiz to'g'ri.

5. Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarda: Bahor keldi, gullarochildi.

Nuqtali vergul quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. O'z ichida vergul bo'lgan yoyiq uyushiq bo'laklar orasida: Bozordan olma, anor; pista, bodom sotib oldik.

2. O'z ichida vergul bo'lgan, mazmunan ma'lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdagi gaplarni o'z ichiga olgan qo'shma gaplarda: Bir joyda turganimda deyarli fikr qilolmayman; tanam hamma vaqt harakatda bo'lishi kerak, ana o'shanda aqlim ham harakatga keladi. (J.J.Russo)

Ikki nuqtaning qo'llanish o'rinlari quyidagicha:

1. Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan so'ng: yig'ilishda tajribali ishchilar: Salim aka, Abdukarim aka va Sobirjonlar so'zga chiqdi.

2. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda biror gap boshqa gapni izohlasa, uning sababi yoki natijasini ko'rsatsa: Abror qizni darrov tanidi: u qo'shni mahalladagi do'konda ishlar edi.

3. Ko'chirma gapdan oldin, muallif gapidan so'ng: Bobom dedi: "Uzoq yasha, bolam."

Tire quyidagi o'rinlarda qo'llaniladi:

1. Ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalanib, kesim bilan bog'lamasiz birikkan ega va kesim orasida: Yashash – mehnat qilish.

2. Uyushiq bo'laklardan so'ng kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: Uy-joy, mol-hol – barchasi senga qolsin.

3. Kirish gap bilan gap bo'laklari orasida: Tunov kungi ovchi – men uni o'rmonda uchratib qoldim – menga qiziq bir voqeani so'zlab berdi.

4. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida: –Bugun kelasizmi? – so'radi qizi.

5. Dialog tilidagi ko'chirma gaplarda: – Keldimi? –Keldi.

6. Zid ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida: Jismimiz yo'qolur – o'chmas nomimiz.

Qavsning qo'llanish o'rinlari quyidagicha:

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bir qismiga izoh beruvchi so'z yoki iboralar qavsga olinadi: Anvar (sen uni taniysan) chempion bo'ldi.

2. Misol yoki ko'chirmaning manbaini ko'rsatishda: Bir qarg'a bilan qish kelmas.(Maqol)

Qo'shtirnoq quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Ko'chirma gapni ajratib ko'rsatish uchun: "To'g'ri gapir", –dedi do'stim.

2. Ko'chma ma'nodagi so'zlar, shartli nom yoki taxallus ma'nosidagi ayrim so'z va so'z birikmalari ham qo'shtirnoqqa olinishi mumkin: Paxtakorchilar "dushman" darvozasiga to'p surishdi. "Lochin!" "Lochin!" "Parvoz"ni eshit.

19-mashq.

Kerakli o'rinlarda vergulni qo'ying va qo'yilish sababini tushuntiring.

1. Hech kim telefon qilmadi hech kim so'ramadi ham. 2. Darvoqe o'sha rasm haqida eshitganmisiz? 3. Dunyoni qizg'anma mendan azizim. 4. Xo'p biz ketdik xola.

I topshiriq. Uyushiq bo'lakli gaplar tuzing, kerakli tinish belgilarni qo'ying.

20-mashq.

Quyidagi savollarga javob bering va topshiriqlarni bajaring.

1. Ikki nuqta va nuqtali vergulning qo'llanish o'rinlari haqida gapiring va misollar yozing.

2. Undov so'zlar ishtirok etgan gaplar tuzing va tinish belgilarni qo'ying.

3. Gapning ajratilgan bo'laklari qo'llangan gaplar tuzib, tinish belgilarini qo'ying.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Nuqta hamda vergulning qo'yilish o'rinlarini ayting.

2. Tire va defies (chiziqcha)ning farqi nimada?

3. Qavs va qo'shtirnoq qaysi o'rinlarda ishlatiladi.

4. So'roq, undov belgilarining ishlatilish o'rinlari haqida gapiring.

Adabiyotlar:

5. Каримов И.А.Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиёти пойдевори. Тошкент. 1998.

6. Abdurahmonov G'., Rustamov H. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi", 2004.

7. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, "Sharq", 2009.

8. O'zbek tilining imlo lug'ati. A.Hojiyev tahriri ostida. . Toshkent, "O'qituvchi", 1997.

Mavzu bo'yicha testlar:

- | | |
|---|---|
| 1. Bog'dagi barcha qushlar// bulbul, to'ti, sa'va unga jo'r bo'ldi. Ushbu gapdagi// belgisi o'rnida qanday tinsh belgisi qo'yiladi. | D) nuqtali vergul |
| A) tire | 2. Undalmalar qanday tinish belgilari bilan ajratiladi? |
| B) vergul | A) faqat vergul |
| C) ikki nuqta | B) vergul, undov |
| | C) vergul, ikki nuqta |
| | D) nuqta, vergul |

3. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida zidlash, o'xshatish, shart, payt ma'nolari bo'lsa, qanday tinish belgi qo'yiladi?
- A) nuqtali vergul B) vergul
C) ikki nuqta D) tire
4. Kinoyali so'zlar yozuvda qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?
- A) nuqta
B) undov
C) nuqta, undov
D) undov, so'roq
5. Buyruq gaplar oxirida qanday tinish belgi qo'yiladi?
- A) nuqta
B) undov
C) nuqta, undov
D) undov, so'roq

9-MAVZU. SO'Z QUDRATI

Reja:

1. So'zlash madaniyati.
2. So'z tanlash mahorati.
3. So'zdan so'zni farqi bor, 72 naqdi bor.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: so'z, so'zlash madaniyati, so'z qudrati, so'zning tashqi va ichki tomoni, so'zning o'z va ko'chma ma'nosi.

21-mashq.

So'z va nutq odobi bo'yicha aytilgan quyidagi fikrlarni sharxlang.

1. So'zni ko'nglungda pishqormaguncha tilga keltirma, harnakim ko'nglungda bo'lsa, tilga surma. (A. Navoiy)
2. Nutq madaniyati bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir. (D. E. Rozental)
3. Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi. (Kaykovus)
4. So'z kuchidan yiqilar minbar ham, dor ham, so'z birla chiqar indan ilon-murdor ham. (Abu Shukur Balxiy)
5. Har bir kishining madaniylik darajasi o'qib qanchalik tarbiya ko'rganligi uning yozma va og'zaki nutqidan bilinadi, (S. Ibrohimov)
6. Bir deganni ikki demak xush emas, so'z chu takror topti dilkash emas. (A. Navoiy)

Esda saqlang:

O'zbek tilida, avvalo, uning boy lug'at tarkibida o'zbek xalqining ilm-u madaniyati, san'ati aks etgan, insonning bilish faoliyati jarayoni va uning natijalari ifodalangan. Asosiy lug'aviy birlik hisoblangan so'z orqali kishilik jamiyatining madaniy-tarixiy qadriyatlari, to'plangan tushuncha va bilimlar avloddan avlodga yetkaziladi.

So'z shakli va mazmun yaxlitligiga ega bo'lib, ma'no va gramatik jihatdan shakllangan bo'ladi.

So'zning shakli, ya'ni tashqi tomoni tovush (harf)lardan iborat bo'lib, bu xususiyatlari fonetikada o'rganiladi. So'zning ichki tomoni esa unda ifodalangan ma'nolar bilan tavsiflanadi. So'zlar bir ma'noli yoki ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. Ko'p ma'noli so'zlar til taraqqiyoti natijasida paydo bo'ladi.

Ajdodlarimiz qadimdan to'g'ri, ta'sirchan, chiroyli gapirishga intilish va ularni odatga aylantirishga ma'rifiy-axloqiy talab sifatida qarab kelganlar. So'zni qadrlash, yaxshi so'zlay olish, tilni tiyish, suhbat sirlarini saqlash, ezma va vaysaqi bo'lmaslik kabilarga amal qilish nutq odobining asosiy talablari hisoblangan. Nutqiy muomaladagi bu odatlar xalqimizning mangu an'anasi sifatida yashagan va takomillashib kelmoqda.

I topshiriq. “Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi”.

(P. Emerson) Mazkur fikr haqida og'zaki matn tuzing.

22-mashq.

Quyidagi maqollarni davomini toping.

1. Oz so'z— ...
2. Yaxshi gap jon ozig'i—,...
3. Aytilgan so'z —...
4. Qilichning zahri ketsa ham —,...
5. Otalar so'zi —...
6. Tilni bilish — ...
7. Aytar so'zni ayt—,...
8. Ko'p bilgan oz so'zlar—,...
9. Gapni oz so'zla—,...
10. Yaxshi gap bilan—...

II topshiriq. “Aql charxi” o’yinini tashkil eting. Unda quyidagi hazilnoma savollardan foydalaning:

1. Dengiz ostida qanday tosh bo’lmaydi? (quruq tosh).
2. Qaysi joyda osmon past bo’ladi? (suvda).
3. Qora mushuk qay vaqt uyga osongina kira oladi? (eshik ochiq bo’lsa).
4. Qozonga birinchi nima solinadi? (nazar).
5. Dunyoda nima chaqqon? (fikir).
6. Nima hamma tilda ham gapiradi? (aks-sado).
7. Odamzodda nima ko’p? (umid, reja).
8. Yumuq ko’z bilan nimani ko’rish mumkin? (tush).
9. Yomg’ir yog’ib turganda, qarg’a qanday daraxtga qo’nadi? (ho’l daraxtga).
10. Mushuk nega miyovlaydi? (gapirib bilmagani uchun).

III topshiriq. Yuqoridagi kabi hazil so’roqlardan 5 ta tuzing.

23 -mashq.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridan so’z ta’rifi bo’limini o’qib quyidagi savollarga javob bering.

1. “Suvning mazasi muz bilan, oshning mazasi tuz bilan, odam yaxshiligi so’z bilan” jumlasini sharhlang.
2. ...”Chin so’z mo’tabar, yaxshi so’z muxtasar...” jumlasini orqali qanday fikr ilgari surilgan?
3. “Yolg’on so’z baxtsizlik keltirur...” jumlasini izohlang.

IV topshiriq. Alisher Navoiyning quyidagi she’riy parchalarini sharhlab, so’z va so’zlash odobi bo’yicha matn tuzing.

1. Har kimki chuchuk so’z elga izhor aylar,
Har neki ag’yor durur yor aylar,
So’z qattig’i el ko’ngliga ozor aylar.
Yumshog’i ko’ngullarni giriftor aylar.
(“Nazm ul-javohir”dan)

2. Qaysi majlisdakim eshitsang so’z,
Bilgil ul so’z sanga omonatdur,

Gar ani o'zga yerga naql etsang,
Ul omonatga bu xiyonatdur.
(“Arbain”dan)

3. Xiradmand chin so'zdan o'zga demas,
Vale bari chin ham degulik emas.
Kishi chinda so'z zebo, durur
Necha muxtasar bo'lsa, avlo durur.
(“Mahbub ul-qulub”dan)

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. She'riyatda ko'chma ma'noli so'zning mavqeyi qanday?
2. So'z qudrati deganda nimani tushunasiz?
3. So'z va so'zlash odobi bo'yicha donishmand bobolarimizning qaysi kitoblari bor?
4. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan so'zlash odobi bo'yicha misollar ayting.
5. “So'zdan so'zni farqi bor, 72 naqdi bor” degan ibratli so'z zamirida qanday ma'no bor?
6. Adabiyot atomdan kuchli, ammo uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak. (A. Qahhor) Ushbu ibratli jumlagacha izoh bering.

Adabiyotlar:

1. Каримов И. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Тошкент. 1997.
2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч Тошкент, “Маънавият”, 2007.
3. Abdurahmonov G', Rustamov H. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. Toshkent, “O'qituvchi” 2004.
4. Алишер Навоий. Махбуб-ул қулуб. 14-том, Тошкент, 1998.
5. Кайковус. Кобуснома. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1986.
6. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, “Sharq”, 2009.
7. Югнакий А. Ҳибатул ҳақойиқ. Тошкент, 1971.

Mavzu bo'yicha testlar:

1. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?
A) Quyosh hamal yulduzlar burjiga o'tishi bilan kunlar isiy boshlaydi.
B) Shahrimiz nufuzi uch milliondan oshdi.
C) Tushga qolmay yukimiz ot-aravaga ortildi.
D) Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi.
2. Quyidagi gaplarning qaysi birida gul so'zi ko'chma ma'noda?
1. Turmush go'zal va shirin, kundan kun yashnar gulday.
2. Yashnamoqda gul turmush, biz tinchlikni istaymiz.
3. Topgan gul keltirar, topmagan bir bog' piyoz.
4. Sen uy ichining cho'risi bo'lma, guli bo'l, guli.
A) 1,4
B) 1,3,4
C) 2,4
D) 1,2,3,4
3. Atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarni toping.
1. Fe'l. 2. Ot. 3. Sifat. 4. Son. 5. Ravish. 6. Olmosh. 7. Ko'makchi. 8. Bog'lovchi. 9. Yuklama. 10. Taqlid so'z. 11. Modal so'z. 12. Undov so'z.
4. Qaysi fikr noto'g'ri?
A) So'z shakl va mazmun butunligiga ega
B) Ko'p ma'noli so'zlar til taraqqiyoti natijasida paydo bo'ladi
C) Kundalik turmushda biz asosan bir ma'noli so'zlardan foydalanamiz.
D) So'z orqali kishilik jamiyatining madaniy-tarixiy qadriyatlari, bilimlari avloddan avlodga o'tadi.
5. Yoqa so'zi quyidagi qaysi gapda ko'chma ma'noda qo'llangan?
A) Kanalning ikki yoqasi bo'ylab qurilgan ko'p qavatli uylar juda ko'rkam edi.
B) Umar qamishzorni oralab, ko'l yoqasiga chiqdi.
C) Salim anchagacha yoqasining tugmasini o'tkaza olmadi.
D) Sodiq ham o'lim yoqasida. Endi siz bilan ikkimizgina qoldik.

10-MAVZU: SO'Z TANLASH VA QO'LLASH MAHORATI

Reja:

1. Ko'ngil qulf, uning kaliti so'zdir.
2. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.
3. Nutqning to'g'riligi, aniqligi, tozaligi, ta'sirchanligi.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: o'z ma'no, ko'chma ma'no, nutqning to'g'riligi, nutqning aniqligi, nutqning tozaligi, nutqning ta'sirchanligi.

Nutqda so'zni to'g'ri tanlash va qo'llash nutq madaniyatining muhim shartlaridan hisoblanadi. Fikrni tinglovchiga tushunarli va aniq yetkazishda so'zni to'g'ri tanlash lozim.

So'z tanlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- so'zning lug'aviy ma'nosini bilgan holda tanlash;
- tanlangan so'zni aniq talaffuz eta olishni hisobga olish;
- so'zning ma'no xususiyatlariga asoslanib, uni nutq maqsadiga muvofiq tarzda tanlash.

So'zni eshitganda, u haqdagi ongimizdagi birinchi tushunchaga atash ma'no (leksik yoki lug'aviy ma'no) deyiladi. Ana shu atash ma'no asosida paydo bo'lgan qo'shimcha ma'noga ko'chma (qo'shimcha) ma'no deyiladi. So'zning gapdan (matndan) tashqarida ifodalanadigan, nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan ma'nosi o'z ma'no deyiladi. So'zning boshqa so'zlar yordamida aniqlanadigan ma'nosi ko'chma ma'no deyiladi. Masalan, inson oyog'i-o'z (asl) ma'no, stol oyog'i ko'chma (yasama) ma'no.

24-mashq.

Gaplarni o'qing, ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni topib izohlang, ko'chim asosini tushuntiring.

1, Bu toifa odamlardan qochib qutulmasang, boshqa yo'l bilan qutulib bo'larmidi. Yelim-ku, yelim ular. (S. Ahmad) 2. Endi uning o'ktam gaplari, qisqa, muayyan buyruqlaridan mamnun edi. (O. Yoqubov) 3. G'ulomjon endi o'zini ancha tutib olib, o't bilan, harorat bilan gapirdi. (M. Ismoilov) 4. Kechirasiz, men shiringina bazmingizni qora xabar bilan muzlatib qo'ydim. (Oybek)

I topshiriq. Yurak, qo'l, ko'z, qora, oq, qizil, issiq, sovuq, bir, tushmoq, chiqmoq kabi so'zlarni izohli lug'atdan foydalangan holda ko'chma ma'nolarini toping.

Namuna: qora xat, qora kun, ko'ngli qora, qora tarix, qora baxt, qora nuqta, qora ko'z, qora sovuq, qora peshona va h.k.

II topshiriq. Ko'chma ma'noli so'zlardan foydalanib "Chinor" mavzusida ramziy matn yozing.

III topshiriq. Izohli lug'atdan foydalanib, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar qatorini tuzing.

Esda saqlang:

Har bir kishi o'z nutqining to'g'ri, aniq, toza, ta'sirchan bo'lishiga erishishi lozim. Shunga ko'ra nutq oldiga muayyan talablar qo'yiladi. Bular quyidagicha:

A) **Nutqning to'g'riligi.** Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki me'yorga – urg'u va grammatik me'yorga amal qilish talab qilinadi. Urg'uni to'g'ri qo'ymaslik undagi ma'noning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Grammatik me'yor esa gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, qo'shimchalarni qo'llashda xatolikka yo'l qo'ymaslik tushuniladi.

B) **Nutqning aniqligi.** Aniq nutq yaratish so'zlovchidan quyidagilarni talab etadi:

-sinonim so'zlardan keragini tanlab, nutqda qo'llash;

-ko'p ma'noli so'zlarning ma'no jilosini bilish, nutqda anglatadigan ma'nolarini har tomonlama bilish;

-omonim so'zlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik anqlikning buzilishiga olib keladi;

-paronim so'zlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga e'tibor berish (yondosh-yondash, asir-asr, asil-asl, nufuz-nufus).

3. **Nutqning tozaligi.** Nutqning tozaligi deganda, avvalo, uning adabiy til me'yolariga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Nutqning tozaligiga quyidagilar ta'sir etadi:

-mahalliy (sheva) so'zlar;

-o'rinsiz qo'llangan chet so'zlar (varvar so'zlar);

-jargonlar;

-vulgar so'zlar;

-nutqda ortiqcha takrorlanadigan parazit so'zlar (haligi, shu desangiz, habba, ibi va b.)

4. Nutqning ta'sirchanligi. Ta'sirchan og'zaki nutq yaratish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

-tinglovchi e'tiborini, qiziqishini e'tiborga olib so'zlash;

-so'zlash jarayonida maqol, ibora, hikmatli so'z, ko'chimlardan foydalanish;

-oz, siqiq jumlalarda keng ma'noni ifodalash;

-vaziyatga qarab past yoki baland gapirish;

-so'zlashda, vaziyatga qarab mimika, pantomimikalardan foydalanish.

25-mashq.

Uslubiy noo'rin qo'llangan so'zlarni topib, ular o'rniga mosini qo'yib ko'chiring. 1. Yo'lga yondash daryo sharqirab oqardi. 2. Bolam katta bo'lsa, diplomat bo'ladi. 3. Viloyatimiz nufuzi ikki milliondan oshdi. 4. Qurilishdagi ishning to'xtab qolishiga ganj yetishmovchiligi sabab bo'ldi. 5. Masalaga men ko'rsatgan usul bilan yondoshish yaxshi natija garovidir.

26-mashq.

O'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning paronim juftini toping.

1. Aravadagi bir necha bog' beda ustida o'lgan otning **abzallari** yotar edi.

(A. Qahhor) 2. **Ablaq** yomon ot bo'ladi va uning yaxshi qilig'i kam bo'ladi. ("Qobusnoma") 3. Alisher choponiga ola-bula yamoq solingan, **adinlari** so'kilgan, bosh yalang va oyoq yalang darveshni ham ko'rdi. (Oybek) 4. Otabek Zaynabning shu qadar yurak dardi **borligini** birinchi bilar edi. (A. Qodiriy) 5. **Otalik** hissining bebaho, laziz, to'lqinlari ichra g'arq bo'lib ketdim. (G'. G'ulom) 6. Navoiy uch-to'rt yoshidan boshlab jiddiy, go'zal she'rlar yoza olgan. (Oybek) 7. Qo'ying, boy aka, **urish** yaxshi emas, deb boyning qo'lini tutdi. (S. Ayniy)

27-mashq.

Nuqtalar o'rniga sinonim so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring. 1. Uning hamisha naq olmadek qizarib turadigan yumaloq ...lari (bet, avt, bashara, yuz, jamol, oraz, ruxsor) oqarib ketgan edi. (Sh. Rashidov) 2. Yormatning eshigi har vaqtdagi ... (kabi, singari,

yanglig', o'xshash) yopiq. (Oybek) 3. ... (kuchli, baquvvat, zabardast) shamol ko'tarilib, bog'chadagi har narsani to'rt tarafga buka boshladi. (A. Qodiriy) 4. Nizomjon muhabbat bilan ... (vijdon, nomus) o'tida qovurilardi. (S. Ahmad) 5. Qora qumg'on bilan cho'pon bolani ... (zavq, maroq, shavq) bilan rasmga oldi Nodira. (Oybek)

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. So'z tanlashda nimalarga e'tibor beriladi?
2. Ko'p ma'noli so'zlarni topish uchun qaysi manbaga murojaat qilamiz?
3. Nutqning to'g'riligiga erishish nima bilan bog'liq?
4. Nutqning aniqligini ta'minlovchi vositalarni ayting.
5. Nutqning tozaligi deganda nimani tushunasiz?
6. Nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun nimalarga e'tibor beriladi?

Adabiyotlar:

1. Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008.
2. Abdurahmonov G'. Rustamov H. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. Toshkent, “O'qituvchi” 2004.
3. Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1974.
4. Маърупов З. Пароним сўзларнинг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1974.
5. Rafiyev A., Gulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, “Sharq”, 2009.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Тошкент, 2006-2008.

Mavzu bo'yicha testlar:

- | | |
|--|---|
| 1. So'zning gapdan tashqarida ifodalanadigan, nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan ma'nosi nima deyiladi? | D) O'z va ko'chma ma'no |
| A) Ko'chma ma'no | 2. So'zning gap tarkibida boshqa so'zlar yordamida aniqlanadigan ma'nosi nima deyiladi? |
| B) O'z ma'no | A) Atash |
| C) O'zlashma ma'no | B) O'z ma'no |
| | C) Ko'chma ma'no |

- D) Lug'aviy ma'no
3. Ko'p ma'noli so'zlarni belgilash uchun qaysi lug'atga murojaat qilish mumkin?
- A) Sinonimlar lug'ati
- B) Har qanday lug'atga
- C) Antonimlar lug'ati
- D) Izohli lug'at
4. Yangi "O'zbek tilining izohli lug'ati" necha jilddan iborat?
- A) 2 jild
- B) 4 jild
- C) 5 jild
- D) 10 jild
5. Noo'rin qo'llangan mahalliy so'zlar, varvar, vulgar so'zlar, parazit so'zlar nutqning qaysi xususiyatiga ta'sir qiladi?
- A) Nutqning to'g'riligiga
- B) Nutqning tozaligiga
- C) Nutqning aniqligiga
- D) Nutqning ta'sirchanligiga

11-MAVZU. SO'Z MA'NOSINING TARAQQIYOTI

Reja:

1. Metafora hodisasi.
2. Metanimiya yo'li bilan ma'no ko'chish.
3. Sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chish.
4. Vazifadoshlik.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.

1. Ikki narsa-hodisa, belgi yoki ish-harakat bir-biriga o'xshasa, birining nomi ikkinchisiga ko'chishi mumkin. O'xshashlik asosida ma'no ko'chish **metafora** deyiladi. Masalan, quloq so'zining asl ma'nosi "tirik mavjudotning eshitish organi": qozonning qulog'i, radioning qulog'i kabi qo'llanishlarda metafora yo'lida (o'xshashlik asosida) ma'no ko'chish uchraydi.

Insonga nisbatan ishlatiladigan bo'talog'im, qo'zichogim, toychog'im kabi qo'llanmalar ham metafora yo'lida ma'no ko'chishga misol bo'ladi.

2. **Metonimiya** aloqadorlik asosida ma’no ko’chish usuli hisoblanadi. Bunda ikki predmet o’rtasida hech qanday o’xshashlik bo’lmaydi. Birini nomini aytish bilan ikkinchisi tushuniladi. Misollarni kuzatamiz:

1. Majlisga butun qishloq keldi. (“qishloq ahli ma’nosida”)

2. Navoiyni o’qidim. (“Navoiy asarlari ma’nosida”)

3. Bir kosa yedim. (“bir kosa ovqat ma’nosida”)

4. Auditoriya sukutda. (“auditoriyada o’tirgan kishilar ma’nosida”)

Metonimiyada nutqni tejash ustuvorlik qiladi. Masalan, “Fuzuliy asarlarini oldim qolimga” deyish o’rniga “Fuzuliyi oldim qo’limga” deb aytish ancha qulay.

3. **Sinekdoxa** butun va qism munosabati asosida ma’no ko’chish yo’lidir. Bunda butunning nomi qismga, qismning nomi butunga ko’chadi:

1. Hech bir inson **tirnoqqa** zor bo’lmasin. (“farzand ma’nosida”).

2. Fermamiz yuz **boshga** yetdi. (“qoramol ma’nosida”).

3. Besh qo’l barobar emas (“barmoq ma’nosida”).

4. **Vazifadoshlik** muayyan narsaning ma’nosini ikkinchi bir narsa bajarishi natijasida avvalgisining nomi bilan keyingisini ham ifodalashdir. Masalan, kamonning o’qi, miltiqning o’qi, zambarak o’qi. Bunda bir vazifani turli vositalar bajarib kelmoqda. O’tmishda pardan yasalgan yozuv quroliga nisbatan qalam, bugungi kundagi “o’rtasiga grafit o’rnatilgan yozuv quroliga” nisbatan ham qalam atamasi qo’llanadi. Vazifadoshlik yo’lida ma’no ko’chish nisbatan kam uchraydi.

28-mashq.

O’qing. Metafora yo’li bilan ma’nosi ko’chgan so’zlarni aniqlang. Gaplarni ko’chirib, ma’nosi ko’chgan so’zlarning tagiga chizing.

1. Sodiq ham o’lim yoqasida. Endi siz bilan ikkimizgina qoldik. (A. Qodiriy) 2. Ikki ko’zi har nav mollar bilan to’la xurjunni yelkaga tashlab, inqillab kirdi. (Oybek) 3. Tog’larning etagidan uchib maysaga yetar. (Mirmuhsin) 4. Quyosh botib ketdi. Bir tutam nuri varrak dumlariga ilashib qoldi. (Shukrullo) 5. Xayriyat, eshikning kaliti burnida qolgan ekan. (S. Ahmad).

I topshiriq. Badiiy asarlardan metafora yo’lida ma’no ko’chish kuzatiladigan o’n ta gap yozing.

II topshiriq. Sifat, fe’l turkumiga oid metaforalarga misollar toping.

III topshiriq. Xom, pishgan, kesmoq, so'ramoq so'zlarini ko'chma ma'noda qo'llab gaplar tuzing.

29-mashq.

Metonimiya yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'zlarni topib, izohlang.

1. Butun vujudi bilan berildi u o'qishga. Har kun olib papkasini, Qatnar u "Navoiy"ga. (Mirmuhsin)
2. Butun qishloq bizni so'zlaydi, To'yimizni doim ko'zlaydi. (H. G'ulom)
3. Sizning kelishingizni eshitib, butun Marg'ilon ko'chib chiqdi. (H. Nu'mon)
4. Sakkizda eding, o'n oltiga qadam qo'yding. (H. G'ulom)
5. Zal gurullab kulib yubordi. (A. Qahhor)

IV topshiriq. Metonimiya yo'lida ma'no ko'chgan she'riy misralar ayting va izohlang.

V topshiriq. Quyidagi she'riy parchada kuzatiladigan ma'no ko'chishni aniqlang.

Lermontovni tashlamadim hech,
So'ngra qo'lga oldim Hofizni.
Pushkin menga ko'rsatdi har kech,
Yig'lab turgan bir cherkas qizni.

30-mashq.

Gaplarni o'qib, ko'chma ma'noli so'zlarni aniqlang. Sinekdoxa yo'li bilan ma'nosi ko'chgan gaplarni ko'chiring.

1. Egizakni ko'p tug'ar qo'ylar, Ko'payadi suruvga tuyoq. (Mirmuhsin)
2. Eshitgan quloq nima deydi. (H. G'.)
3. Allo, hozir Toshkent bilan gaplashasiz.
4. O'ttizga kirsam ham cho'chib turaman, Ko'zim tushsa oq xalatlarga. (E. Vohidov)
5. Surxonboy zal etagida tik turib bolalarini uzundan-uzoq duo qildi. (I. R.)
6. Qulingizdan qolgan yolg'iz tirnoq bu. (Y. Sulaymon)
7. Qishloq uyg'onmoqda.
8. Quvnoq tongning oltin bo'sag'asida, Tongni kutar quvnoq ming-ming ko'z. (Mirmuxsin)

VI topshiriq. O'qib turgan badiiy asarlaringizdan metafora, metonimiya, sinekdoxaga misollar topib ko'chiring, izohlab bering.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Metafora haqida gapiring.

2. Metonimiya yo'lida ma'no ko'chishning o'ziga xos xususiyati qanday?

3. Sinekdoxa haqida gapiring.

4. Vazifadoshlik qanday ma'no ko'chish?

5. Yod olgan she'rlaringizning qaysilarida ma'no ko'chish uchraydi? Misollar ayting, izohlab bering.

Adabiyotlar:

1. Olimov M. Ilmul - lug'ot yoki leksikologiya. O'quv qo'llanma. Buxoro, "Buxoro", 2010.

2. Raxmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent, "Universitet", 2006.

3. Rafiyev A, G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, "Sharq", 2009.

4. Tursunov U va boshqalar Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "O'qituvchi", 1992.

Mavzu bo'yicha testlar.

1. Aloqadorlik asosida ma'no ko'chish nima deyiladi?

A) Metafora

B) Metonimiya

C) Sinekdoxa

D) Vazifadoshlik

2. Metafora qaysi so'z turkumlari doirasida uchraydi?

A) Ham mustaqil ham yordamchi so'zlarda

B) Faqat ot so'z turkumida

C) Ot, sifat, fe'lda

D) Deyarli barcha mustaqil so'z turkumlarida

3. E. Vohidovdan yodlab kelinglar, - dedi o'qituvchi. Gapda ma'no ko'chishning qaysi usuli bor?

A) Metafora

B) Metonimiya

C) Sinekdoxa

D) Vazifadoshlik

4. Stulning singan oyog'ini

tuzatamiz. Gapda ma'no

ko'chishning qaysi turi mavjud?

A) Metafora

B) Metonimiya

C) Sinekdoxa

D) Vazifadoshlik

5. Sinekdoxa yo'li bilan ma'no

ko'chgan qatorni toping

A) O'qituvchi xafa

bo'lib, auditoriyaga o'shqirdi

B) Gapga yana gap ular, o'zaro

suxbat gullar

C) Belni aldab-aldab ishga

solmasak bo'lmas

D) Urush ko'p odamlarning

yostig'ini quritdi

12-MAVZU. MA'NODOSH, SHAKLDOSH VA ZID MA'NOLI SO'ZLAR TAVSIFI

Reja:

1. So'zlarning ma'no va shakl munosabatiga ko'ra turlari.
2. Ma'nodosh so'zlar.
3. Shakldosh so'zlar.
4. Zid ma'noli so'zlar.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: ma'nodoshlik, shakldoshlik, zid ma'nolilik.

Tildagi ayrim so'zlar shakliy jihatdan, ayrimlari ma'no jihatdan, ba'zilar esa talaffuz jihatidan o'xshash bo'ladi. Ayrim so'zlarning ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi. Ana shu xususiyatlariga ko'ra so'zlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

I. Ma'nodosh so'zlar. Bir umumiy ma'noni ifodalaydigan kamida ikkita so'zdir. Ma'nodosh so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zlardan iborat bo'lgan sinonimik qatorni tashkil etadi. Masalan, sovg'a, hadya, tuhfa, armug'on.

Umumlashtiruvchi ma'no zamirida yuzaga kelgan ma'no noziklari ularning farqini va qo'llanishida o'ziga xoslikni ta'minlaydi.

Ma'nodosh so'zlar odatda bir so'z turkumiga mansub bo'ladi: do'st, o'rtoq, (ot); a'lo, tuzuk, yaxshi (sifat); yuksalmoq, o'smoq, rivojlanmoq (fe'l).

Ayrim ma'nodosh so'zlarda ma'no daraja turlicha bo'ladi. Masalan, pushti, gulobi, qizil, qirmizi ma'nodoshlik qatorida rang belgisining kamlikdan ko'plikka qarab o'sib borishi kuzatiladi. Ninni, chaqaloq, go'dak, bola kabi so'zlar qatorida ham yosh jihatdan o'sish (darajalanish) kuzatiladi.

31-mashq.

Quyidagi so'zlardan ma'nodoshlik qatorlari tuzib yozing.

Ko'p, ayb, bahs, sovg'a, mo'l, tanqis, osmon, uy, odim, ko'k, kulba, bahor, yashirin, ancha, hadya, o'g'rincha, talay, pinhona, munozara, tortiq, kamchil, jinoyat, tortishuv, armug'on, taqchil, xufiya, tuhfa, maxfiy, falak, qasr, qadam, ko'klam.

32-mashq.

Ma'nodosh so'zlarni topib, ma'no nozikliklarini farqlanishini tushuntiring.

1. Saharlab turaman, qutlayman tongni, Bo'ynimga osilar subh shamoli. (Mirmuhsin) 2. Erur bas chu husn-u malohat senga, Yasanmoq, bezanmoq ne hojat senga. (Navoiy) 3. Falakdan, osmondan, ko'kdan oshgay faxr etib boshim. (Habibiy) 4. Mirzakarimboy ilonning yog'ini yalagan odam edi, ayyor, mug'ambir, puxta-pishiq... Har ishda ehtiyotkorlikni ma'qul ko'rar edi. (Oybek) 5. Ba'zan uni o'qiyman oshkor, Ba'zan xufiya – g'oyatda pinhon. (Mirmuhsin).

I topshiriq. Affiksal ma'nodoshlikni aniqlang. Qatorni davom ettiring.

Somsachi-somsapaz, sutli-sersut, mardona-mardlarcha, chorvachi-chorvador, serharakat-harakatchan, adabiyotchi-adabiyotshunos...

II topshiriq. Yuqoridagi so'zlarda ma'noviy farqlanish seziladimi, agar bo'lsa farqlab bering, 4 ta gap tuzing.

II. Shakldosh so'zlar aytilishi va yozilishi bir xil, ammo ma'nolari har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: 1) so'z-puxta, ma'qul; 2. soz – cholg'u asbobi; 3. soz – inoq, o'zaro yaqin.

Shakldosh so'zlarni ko'p ma'noli so'zlardan farqlash lozim. Ular aytilishi va yozilishi bir xilligi jihatidan o'xshash bo'lsa-da, shakldosh so'zlar ma'nosida ichki bog'lanish bo'lmaydi, ularning har biri alohida ma'noga ega bo'lgan so'zlardir. Yuqorida keltirilgan **soz** so'zining har biri alohida so'z hisoblanadi. Ko'p ma'noli so'z esa, o'z nomidan anglashilayotganidek, bir necha ma'nosi bo'lgan bir so'zdir. Ko'p ma'noli so'zlar anglatgan ma'nolarda ichki bog'lanish bo'ladi.

Shakldosh so'zlardan uslubiy maqsadlarda keng foydalaniladi, ular badiiy adabiyot va so'z san'atida muhim ta'sirchan vosita sanaladi. Shakldosh so'zlarni qo'llash bilan turli so'z o'yinlari, askiya, payrov, hazillar kelib chiqadi, she'riyatda tuyuq janri tuziladi. Masalan:

Har qancha bilsang ham, o'qi erta-**kech**,
Bilim tog'iga chiq, dengizidan **kech**.
Quruq savlatingga mahliyo bo'lma,
Mehnat mashaqqatsiz halovatdan **kech**. (Habibiy)

Matn mazmunini ochuvchi shakldosh so'zlarning ma'nosini to'g'ri farqlay bilish muhimdir. Ma'noni to'g'ri anglay olmaslik nutqda noaniqlikka, ba'zan qo'pol xatoga yo'l qo'yish hollariga olib keladi. Bu hol, ayniqsa, shakldoshlarning boshqa ko'rinishi – paronimlar (tovush jihatdan farqli, ammo aytilishi o'xshash so'zlar)da ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Masalan: ahil-ahl, asir-asr, diplomat-diplomant, yonilg'i-yoqilgi, asil-asr, adib-adip.

33-mashq.

Ajratib ko'rsatilgan shakldosh so'zlarning ma'nolarini izohlang.

1. Dunyoda bor ekan har narsaga **chek**, Bema'ni umringga bir oz qayg'u **chek**. (G'.G'.) 2. La'lidin jonimga o'tlar **yoqilur**, qoshi qaddimni jafodin **yo qilur**. (Navoiy).

3. Sham yanglig' yonadur boshimda **o't**,
Ko'z yoshimdin yer yuzida undi **o't**.
Qon yoshim qildi yo'lingni lolazor,
Munga taqsir ayladim, qpnimdan **o't**. (Navoiy)

4. Taqdiringni qo'ling bilan **yo**
Mening bilan qishni qilgin **yo**.
Erkinlikning osmonida uch,
Maqsad sari qanotingni **yo**. (N. Nuriy)

III topshiriq. “O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati” (Sh. Rahmatullayev, 1984) kitobi bilan tanishing. Kam qo'llanuvchi shakldosh so'zlar lug'atini tuzing.

IV topshiriq. El, kuy, savdo, chang, palla, sandal, pasta, tom kabi so'zlarning shakldoshlik juftliklarini toping, 6 ta gap tuzing.

III. Zid ma'noli so'zlar bir-biriga zid, qarama-qarshi ma'noni bildiruvchi so'zlardir. Masalan: past-baland, oq-qora, keng-tor.

Odatda ikki ta so'zning zid leksik ma'no munosabati zid ma'noli (antonim) so'zlarni hosil qiladi, birini aytish bilan uning zid ma'nosi ham nazarda tutiladi. Tilda belgi-xususiyat anglatuvchi so'zlarda zidlik, qarama-qarshilik munosabati kengroq tarqalgan: uzoq-yaqin, oq-qora, och-to'q, do'st-dushman kabi. Sifat va ravishda antonimlik ko'p uchraydi.

Zid ma'noli so'zlarning nutqda juft holda ishlatilishi ko'proq uchraydi, bunda so'z ma'nosi kengaygan bo'ladi, umumlashtiruvchi ma'no ifodalaydi: yaxshi-yomon, uzoq-yaqin, oq-qora, katta-kichik va boshqalar.

Zid ma'noli so'zlar she'riyatda tazod san'atini yuzaga keltiradi: Sevgan ko'ngil shoh bo'lurmi va yoki gado, bila olmadim. (E. Vohidov).

34-mashq.

Quyida berilgan iboralarga zid ibora topib yozing.

1. Og'zi qulog'ida –
2. Qo'y og'zidan cho'p olmagan –
3. Tili achchiq –
4. Yog' tushsa, yalagudek –
5. Ko'ngli oq –
6. Ishqi tushdi –
7. Yuragi qisdi –
8. Mum tishlamoq –
9. Dunyodan o'tmoq –
10. Dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaslik –

V topshiriq. Zid ma'noli so'zlar qatnashgan xalq maqollaridan 10 ta yozing, ma'nosini izohlang.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ma'nodosh (sinonim) so'zlar nutqimizda qanday paydo bo'ladi?
2. To'liq sinonimlar va ma'noviy darajalanuvchi so'zlar haqida ma'lumot bering, misollar bilan tushuntiring.
3. Shakldosh so'zlar (omonim) haqida gapiring.
4. Paronim so'zlarga 10 ta misol ayting.
5. Zid ma'noli so'zlar (antonim) haqida gapiring.
6. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari badiiy adabiyotda qanday san'atlarni yuzaga keltiradi?
7. Sinonim, omonim, antonim, paronim so'zlar lug'ati bilan tanishmisiz? Bu lug'atlarning ahamiyati qanday?

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'. Rustamova N. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. Toshkent "O'qituvchi", 2004.

2. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1974.
3. Маърупов З. Пароним сўзларнинг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи” 1974.
4. Рафиёв А. Ғ’уломова Н. Она тили ва адабиёт. Toshkent, “Sharq”, 2009.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1984.
6. Раҳматуллаев Ш. Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980.

Mavzu bo'yicha testlar:

1. Iboli, hayoli, nomusli, oriyatli, san'atini hosil qiluvchi vositani andishali sinonimik qatoridan belgilang.
bosh so'zni toping.
A) Iboli
B) Oriyatli
C) Nomusli
D) Hayoli
2. Kambag'al so'zining ma'nodoshlarini toping.
A) Muhtoj, kamchil, qashshoq
B) Tanqis, bechora, miskin
C) Miskin, yo'qsil, kalta
D) Qashshoq, bechora, faqir
3. Orzu so'zining ma'nodoshini toping.
A) Istak, xohish, havas
B) Havas, mayl, kelajak
C) Tilak, istak, sog'inmoq
D) Hafsala, mayl, ishkal
4. Adabiyotda antiteza (qarshilantirish) usuli, tazod
5. Shakldosh so'zlar berilgan qatorni toping.
A) Tut, kuy, qozi, rasta
B) Soch, o't, bor, qo'l
C) Qo'y, sandal, palla, sur
D) Mol, soz, qosh, jo'r
6. Qaysi gapda paronim bilan bog'liq xato mavjud emas?
A) Imtihonda Mansurjonga bir bal yetmadi
B) Majlis ahlining aksariyati xursand bo'ldi
C) Mashinaga yoqilg'i quying
D) A, B, C.

13-MAVZU. SO'ZLARDA HISSIY-TA'SIRIY MUNOSABAT IFODASI

Reja:

1. So'zlarning hissiy-ta'siriy jihatdan turlari.
2. Uslubiy betaraf so'zlar.
3. Bo'yoqdor so'zlar.
4. Ijobiy va salbiy bo'yoqdor so'zlar.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: hissiy-ta'siriy so'z, betaraf so'z, bo'yoqdor so'z, ijobiy bo'yoqdor so'z, salbiy bo'yoqdor so'z.

35-mashq.

Gaplarni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'no ifodasini tushuntiring.

1. **Onajon**, qolganlar baxtiga faqat, Olov bulg'amasa bo'ldi olamni.

(A. Oripov) 2. Va shabboda **qurg'ur** ilk sahar, Olib ketdi gulning totini.

(H. Olimjon) 3. **Sut ko'r qilg'ur, haromi** Gitler, oqqadar, Farzand qdrini qayerdan bilsin. (G'. G'ulom) 4. Kechir, **arslonim**, hozir uyingga bormoqchi edim. (Oybek) 5. **Tentakkinangiz** savlatlikkina yigit bo'lib qaytdi-ya, sallotlikdan. (G'. G'ulom).

So'zlovchingni turli hissiy-ta'siriy munosabatlarini ifodalash xususiyatlariga ko'ra so'zlar ikki turga ajratiladi. Bular **betaraf so'zlar va bo'yoqdor so'zlardir**.

Muayyan tushunchani ifodalab, so'zlovchining turli munosabatini bildiruvchi, qo'shimcha ma'no jilosi bo'lmagan so'zlar hissiy-ta'siriy jihatdan **betaraf so'zlar** hisoblanadi. Masalan, yil, kun joy, qo'shiq, kitob, tuman, yozmoq, kelmoq kabi.

Leksik ma'no bilan birga, ma'nosi anglashilayotgan narsa, belgi yoki harakat-holatga so'zlovchining turlicha munosabatlarini ham ifodalovchi so'zlar hissiy-ta'siriy jihatdan bo'yoqdor so'zlar sanaladi: Masalan, chehra, jamol, bashara, tabassum, noshud, naynov, ko'rkam, do'mboq, gazanda kabi.

Bo'yoqdor so'zlar hurmat, erkalash, xushmuomalalik, ko'tarinki ruhiyat kabi qo'shimcha ma'nolarni ifodalasa **ijobiy bo'yoqdor** so'z sanaladi. Masalan, ukajon, kenjatoy, fusunkor, orombaxsh, jilmaymoq kabi.

Hissiy-ta'siriy munosabat nafratlanish, mensimaslik, kinoya, qarg'ash, hurmatsizlik ma'nolarga ega bo'lgan surbet, bashara, tirjaymoq, axmoq, mijg'ov, nonko'r, kabi so'zlar orqali ifodalansa, bunday so'zlar salbiy bo'yoqdor so'zlar sanaladi.

36-mashq.

Quyida berilgan so'zlarni "betaraf so'zlar", "ijobiy bo'yoqdor so'zlar", "salbiy bo'yoqdor so'zlar" tarzida guruhlab chiqing.

Kitob, insofli, daraxt, mehribon, qallob, oshpaz, ziyrak, dangasa, zo'ravon, bag'ri keng, ziqna, bashara, oraz, daftar, iljaymoq, jilmaymoq, vaysamoq, o'simlik, tabiat, xushmuomala, ayyor, dono, boshlamoq, tanti, qalam, tasqara, lochin, kabutar.

I topshiriq. Yuqoridagi qatorni mustaqil davom ettiring.

II topshiriq. Odamzodga xos bo'lgan ijobiy va salbiy xususiyatlarni yozib chiqing.

III topshiriq. O'qigan asarlaringiz qahramonlaridan birini tanlab, tanqidiy matn yarating, ijobiy va salbiy xususiyatlarini ko'rsating.

Atamalar ikkiga bo'lib o'rganiladi:

A) Ilmiy atamalar

B) Kasbiy atamalar

Ilm-fan, texnikaga oid so'zlar ilmiy atamalar deyiladi. Bular shu soha doirasida, odatda bir ma'noda qo'llanadi. Atamalar termin yoki istiloh deb ham yuritiladi. Tilshunoslikka oid atamalar: fonema, grafika, yuklama, ajratilgan bo'lak, undalma va h. k. Adabiyoshunoslikka oid atamalar: aruz, bahr, turoq, qofiya, radif, tuyuq.

Kasb-hunarga oid so'zlar kasbiy atamalar deyiladi. Jamiyatda ilm-fan bilan birgalikda kasb-hunar ham mavjud. Yuzlab kasb-hunar tarmoqlari mavjud. Har birining o'ziga xos, o'z hunarlariga doir atamalari bor. Etikdo'zlik kasbiga oid atamalar: angob, loya, qolip,

sog'i, betlik, poshna, charm. Tikuvchilikda: nina, ip, angishvona, tikuv mashinasi, andoza va h. k.

37-mashq.

O'qing, kasb-hunarga oid so'zlarni aniqlab, ma'nosini izohlashga harakat qiling.

1. Buni sotib, charm ip, sirach, mum singari kosibchilik uchun kerakli ashyolarni oldi. (Oybek) 2. Ko'zgusini xushlamay, yerga otib tashlabdi, Angishvona, ignasin zanglar bosa boshlabdi. (M. Qo'shmoqov) 3. Ostonada munqayib o'tirgan chol yonboshiga qo'yib olgan paqirdan qiyshiq-qiyg'ir mixlarni olib, bolg'a bilan to'g'rilardi. (S. Ahmad) 4. Yo'lchi uch haftadan beri aravada gazlama tashiydi. (Oybek) 5. Boshqa bir hovlida ikki bola erinchoqlik bilan arra tortardi. ("Yoshlik").

38-mashq.

Ilm-fanga oid atamalarni topib izohlang. Qaysi fan atamasi ekanligini ayting.

1. Uyushiq bo'laklar orasida vergul yoki va ham, hamda singari bog'lovchilardan biri qo'yiladi. 2. Kichkinagina bir hikoya shunchalik azob bilan yozilsa, eng kamida qirq-ellik hikoyaga teng keladigan roman qanday yozilar ekan? (U. Normatov) 3. Kollektiv – katta kuch degan aksioma bu yerda ham o'zini ko'rsatdi. (P. Qodirov) 4. Tog' qishloqlarining tesha tegmagan, ishonsa ham, ishonmasa ham bo'ladigan g'alati ertaklari, afsonalari bo'ladi. (H. G'ulom).

IV topshiriq. Badiiy asarlardan ilm-fan va kasb hunarga oid so'zlar qatnashgan gaplar yozing.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Hissiy-ta'siriy so'zlar deganda nima tushunasiz?
2. Uslubiy betaraf so'zlar deb nimaga aytiladi?
3. Ijobiy va salbiy bo'yoqdor so'zlarning o'zaro farqi nimada?
4. Ilmiy atamalar qanday hosil bo'ladi?
5. Kasbiy atamalarning ilmiy atamalardan farqi nimada?

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'. Rustamov H. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. Toshkent, "Oqituvchi", 2004.
2. Rafiyev A. G'ulomov N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, "Sharq", 2009.

3. Турсунов У ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992.
4. Қиличев Э. Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Бухоро 2002.

Mavzu bo'yicha testlar:

- | | |
|--|--|
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Harakat ma'no darajasi oshib borgan qatorni ko'rsating.
A) Jim turmoq, kulmoq, yig'lamoq
B) Qizil, qizg'ish, qip-qizil, qirmizi
C) Yurmoq, chopmoq, yugurmoq, yelmoq
D) Baqirmoq, so'zlammoq, pichirlamoq, shivirlamoq 2. Bo'yoqdor so'zlar, odatda qaysi uslubda qo'llanadi?
A) Ilmiy uslubda
B) Badiiy uslubda
C) Rasmiy uslubda | <ol style="list-style-type: none"> D) So'zlashuv uslubida 3. Ijobiy bo'yoqdor so'zlar berilgan qatorni toping.
A) Dilkash, immilamoq, xushro'y
B) Tasqara, xudbin, naynov
C) Umid, manzara, xayolan
D) Fusunkor, orombaxsh, kenjatoy 4. Betaraf so'zlar berilgan qatorni toping.
A) Qalam, gul, hovli
B) Mijg'ov, daftar, dono
C) Qizil, doim, gazanda
D) Bo'r, ovqat, ko'rkam. |
|--|--|

14-MAVZU: IFODA ANIQLIGI – FIKR RAVSHANLIGI

Reja:

1. Gap – sintaksisning asosi.
2. Gapga xos xususiyatlar
3. Gapni shakllantiruvchi sintaktik aloqa vositalari.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: so'z birikmasi, gap, ohang butunligi, grammatik shakllanish.

39-mashq.

Gap tarkibidagi so'zlarni bog'lab turgan vositalarni aniqlang.

1. Boboxon goh o'chirg'ichga, goh bug'doyzor tomon uchib ketayotgan chumchuq bolasiga, goh Tal'atga qarab hang-mang bo'lib

qolgan edi. (O'. Usmonov) 2. Zamonaviy bilimga ega odobli, ilmi, barkamol va shijoatli farzandlar bizning kelajagimizdir. 3. Bilmaslik ayb emas, bilmaslikni bo'yniga olmaslik ayb. 4. Boshqalar qalbiga yaxshilik urug'ini ekkan odam chinakkam insondir.

Tugallangan ohang va fikrga ega bo'lib, grammatik jihatdan shakllangan, muomalaning eng kichik vositasi hisoblangan yakka so'z yoki so'zlar yig'indisi gap deb ataladi. Gap fikrni ifodolovchi birlik sifatida matnning eng kichik ko'rinishi hisoblanadi.

So'z va so'z birikmalari muayyan grammatik shakllar, ohang va tartib bilan mantiqiy jihatdan bog'langan tarzda gapni shakllantiradi. Demak, gapga xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilar:

1. Gap biror-bir voqea-hodisa haqidagi xabarni, so'roqni, buyruqni ifodolovchi asosiy sintaktik butunlik.

2. Gap so'z va so'z birikmalaridan iborat bo'lib, fikr ifodalaydi.

3. Gap mazmunan(mantiqan) va grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan bo'ladi.

Izoh: 1. Qish kelib, o'riklar gulladi. 2. Otam uyga edilar. Birinchi gap mantiqan noto'g'ri bo'lsa, ikkinchi gap grammatik jihatdan noto'g'ri shakllantirilgan. Ikkinchi gapda -ga jo'nalish kelishigi o'rnida - da o'rin-payt krlishigi bo'lishi kerak.

4. Gap uchun asosiy xususiyatlardan biri ohangdir. Ayrim so'zva so'z birikmalarini tugal ohang bilan aytsak, gap hosil bo'ladi(Bahor. Ko'm-ko'k dala)

5. Ayrim gaplarning ohangini o'zgartirish orqali har xil mazmun ifodalashi mumkin:

1. Do'stlarimiz keldi.

2. Do'stlarimiz keldi!

3. Do'stlarimiz keldi?

6. So'z tartibini o'zgartirish orqali ham gap hosil bo'lishi mumkin: Katta bino – bino katta, musaffo havo – havo musaffo.

7. Ayrim gaplarni ohangini o'zgartirish mazmuniga ham ta'sir ko'rsatadi:

1. Ko'p //bolali ayol – Ko'p bolali// ayol.

2. Katta-katta mevali// daraxt – Katta-katta// mevali daraxt.

3. Baland boloxonali uy - Baland boloxonali//uy.

8. Gapda so'zlar quyidagi vositalar orqali o'zaro bog'lanib, sintaktik aloqaga kirishadi:

1. Otga xos egalik, kelishik qo'shimchalari.
2. Fe'lga xos zamon, mayl, shaxs-son qo'shimchalari.
3. Ko'makchi, bog'lovchi.
4. Bog'lamalar (-dir, hidoblanadi, sanaladi, edi, ekan, emish va h.k.)
5. Ohang.
6. Tartib.

40-mashq.

Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalar yoki yordamchi so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Ular... har bir o't ichi... yuksak harbiy mahorat ko'rsatgan safdoshlari ... nomlari... bilish... oshiqardilar. 2. Til jamiyat... eng muhim aloqa qurolidir. 3. Shoir kovushi ... loy qilmaslik ..., chet .. ehtiyotlik... yurib ketdi. 4. San'atkor kishilar ... ta'sir etishi uchun u ... o'zi izlanuvchan, asari... izlanish... iboart bo'lishi shart.(L.Tolstoy)

I topshiriq. “Farzandning ota-ona oldidagi burchi” mavzusida matn yozing. Matn tarkibidan sintaktik aloqa vositalarini belgilang.

41- mashq.

Misollarni o'qing, gaplarda so'zlarning bog'lanishini tushuntiring.

1. Jo'raxon gulzorda, choyxona yonida ko'rgan yo'lovchi va xotini haqida so'zlab berdi. (A.Muxtor) 2. Oltin olovda bilinadi, odam mehnatda.(Maqol) 3. Birni birov bersa, ko'pni mehnat beradi. (Maqol) 4. Suvlar tiniq, yaproqlar oltin. (Uyg'un) 5. Oq chinor, ko'kimtir va hokazo tusli kabutarlar och ko'zlik bilan shoshib-pishib don terar edi. (Oybek)

II topshiriq. Badiiy asardan parcha o'qib, undagi gaplarning shakllanishi va bog'lovchi vositalarini belgilang.

III topshiriq. Gap bo'laklarining o'zgargan tartibi uchraydigan she'riy parchalar ayting. O'zgargan tartibni odatdagi holga keltiring, xulosa chiqaring.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. So'z, so'z birikmasi, gapning o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini ayting.

2. Gap uchuin muhim belgilar nima?
3. Gap tarkibidagi so'zlarni bog'lovchi vositalarni ayting. Har biriga misollar keltiring.
4. Ohang vositasida farqlanishi mumkin bo'lgan misollar ayting.
5. Mantiqan va grammatik jihatdan to'g'ri shakllanmagan gaplar tuzing.

Adabiyotlar:

1. Ne'matov H va b. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. Toshkent, 2006.
2. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, "Sharq", 2009.
3. Ғулӯмов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, "Ўқитувчи", 1987.

Mavzu bo'yicha testlar:

- | | |
|--|---|
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Gap haqidagi qaysi fikr noto'g'ri?
 A) Gap tarkibidagi so'zlar o'zaro sintaktik aloqaga kirishadi
 B) Gap markazi ega hisoblanadi.
 C) Fe'lga xos nisbat qo'shimchalari so'zlarni bog'lovchi vosita bo'lolmaydi.
 D) Ko'makhi, bog'lovchi so'zlar sintaktik aloqa vositasi bo'la oladi 2. Yo yerning kuchi yo'q, yo urug' yaxshi emas. Ushbu qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalarni toping.
 A) - ning qaratqicha kelishigi
 B) ohang
 C) yo..yo ayiruv bog'lovchisi
 D) bog'lama | <ol style="list-style-type: none"> 3. Ko'm-ko'k dala birikmasidagi so'zlar qanday vosita bilan bog'langan?
 A) Bular orasida bog'lanish yo'q
 B) Ohang bilan
 C) Yashirinib kelgan qo'shimcha bilan
 D) Tartib bilan 4. Fikr ifodolovchi matnning eng kichigi nima deyiladi?
 A) so'z
 B) so'z nirikmasi
 C) gap
 D) fonema 5. Gap tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?
 A) morfemikada
 B) uslubiyatda
 C) morfologiyada
 D) sintaksisda |
|--|---|

15-MAVZU: MATN TURLARI. DIALOG, MONOLOG MATNI. GAPLAR ORASIDA MA'NODOSHLIK

Reja:

1. Matn – mazmunan va grammatik jihatdan shakllangan butunlik.
2. Dialogik matn.
3. Monologik matn.
4. Gaplar orasida ma'nodoshlik.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: matn, dialogik matn, monologik matn, gaplarda ma'nodoshlik.

Ma'lum voqelik haqida tasavvur (ma'lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi.

Matn og'zaki va yozma nutqqa xos bo'lishidan qat'iy nazar, ikki xil bo'ladi: dialogik va monologik.

Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr ba axborot almashinuvidan iborat.

Ikki kishi o'rtasidagi dialogik nutq savol-javob, buyuq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani bildiradi. Ko'p kishilik diologlarda suhbat mavzusi savol javoblardan iborat bo'lmay, o'rtada tashlangan savol, taklif, da'vat, biror bir xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshi, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llaniladi. Bunday matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi. Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.

I topshiriq. Yuqorida bayon qilingan ma'lumotlar asosida matnni tahlil eting. Tahlilda quyidagilarga e'tibor bering:

- ushbu dialogik matn necha a'zoli;
- matnda ifodalangan fikr;
- matnni shakllantirgan leksik vositalar;
- matn gaplarining tuzilishi;

- Shu deyman, Toshpo’lat, sen menga bundoq xushomad qilsang-u Xolidaga uylansang nima bo’larkan? – deb hazillashdi Samad. – U mening jiyanim, sen mening do’stim, begonaga uzatgandan ko’ra...
- Senga xudo bas kelsin, oshna, –dedi G’aybarov. – Esing joyidami yo meni uyingga kelmaydigan qilmoqchimisani?
- Nega qarindosh bo’lsak yomonmi?
- Xolida hali yosh-ku?.. – Ma’suma bu gap og’zidan qanday chiqib ketganini payqamay qoldi. Labini tishladi. G’aybarovga zimdan razm soldi: yo’q, og’rinmadi, tusi o’sha-o’sha...
- Hazil, – deb kuldi Samad. – Darvoqe, Toshpo’lat, ko’pdan beri so’ramoqchi bo’lib yuribman, haliyam Galatepaga ko’milishim shart, deb o’ylaysanmi?
- Har holda, tug’ilgan joying...

Murod Muhammad Do’st

Tavsifiy matn

Tavsifiy (monologik) matn so’zlochi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma’lumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi.

Tavsifiy matn yaratishda uyushiq bo’laklar, ajratilgan gap bo’laklari, atov gaplar, qo’shma gap ko’rinishlaridan keng foydalaniladi.

Tavsifiy matn ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir.

Monologik nutq ko’pincha sahna yoki boshqa adabiy asar ishtirokchilari o’z-o’ziga yoki o’zgalarga qarata so’zlaydilar. Bunday nutq javob talab qilmaydi, Ichki kechinmalarni yuzaga chiqarishda foydalaniladi.

II topshiriq. Iste’dodli adib Oybekning “Qutlug’ qon” asaridagi Yo’lchi o’limidan so’ng aytilgan Shokir otaning monologik nutqini topib, yod oling.

III topshiriq. O’zingiz yoqtirgan badiiy qahramon yoki aktyorning qiyofasini va tabiatini tasvirlab matn tuzing.

IV topshiriq. Berilgan matn parchalarini o'qing, ular tavsifiy matnning qaysi shakllariga xosligini aniqlang, mazmun jihatdan bayon usuli qanchaligini belgilang va shular asosida farqlarini izohlang.

- I. "...Shunday qilib, til juda katta ma'rifiy ahamiyatga ega ekan. Ammo tilning ahamiyati bu bilan tugamaydi. Uning juda ulug' badiiy ahamiyati ham bor. Tilning badiiy imkoniyati cheksizdir. Til imkoniyatining cheksizligi va ahamiyatining nihoyatda ulug'ligini uning ham moddiy, ham ma'naviy olamni qamrab olganligidadir."

A. Rustamov

- II. "...Cho'lpon o'rta bo'y, to'lachadan kelgan, doimo yumaloq gardishli oddiy ko'zaynak taqib yuradigan odam edi. U juda serandisha, odamlarga bexosdan ozor berib qo'yishdan cho'chiydigan, ko'ngilchan va chinakam shoirona tabiatga ega edi. Arzimagan narsaga xunobi ciqib, fig'oni falakka yetar, asabiylashar, yana arzimagan sabab bilan kayfiyati joyiga kelib qolardi."

M.Burxonov

Sodda gaplar orasida ham qo'shma gaplar orasida ham o'zaro ma'nodoshlik kuzatiladi. Ma'nodoshlikka kirishgan gaplarda nozik ma'no farqlanish kuzatiladi:

1. Ona bolasi uchun qayg'uradi – Ona bolam deb qayg'uradi.
2. Bu kitobni o'qi – Bu kitobni o'qimay qo'yma.

Qo'shma gap qismlarining bog'lovchi vositalari ham o'zaro o'rin almashishi, bunda o'ziga xos ma'no mazmun ifodalashi mumkin:

1. Buvim keldilar, uyimiz nurga to'ldi.
2. Buvim keldilar va uyimiz nurga to'ldi.
3. Buvim keldilar-u, uyimiz nurga to'ldi.
4. Buvim keldilar, natijada uyimiz nurga to'ldi.
5. Buvim keldilar, shu sababli uyimiz nurga to'ldi.

V topshiriq. Ma'nodoshlikka kirishgan sodda va qo'shma gaplarga misol yozing.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Matn nima?
2. Dialog matni haqida gapiring.
3. Monolog (tavsifiy) matn xususiyatlari haqida gapiring.
4. Partadosh do'stingiz bilan biror bir mavzuda dialogik matn tuzing.
5. Gaplar orasida ma'nodoshlikni tushuntiring.

Adabiyotlar:

1. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, "Sharq", 2009.
2. Toshev I. Maktabda qo'shma gapni o'qitish. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2005.
3. Mahmudov N. va b. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. . Toshkent, "Tasvir", 2006.

Mavzu bo'yicha testlar:

- | | |
|---|--|
| <ol style="list-style-type: none">1. Ma'lum voqelik haqida tasavvur beruvchi, bir yoki bir necha sintaktik birlikdan tashkil topgan nutqiy birlik nima deyiladi?
A) gap
B) matn
C) so'z birikmasi va gap
D) so'z2. Dialogik matnga asosan qanday gaplardan foydalaniladi?
A) darak gap
B) so'roq gap
C) buyruq gap
D) darak gap, istak gap | <ol style="list-style-type: none">3. Monolog (tavsifiy) matn asosan qaysi uslubga xos?
A) ilmiy uslub
B) badiiy uslub
C) publisistik uslub
D) A,B,C4. Qo'shma gapning qaysi turlari o'zaro ma'nodosh bo'la oladi?
A) faqat bog'langan va ergash gapli qo'shma gap
B) bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gap
C) bog'langan, bog'lovchisiz va ergash gapli qo'shma gap
D) qo'shma gaplar o'zaro ma'nodoshlikka kirishmaydi |
|---|--|

16-17 MAVZU: MATNNI KENGAYTIRISH VA QISQARTIRISH YO'LLARI

Reja:

1. Matnni kengaytirish va qisqartirishdan ko'zlangan maqsad.
2. Matnni kengaytirish yo'llari.
3. Matnni qisqartirish yo'llari.

Mavzuga bog'liq tayanch tushunchalar: kengaytirilgan matn, tayanch so'zlar, qisqartirilgan matn.

Muayyan bir matnni kengaytirish yoki qisqartirib, xoh og'zaki, xoh yozma bayon etish o'ziga xos ijodiy saviyani talab etadi. Bunda o'quvchi o'ylashga, fikrlashga zarurat sezadi. Natijada o'y-tasavvuri, fikri charxlanadi.

Tavsifiy matnlar (insho, maqola, matn, bayon, adabiy portret va b.)ni kengaytirish yoki qisqartirib bayon etish imkoniyati mavjud.

Matnni kengaytirish quyidagi yo'l va vositalar bilan amalgam oshiriladi:

- matnning bosh fikri, g'oyasini shakllantiruvchi tayanch so'z yoki gap, ifodani aniqlash va shunga bog'liq holda o'z mustaqil ijodiy fikrini ifodalovchi gap, ifoda qo'shish;
- matn mazmunini maqol, matal, hikmatlar bilan boyitish, dalillar bilan asoslash;
- gapni uyushiq bo'laklar, kiritmalar, ajratilgan bo'laklar hisobiga kengaytirish;
- so'z va birikmalarning ma'nodoshlari – tasviriy ifodalar, frazeologik iboralar va boshqa badiiy tasvir vositalari bilan almashtirish;
- sodda gapni qo'shma gapga, qo'shma gapni alohida sodda gaplarga ajratish;
- asosiy fikrni ifodalovchi gapga qo'shimcha fikr, izoh bildiruvchi sintaktik parallel gaplarni mantiqiy izchillikda bog'lab kiritish;
- matnning kirish, xulosa qismlarini o'z qarashlari, mulohazalari, ilovalari bilan to'ldirish;

I topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlardan foydalanib, “Yurtim, senga she'r bittim bu kun” mavzusida matn yarating: yurtimiz tarixi, ota-bobolarimiz qoldirgan ma'naviy boyliklar, mustaqillik

orzusi, 1991-yil 31-avgust, jahon xalqlari, mustaqil yo'l, farovon hayot, milliy qadriyatlar, umidli yoshlar, kelajak poydevori, rivojlangan davlat, ming yillik an'analar.

Yuqorida aytganimizdek, biror matnni qisqartirish ham o'ziga xos mas'uliyatni, izlanishni talab etadi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

- matnning asosiy fikrini ifodalovchi gaplarni ajrata olish;
- gaplardagi uyushiq va ajratilgan bo'laklarni, kiritma va ilova qurilmalarni qisqartirish;
- birikmalarni ma'nodosh so'zlarga, sodda yoyiq gaplarni yig'iq gaplarga, qo'shma gaplarni sodda gaplarga, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantirish;
- matnning qo'shimcha fikr ifodalovchi gaplarini, sintaktik parallel va takrorlarni qisqartirish;
- matnni qisqa mazmunli tarkibiy qismlarga ajratish;
- birikmali sifat-dosh, o'xshatish va boshqa tasviriyl ifodalarni sodda va ixcham shakllarga keltirish;

42-mashq.

Berilgan gaplarning asosiy mazmunini saqlagan holda qisqartirishga harakat qiling.

1. Shuni sezdimki, oila a'zolari bir-biri bilan juda-juda inoq ekan. 2. Mening bilishimcha, bu yil bahor erta keladi. 3. Kim ko'p bilsa, u kam gap bo'ladi. 4. Bu voqea (2009-yil aprelda bo'lgan ish) hammani, jumladan, men va oila a'zolarimni qattiq taajjublantirdi. 5. Bobo shunday dedi: "Bolalarim, to'g'ri gapiring".

43- mashq.

A.Oripovning quyidagi she'rini nasriyl tarzda oldin kengaytirib, so'ng qisqartirib matn tuzing.

Qanot

Insonda qanot yo'q,

Achinmang bunga.

Zotan unga yurak – sabot berilgan.

Qushda-chi sabot yo'q shuning-chun unga

Qochib qolmoq uchun qanot berilgan.

II topshiriq. A.Oripovning “Qanot” she’rini kengaytirib, qisqartirilganda qaysi so’zlarni kiritdingiz yoki qisqartirdingiz?

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Matnni kengaytirish yoki qisqartirishning ahamiyati nimada?
2. Matnni kengaytirish uchun qanday amallarni bajarish kerak?
3. Matnni qisqartirish yo’llarini ayting.
4. O’ta qisqa jumalalarda keng fikrni bera olgan adiblardan kimlarni bilasiz? Misollar bilan tushuntiring.
5. O’qituvchi tavsiya etgan matnni avval kengaytirib so’ng qisqartirib, og’zaki matn tuzing.

Adabiyotlar:

1. Rafiyev A., G’ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, “Sharq”, 2009.
2. Toshev I. Maktabda qo’shma gapni o’qitish. O’quv uslubiy qo’llanma. Toshkent, 2005.
3. Mahmudov N. va b. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. . Toshkent, “Tasvir”, 2006.

**18-MAVZU: MURAKKAB QO`SHMA GAP HAQIDA
MA’LUMOT**

Reja:

1. Murakkab qo`shma gaplarning hosil bo`lishi.
2. Murakkab qo`shma gaplarning turlari.

**Mavzu bo`yicha tayanch tushunchalar:** qo`shma gap, qo`shma gap turlari, murakkab qo`shma gap.

Qo`shma gaplar quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Bog`langan qo`shma gap.
2. Ergashgan qo`shma gap.
3. Bog`lovchisiz qo`shma gap.
4. Murakkab qo`shma gap.
5. Ko`chirma gapli qo`shma gap.

Siz quyi sinflarda qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot olgansiz. Murakkab qo'shma gaplar ham qo'shma gapning bir ko'rinishi bo'lib, turli bog'lovchi vositalar yordami bilan o'zaro bog'langan uch va undan ortiq gaplarning bir butunligi hisoblanadi.

Murakkab qo'shma gaplar to'rt guruhga bo'linadi:

1. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap;
2. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap;
3. Aralash murakkab qo'shma gap;
4. Qisimlari uyushgan murakkab qo'shma gap.

I topshiriq. Berilgan gap qisimlarini aniqlang. Ularning o'zaro qanday bog'lovchilar bilan bog'langanini ayting.

Elmurod avvalgidan ko'ra ancha yengillashgan, ammo boshi hamon og'riydi, chakkalari lars-lars uradi. (Sh.)

44-mashq. Ko'chiring. Murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni aniqlang. Ular qanday vositalar yordamida bog'langanligini izohlang.

1. Kim o'ylasa ona yerini, vatanim deb kim mehnat qilsa, shu baxtiyor xalq taqdirini o'zi uchun taqdir deb bilsa, unda inson fazilati bor. (T.Fattoh) 2. Kamtar bo'lsang, obro' ortar; gerdaysang, ensa qotar. (Maqol) 3. Mana bu kanal bitsa, yangi yer ochilsa, paxta ham ko'payadi. (A.Q.) 4. Kampirning katalakday hovlisi misoli tandir: quyosh lovvullab qizdiradi-yu, atrof uylar bilan o'ralgani uchun qilt etgan shabada yurmaydi. (M.Hazratqulov) 5. Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukik, sening ziyoratingga keldim sultonim. (Fitrat)

45 -mashq. Quyida berilgan misollardan murakkab qo'shma gaplarni ajratib yozing.

1. Mashina katta yo'lga chiqib, bekat ko'zdan g'oyib bo'lganda, shamol yana kuchaydi. (R.F.) 2. Feruza uning jovdirashlariga ko'pda e'tibor bermaydi, biroq kampir shu qadar sezgirki, suhbatdoshi ne ko'ydaligini darrov bilib oladi. 3. Bemor o'z tabibini, dushman deb bilsa, bola muallimiga adovat qilsa, ular o'z joniga aslida yovdir, aql-u jon yo'lga o'zlari g'ovdir. (A.Jomiy) 4. Shunday odamlar borki, ularning nomi hamma vaqt insoniyat xotirasida saqlanib qoladi. 5.

Yuzda tabassum o`chmasin uchun, salomlar aliksiz qolmasin uchun, insof daftariga qo`ydim imzo. (G`. G`ulom)

II topshiriq. Murakkab qo`shma gaplarga 5 ta misol yozing.

III topshiriq. Badiiy asarlardan murakkab qo`shma gapga 10 ta misol yozing.

Eslab qoling: Quyi sinflardan ma'lumki, -b,-ib, -gach(-kach,-qach) -guncha(-kuncha,-quncha) ravishdosh qo`shimchalari sodda gaplarni bog`lovchi vosita bo`lolmaydi. Gap tarkibida bu kabi qo`shimchalar kelgan bo`lsa, sodda gap deb qarash lozim. Masalan: Ertasiga yana allaqanday bo`g`iqqina momaqaldiraq guldirab, beozorgina yomg`ir savalab o`tdi. (A.Muxtor)

IV topshiriq. “Do`stlik muqaddas tuyg`u” mavzusida matn yozing. Yozgan matningizda murakkab qo`shma gaplardan foydalaning.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qo`shma gapning qanday turlari bor ?
2. Qanday gaplarga murakkab qo`shma gaplar deyiladi ?
3. Murakkab qo`shma gaplarning qanday turlari mavjud ?
4. Tarkibi besh yoki oltitadan iborat murakkab qo`shma gaplar tuzing.

Adabiyotlar:

1. Rafiyev A., G`ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, “Sharq”, 2009.
2. Toshev I. Maktabda qo`shma gapni o`qitish. O`quv uslubiy qo`llanma. Toshkent, 2005.
3. Mahmudov N. va b. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. . Toshkent, “Tasvir”, 2006.

Mavzu bo`yicha testlar:

1. Murakkab qo`shma B) so`zlashuv uslubida
gaplarning necha turi mavjud ? C) ilmiy uslubda
A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) rasmiy uslubda
D) 5 ta
3. Murakkab qo`shma gap
2. Murakkab qo`shma gap qaysi berilgan qatorni toping.
uslubda nisbatan ko`p uchraydi ?
A) badiiy uslubda

- A) Nihollarga vaqtida suv berilib, parvarish qilinsa, yaxshi hosil beradi. Zamiraning yuragi qattiqroq dukillardi.
- B) Ro`yxatdagi nomzodlar birma-bir muhokama qilinib, ko`plari tarjimai holini aytib berib, navbat yaqinlashgani sari yashnadi. C) Suv keldi, nur keldi, borliq D) Anhor va uning atroflari sokin oqardi, shuning uchun ish uzoq cho`zilmadi.

19-MAVZU: ERGASH GAPLI MURAKKAB QO`SHMA GAPLAR

Reja:

1. Bir necha ergash gapli murakkab qo`shma gap.
2. Bir necha bosh gapli murakkab qo`shma gap.

**Mavzu bo`yicha tayanch tushunchalar:** bir necha ergash gapli qo`shma gap, bir necha bosh gapli murakkab qo`shma gap.

Birdan ortiq ergash gap bir bosh gapga tobelanib kelsa, bunday qo`shma gapga bir necha ergash gapli murakkab qo`shma gap deyiladi.

Masalan: Xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo`lsin, turmushimiz farovon bo`lsin, mustaqilligimiz barqaror bo`lsin.(O.Sharafuddinov)

Tarkibida ikki va undan ortiq bosh gap mavjud bo`lgan qo`shma gaplar bir necha bosh gapli murakkab qo`shma gap hisoblanadi.

Masalan: O`zbek yoshlarining peshonasi shuning uchun ham yorug`, iqboli balandki, ularning O`zbekistondek jannatmonand yurti bor.(A.Suyun)

46-mashq.

Ko`chiring. Murakkab qo`shma gap tarkibida nechta sodda gap borligini va ularning o`zaro qanday bog`langanini aniqlang.

1. Odamlarimizning huquqiy ongi yuksak bo`lsa, har kim o`z haqini tanisa va o`zini-o`zi himoya qilishni bilsa, demokratik jamiyatga erishgan bo`lamiz.
3. Kimning bilagida kuchi bo`lsa, kim

ishning havosini olsa, kim qilayotgan ishidan bir nima chiqishiga ishonsa o`sha zarbdor bo`ladi.(Abdulla Qahhor) 4. Tol ekdik suv bo`yiga, Soya salqin bo`lsin deb, G`ayrat qilgan botirlar yotib damin olsin deb.(Qo`shiq)

47-mashq.

Ko`chiring. Murakkab qo`shma gap tarkibida nechta ergash gap mavjudligi va ularning qanday ergash gap ekanligini aniqlang.

1.Shunday bo`lmog`iga barcha asoslar bor edi, chunki ular bir qishloqda o`sib-ulg`aygan edilar, bunisining asrori unisiga besh qo`lday ayon edi. (Murod Muhammad Do`st) 2. To`g`risi shuki, keksa professor unga yoqib qolgan edi, uning samimiy maslahatlaridan qoniqardi, doim bu oqil odamga munosib bo`lishga tirishar edi. (M.Hazratqulov) 3. Agar siz yoqtirgan odam sizga mehr-muruvvatini ayamasa, e`tibor bilan qarasa, bu olam-olam quvonch bag`ishlaydi. (Qamchibek Kenja) 4. Kun shu qadar isidiki, chumchuqlarning ham ovozi chiqmay qoldi, hamma o`zini salqinga oldi. (M.Pirmatov)

48-mashq.

Abu Rayhon Beruniy qalamiga mansub hikmatli so`zni o`qing, uning mazmuni to`g`risida bahslashing. So`ng shu qolipda murakkab qo`shma gaplar tuzing.

Bilim shundayki, u yalang`och bo`lganingda ham o`zing bilan qoladi, hammomga kirganingda uni suv ham yo`qota olmaydi.

49-mashq.

Matnni o`qing. Murakkab qo`shma gaplarni ajratib yozing. Tarkibida nechta sodda gap borligini va ular o`zaro qanday bog`lovchi vositalar yordamida bog`langanini aniqlang.

London universiteti qoshidagi kollej olimlari shuni aniqladilarki, biron-bir tilni bilish nafaqat miya to`qimalarini harakatga keltiradi, balki uning tuzilishini ham o`zgartiradi. Shuni ta`kidlash lozimki, miyada jismoniy harakat yuzaga keladi, mushakchalar bilan boyitib boradi. Bu tadqiqot miya til o`rganish orqali ham o`zgarishini isbotlamoqda. ("Fidokor" gazetasidan)

50-mashq.

Uyga vazifa. Bir necha ergash gap ishtirok etgan uchta murakkab qo'shma gap yozing. Ergash gaplarning bosh gapga qanday vositalar yordamida bog'lanayotganini aniqlang.

51-mashq.

Ko'chiring. Murakkab qo'shma gap tarkibida qanday bosh gaplar mavjudligini aniqlang.

1. G'anim kelsa, xonumoni kul bo'lur, o'z yurtida pachaqlash ma'qul bo'lur. (G'afur G'ulom) 2. Boshimda o'ynar qamchilar, qon ko'zimdan tomchilar, Bir benavo gul yanchilar, ozodkorim kelmasa. (Komil Yashin) 3. Qo'shnilarning ko'nsa, hammalaring yerlaringni qo'shib yaxlit qilinglar, bir kunda haydatib beraman. (Abdulla Qahhor) 4. Bu gap kutilmagan bo'lsa ham, Mirhamidxo'janing yoshiga munosib ravishda tarang va tiniq qizil yuzi oqarishdi, oq oralagan cho'qqi soqoli xiyol titradi. (Abdulla Qahhor)

52-mashq.

Matinni o'qing. Murakkab qo'shma gaplarni topib, tarkibida qanday qo'shma gaplar mavjudligini aniqlang.

1. Butun dunyoga ma'lumki, siz ham shuni unutmangki, Orolni saqlab qolish hammamizni burchimiz. (J.Yusupov) 2. Kimki tez-tez dalalarga chiqib tursa, bahri-dili ochiladi, tanasiga quvvat yuguradi. (Oybek) 3. Kimdir mendan zulm emas, mehr topa olsa, bu-mening eng katta yutug'imdir, insonlarga tekkan eng katta foydamdir. (Q.Ergasheva) 4. Chindan ham, odam yurakdan yayrab kulsa, sog'ligi yaxshilanadi, yengil tortadi, ruhi tetiklashadi, ishtahasi ochiladi, umri uzayadi. (G'afur G'ulom)

53-mashq.

Kochiring. Murakkab qo'shma gap tarkibida sodda gaplarni va ularni o'zaro bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. Shu narsa ayonki, hamma shu narsani yaxshi biladiki, odobsiz kishilar hech qachon e'tibor qozonmaydi. 2. Kimki ota-onasini hurmat qilsa, u boshqalardan izzat topadi, el orasida yaxshi deb nom qozonadi. 3. Shirinsuxanlik shunday boylikki, u senga obro' keltiradi, u orqali bitmagan ishlaring bitadi, do'stlaring ko'payadi. 4. Kimki umid bilan daraxt o'tkazsa, bir kuni kelib bu daraxt shig'il meva beradi, uni ekkan egasiga olqish-u rahmatlar yog'diradi. 5. Kimning

qalbi pok bo'lsa, uning ishlari o'z-o'zidan yurishib ketaveradi, hamma unga madadkor bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar qanday hosil bo'ladi ?
2. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplarda qanday tinish belgilar va bog'lovchi vositalar bo'ladi ?
3. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar qanday hosil bo'ladi ?
4. Ergash gapli murakkab qo'shma gaplar asosan qaysi uslubda qo'llanadi ?
5. Ergash gapli murakkab qo'shma gaplarning o'ziga xos xususiyati nimada deb o'ylaysiz ?

Adabiyotlar:

1. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, "Sharq", 2009.
2. Toshev I. Maktabda qo'shma gapni o'qitish. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2005.
3. Mahmudov N. va b. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. . Toshkent, "Tasvir", 2006.

Mavzu bo'yicha testlar:

- | | |
|--|---|
| 1. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gapni toping. | 2. Tol ekdik suv bo'yiga, Soya salqin bo'lsin deb, G'yrat qilgan botirlar yotib damin olsin deb (Qo'shiq). Ushbu gap murakkab qo'shma gapning qaysi turiga mansub ? |
| A) Butun dunyoga ma'lumki, siz ham shuni unutmangki, Orolni saqlab qolish hammamizning burchimiz. | A) bir necha ergash gapli qo'shma gap |
| B) Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, lekin sen akangga yordam berasan. | B) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap |
| C) Reja bajarilsa, dasturxon mo'l bo'lsa, yor-u do'st, birodarlar qalin bo'lsa, tantanalar qishgacha davom etardi. | C) aralash murakkab qo'shma gap |
| D) B, C | D) qisimlari uyushgan murakkab qo'shma gap |
| | 3. Chindan ham odam yurakdan yayrab kulsa, sog'ligi |

yaxshilanadi, yengil tortadi, ruhi tetiklashadi, ishtahasi ochiladi, umri uzayadi. (G`.G`.) A) bir necha ergash gapli murakkab qo`shma gap	B) bir necha bosh gapli murakkab qo`shma gap C) aralash murakkab qo`shma gap D) qisimlari uyushgan murakkab qo`shma gap
--	---

20-MAVZU: ARALASH MURAKKAB QO`SHMA GAPLAR

Reja:

1. Aralash murakkab qo`shma gapning hosil bo`lishi.
2. Aralash murakkab qo`shma gapning o`ziga xos xususiyati.

**Mavzu bo`yicha tayanch tushunchalar:** aralash murakkab qo`shma gap.

Tarkibida ergashgan, bog`langan yoki bog`lovchisiz qo`shma gaplar mavjud bo`lgan gaplar aralash murakkab qo`shma gaplar hisoblanadi.

54-mashq. Ko`chiring. Murakkab qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni aniqlang. Ularni o`zaro bog`lovchi vositalarni belgilang.

1. Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, lekin sen akangga yordamchilik qilasan. ("Fidokor") 2. Ko`lga yetib kelsak, birdaniga miltiq gumburladi va suv yuzida pitirlayotgan ikki-uchta o`rdak ko`rindi. ( Mirzo Karim) 3. Shuni unutmangki, sen yer farzandisan va yerni ardoqlash, uni obod qilish sening vazifangdir. (Yo`ldosh Sulaymon) 4. Qiz avval qo`rqdi, otasi uning Sidiqjon bilan so`zlashib turganini emas, boqqa tushganini bilsa ham, jingul ostida pusib yotgan kurk tovuqni ham unutdi. (Abdulla Qahhor) 5. She`r shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohoy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. (A.Oripov)

55-mashq.

Gaplarni o`qing, murakkab qo`shma gaplarni toping, ularning turlarini belgilang.

1. Har kimning zari bo`lmasa-da, ammo hunari bo`lsa, dunyoda hech bir xavf-u xatar bo`lmaydi, shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog`i lozim. Bilingki, hunarsiz kishi quruq savlatdir, quruq savlat esa qotib turgan suratga o`xshaydi. Daraxt shoxi mevasiz bo`lsa, uning o`tindan nima farqi bor. Sen abujahl (yovvoyi) tarvuzini ko`r, shirin tarvuz kabi chiroylidir, ammo achchiq bo`lgani uchun zarracha qiymati yo`q.

(Muhammad Javhar Zamindor)

56-mashq.

Ko`chiring. Murakkab qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni aniqlang. Sodda gaplarning bir-biriga bog`lovchi vositalarini ayting.

1. Keyinroq ham ko`zimiz tushib turardi, biroq endi u shunday bir yuksaklikda va qamrovi shu qadar keng ediki, bu kengliklar bizga o`xshash jo`n odamlarning shuuriga sig`masdi. (Murod Muhammad Do`st) 2. Bilmaydiki, ishining chatog`i chiqqanida Chorshanbi emas, uning o`zi qochib ketadi, Chorshanbi qurg`ur tagiga suv ketishi bilan mening yonimga yugurib keladi, men uni qutqarib olaman, ikki o`rtada Suyarqul ukamizning qurbon bo`lgani qoladi. (Murod Muhammad Do`st) 3. Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko`zlari dumaloq shakl olgan edi. (Oybek) 4. Agar kishi o`z hirslaridan ustun tura olsa, u o`zidagi bor nuqsonlarni yo`q qiladi va ular yaxshi sifatlarga aylanadi. (Beruniy)

57-mashq.

Matnni o`qing. Aralash murakkab qo`shma gaplarni aniqlab yozing. Tarkibidagi sodda gaplarni va ularning o`zaro qanday vositalar yordami bilan bog`langanini belgilang.

1. Hovlida qarindosh-u qo`ni-qo`shnilar ham yurishadi, nariroqda esa doshqozon to`la sumalak qaynaydi, ayollardan kimdir uni kovlab turadi, atrofida ikki-uch kampir choy ichishib o`tirishadi, bolalarning qo`llarida esa yog`och qoshiq, galma-gal qozon girdiga yopishardilar. (Ulug`bek Hamdam) 2. Insonlik mohiyati baxt-saodatga erishuvidir, inson bu maqsadni o`zining oliy g`oyasi va istagiga aylantirsa, u baxt-saodatga erishadi. (Farobiy)

3. Esida bor: otasi bilan mana shu o`rindiqqa o`tirsa, mototsikl degani qattiq ovoz chiqarib yurib ketdi-yu, nevara qo`rqqanidan otasini mahkam quchoqlab, ko`zlarini yumib oldi. (Tog`ay Murod)¹

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Aralash murakkab qo`shma gap qanday hosil bo`ladi ?
2. Aralash murakkab qo`shma gaplar qanday bog`lovchilar bilan keladi ?
3. Aralash murakkab qo`shma gaplarning nutqdagi ahamiyati qanday?
4. Aralash murakkab qo`shma gaplar qaysi uslublarda uchraydi ?

Adabiyotlar:

1. Rafiyev A., G`ulomova N. Ona tili va adabiyot. Toshkent, "Sharq", 2009.
2. Toshev I. Maktabda qo`shma gapni o`qitish. O`quv uslubiy qo`llanma. Toshkent, 2005.
3. Mahmudov N. va b. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. Toshkent, "Tasvir", 2006.

Mavzu bo`yicha testlar:

1. Shuni unutmangki, siz kelajagimizsiz va butun umidimiz sizlardan. Ushbu gapdagi sodda gaplar qanday bog`langan ?
A) 1- va 2-sodda gap ergashish asosida, 2- va 3-sodda gap bog`lovchisiz bog`langan.
B) 1- va 2-sodda gap bog`lovchisiz, 2- va 3-sodda gap bog`langan qo`shma gap.
C) 1- va 2-sodda gap ergashish asosida, 2- va 3-sodda gap bog`langan qo`shma gap.
D) 1- va 2-sodda gap bog`langan qo`shma gap, 2- va 3-sodda gap bog`lovchisiz bog`langan.
2. Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko`zlari dumaloq shakl olgan edi. (Oybek) Mazkur gap murakkab qo`shma gapning qaysi turi ?
A) bir necha ergash gapli qo`shma gap

¹ Oxirgi uchta mavzuni yoritishda N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirovlarning 9-sinf Ona tili darsligidan foydalanildi. Qarang: N.M. Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sh.Sobirov Ona tili, 9-sinf uchun darslik. –Toshkent."Tasvir",2006.

- B) bir necha bosh gapli murakkab qo`shma gap
C) aralash murakkab qo`shma gap
D) qismlari uyushgan murakkab qo`shma gap
3. Quvishga quvdim-u, hali ham ichim achiydi, bola bechora nima gunoh qilibdi. Birinchi sodda gap tarkibidagi “u” haqidagi qaysi fikr to`g`ri ?
- A) zidlov bog`lovchisi
B) kuchaytiruv yuklamasi
C) biriktiruv bog`lovchisi
D) undov so`z

SO‘ZLARNING SHAKL VA MA‘NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARINI O‘TISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK USULLARDAN FOYDALANISH

Ona tili dars mashg‘ulotlarida so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlarining lisoniy tabiati o‘rgatilar ekan, mazkur til hodisalarini o‘quvchi-talabalara o‘rgatishda har tomonlama qulay usullar (qiziqarli ta‘limiy o‘yinlar, boshqotimalar noan‘anaviy dars ko‘rinishlari va mashqlar tizimi)dan foydalaniladi.

So‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlarining mazmuni va mundarijasi amaldagi ona tili darsliklarida o‘z ifodasini topgan bo‘lsa-da, o‘qituvchi dars samaradorligini oshirish maqsadida faqatgina berilgan mashq va topshiriqlar tizimi bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bunda qo‘shimcha manbalardan keraklicha foydalanish, xususan, o‘qituvchining ijodkorlik va tadbirkorligi har o‘rinda zarur bo‘ladi.

Mazkur til hodisalarini o‘tishda quyidagilarga amal qilinsa, foydadan xoli bo‘lmaydi:

1. Sinonim, antonim, omonim, paronim mavzusini sahna asari tarzida tashkil etish. (sahna orqali ko‘rsatiladigan kichik badiiy ko‘rinish.) Bunga o‘qituvchi-talabalar bevosita asar qahramonlariga aylanadi. O‘z nutqida sinonim, antonim, omonim, paronim so‘zlardan foydalanadi. (Qarang: Yuldashiva N. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida sinonimlarni yangi pedagogik texnologiya asosida o‘qitish metodikasi. ND, Toshkent, 2002.)

2. Soʻzning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari ,lozim topilsa , ertak usulida (*Bor ekan-da , yoʻq ekan ...* ertakni oʻquvchi-talabalar mustaqil yozma ravishda davom ettiradi. Soʻzning maʼnodoshlaridan foydalanish nazarda tutiladi) yoki sirtqi sayohat darslari tashkil etiladi. (Mirhabibova N. „Oʻsimlik otlari ”mavzusi boʻyicha darsda interfaol usullarni qoʻllash. Til va adabiyot taʼlimi. 2006, 1- son)

3. Soʻzning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlarini bahs-munozara usulida oʻrgatish. (Muammoli vaziyat yaratish, Oʻquvchi-talabani oʻylash, fikrlashga undash)

4. Sinonim, antonim, omonim, paronim soʻzlarning badiiy adabiyotga tutgan mavqei, badiiy sanʼatlar yaratishdagi oʻrniga alohida ahamiyat berish, shu asosda darsni tashkil etish. (Keldiyorova G. Ona tili darslarida sheʼriy matnning lisoniy tahlili (antiteza misolida).Til va adabiyot taʼlimi. 2000, 3-son.)

5. Soʻzning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlarini maktub darslar orqali oʻqitish. (Yusupova Sh. Til va adabiyot taʼlimi. 1999, 3-son)

Davlat taʼlim standarti (DTS) asosida yaratilgan dastur va darsliklarda oʻtilishi lozim boʻlgan mavzular shunchaki berilmaydi. Unda mazkur mavzuni qaysi usullar bilan oʻrgatish, muayyan hodisani oʻquvchi ongiga turli metodlarda singdirish hamda hayotga tatbiq etish yoʻllari ham bayon etilishi lozim.

Koʻrinadiki, soʻzning shakl va maʼno munosabatlarini oʻtish davomida har bir dars mashgʻuloti oʻzaro uzviy bogʻliqlik asosida oʻtilsa, biri ikkinchisini toʻldirsa, zamonaviy texnologiyalar asosida boyitilsa , oʻquvchi -talabaning ona tili faniga boʻlgan qiziqishi yanada ortadi , til hodisalari ongida bir umrga muhrlanib qoladi, oʻz oʻrnida ulardan foydalanishga zamin yaraladi . „Har bir darsda soʻz va uning maʼnosini chuqur oʻrgatishga eʼtibor berish lozim ...Nutq oʻstirish uchun jiddiy imkoniyat, yoʻriq boʻlishi kerak. Soʻz qashshoqligi kasalini davolamay turib , oʻquvchi nutqini oʻstirib boʻlmaydi , buning uchun soʻzning semantik guruhlari ustida ishlash, soʻz maʼnolarini izohlash, sinonim , antonim soʻzlarni qoʻllash kabi amaliy ishlarga koʻproq eʼtibor berish joiz “(I.Madaliyev) ...Bir xil fikrni turli shakllarga bayon qilish, fikrni bayon qilish uchun zazur tasvir vositalarini tanlashga eʼtiborni kuchaytirish lozim ...Bolalar ona tili mashgʻulotlarida berilgan soʻzlar uyasini davom ettirish , soʻzlarni

ularning ma'nodoshlari ,uyadoshlari va qarama - qarshi ma'nolari bilan almashtirish, so'z ma'nolarini sharhlash kabi topshiriqlarni ko'proq bajarishlari lozim. So'zlar yordamida gap va matnlar tuzilishiga o'xshash mustaqil amaliy ishlar bilan ko'proq shug'ullansalar, ayni muddao bo'lar edi". (M.Jalilova)

Xullas, ta'lim turlarining turli bosqichlarida o'quvchi-talabalarining yosh xususiyati inobatga olinib, mashg'ulotlarni tashkil etish ko'zlangan maqsadni beradi. Bunga o'qituvchidan o'ta sezgirlik, vaziyatini o'z o'rnida to'g'ri baholay olish, tadbirkorlik, ijodkorlik talab etiladi .

Namunaviy dars ishlanmasi

Mavzu: Sinonim, antonim so'zlar

1. Darsning ta'limiy maqsadi:

Sinonim va antonim so'zlarining lisoniy tabiati haqida ma'lumot berish.

2. Darsning tarbiyaviy maqsadi:

O'quvchi-talabalarni o'zaro mehr-oqibat, ahillik, ma'rifatparvarlik, axloq-odob ruhida tarbiyalash; til birliklarining rang-barang ma'nolarini ochib berish orqali o'z ona tilisiga nisbatan g'ururlanish, faxrlanish hissini uyg'otish.

3. Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:

O'quvchi-talabaning dunyoqarashini, og'zaki va yozma nutqini o'stirish, til imkoniyatlaridan kengroq foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars usuli: qayta xotirlash, muammoli o'qitish, qisman izlanuvchanlik, ijodiy usullardan foydalanish.

Qollaniladigan interfaol usullar : savol - javob , “ Mening so'zim”, ” Quruvchi” , “Sehrli kitob” o'yinlari .

Dars shiori : So'zdan so'zning farqi bor,
O'ttiz ikki narxi bor. (Maqol)

Dars jihozi: yozuv textasi , darslik , tarqatma materiallar, lug'atlar kodoskop .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati . Toshkent , “O'qituvchi” , 1974.

2. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 2-bosqich talabalari uchun darslik. Toshkent, "Sharq", 2002.
3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot . Akademik litsey va kasb- hunar kollejlari uchun darslik . Toshkent, "Sharq" 2009.
4. Raxmatullayev Sh., Shukurov P. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati . Toshkent, "O'qituvchi", 1980.
5. Yo'ldosheva N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinonimlarni yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish metodikasi. ND, Toshkent, 2002.
6. G'ulomov A. , Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. Metodik qo'llanma. Toshkent, "O'qituvchi " , 1995.

I. Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: sinfni darsga tayyorlash:

- a) salomlashish;
- b) navbatchi hisoboti;
- d) jurnalni reja asosida to'ldirish.

Manaviyat daqiqasida o'quvchi-talabalar eng so'nggi yangiliklardan xabardor etiladi.

Dars mashg'uloti "Mening so'zim" ta'limiy o'yini bilan boshlanadi. Bu o'yin o'quvchi-talabalarni darsga tayyorlash , fikrini jamlab olish maqsadida tashkil qilinmadi. O'yin shartiga ko'ra uch guruhga bo'lingan o'quvchi-talabalarga o'qituvchi tomonidan tilshunoslik terminlari aytiladi (masalan, fonema, polisemiya, undalma va h.k.). Har bir guruh (1-guruh "Leksikologiya", 2- guruh "Morfologiya " 3- giruh "Sintaksis ") o'quvchi-talabalar o'zlariga oid terminlarni topishlari va izohlashlari lozim bo'ladi.

Namuna: Undalma sintaksisga oid atama hisoblanadi. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsaga nisbatan aytiladi . Undalma bosh kelishikda bo'ladi va x.k. Misol: *Do 'stim , menga kitobingni berib tur.*

II.O'tilgan mavzuni mustahkamlash va uyga vazifa nazorati.

O'qituvchi o'tilgan mavzuni so'rab, uyga vazifani bajarilishini tekshirib chiqadi.

O'tilgan mavzu "So'z ma'nosining taraqqiyoti" bo'lib, u "Birlashgan o'zar" ta'limiy o'yini bilan davom ettiriladi.

Shartga asosan o'tilgan mavzu yuzasidan 1-o'quvchi aytgan fikrni 2-o'quvchi davom ettiradi. Bunda ikkita-ikkita bo'lib, bahsga kirishiladi.

O'qituvchi: Metafora?

1-o'quvchi: Ma'no ko'chishning keng tarqalgan bir turi.

2-o'quvchi: Metaforada o'xshashlik asosida ma'no ko'chish yuz beradi.

1-o'quvchi: Metafora usulida ma'no ko'chish ko'proq ot so'z turkumida kuzatiladi.

2-o'quvchi: Ko'chishning bu turi, adabiyotda tashbih san'atini yuzaga keltiradi.

Bahs shu tarzda davom ettiriladi. Kim fikrni davom ettirmasa, mag'lub sanaladi. Ma'no ko'chishning boshqa turlari ham shu usulda so'rab olinadi va mustahkamlanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Sinonim va antonim so'zlar tilimizda mavjud bo'lgan qadimgi hodisalardan biri hisoblanadi. Sizlar ta'limning quyi bosqichlarida mazkur hodisalar bilan tanishgansiz. Ma'lumki, ona tilida so'zning ma'nodoshlari ko'payib borgan sari tilning imkoniyatlari ham ortib boradi.

Sinonimlarning yuzaga kelishida so'z o'zlashishi asosiy omil hisoblanadi. Yetuk, barkamol, raso sinonimik qatordagi yetuk so'zi turkiy bo'lib, qolgan ikki so'z o'zlashgan. Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish hisobiga sinonimlar yuzaga kelsa, tashqi omil asosida sinonimning paydo bo'lishi deb qaraladi. O'zbek tili shevalaridagi so'zlar, shuningdek, yasama so'zlar ma'nolari teng kelishi asosida sinonimlar paydo bo'lishi ichki omil hisoblanadi: *yo'zmoq*, *bitmoq* va b.

Zid ma'noli so'zlarga nisbatan antonim termini qo'llanadi. Antonimlik asosan belgi bildiruvchi so'zlar (sifat, ravish)da kuzatiladi. Biroq ot (do'st – dushman, jannat – do'zax, yer – osmon), fe'l (yig'lamoq – kulmoq, o'lmoq – tirilmoq, kelmoq – ketmoq) turkumida ham antonimlik uchray turadi. Antonim so'zlar adabiyotga tazod san'atini yuzaga keltiradi.

Shu o'rinda E. Vohidovning " Barcha shodlik senga bo'lsin" she'ridan foydalanish mumkin. O'qituvchi :

Barcha **shodlik** senga bo'lsin,
Bor **sitam** , zorlik menga
Barcha **dildorlik** senga-yu,
Barcha **xushtorlik** menga.
Ol o'zing **koshonalarni**
Menga qo'y mayxonani.
Barcha **hushyorlik** senga-yu,
Barcha **xumorlik** menga.
Senga bo'lsin **nurli kunduz**,
Menga qolsin **qora tun**.
Barcha **gulshan** senga bo'lsin,
Bor **tikanzor** menga
Sen **shahanshohlikni** olgin,
Menga **qullik** bo'lsa bas
Bor **jafokorlik** senga-yu,
Bor **vafodorlik** menga.
Mayli, **ostonangda yotsam**,
Mayli, **quvsang tosh otib**.
Bor **dilozorlik** senga-yu,
Bor **dilafkorlik** menga.
Senga she'rni bitsin Erkin,
Yirtib otmoq o'z ishing.
Kasbi **inkorlik** senga-yu,
Aybga **iqrorlik** menga.

1-topshiriq. Sheriy matndan antonim so'zlarni aniqlab, yozib oling.

2-topshiriq. Belgilangan antonim so'zlarning ma'nosini izohlang.

O'quvchi-talabalarga ko'chma yozuv taxtasida sinonimlik buzilgan tartibda berilgan so'zlar guruhi havola qilinadi.

Namuna: *Ko'p, ayb, bahs, sovg'a, bexosdan, mo'l, tanqis, osmon, uy, odim, ko'k, kulba, bahor, yashirin, ancha, hadya, o'g'rinchi, talay, pinhona, munozara, tortiq, kamchil, jinoyat, tortishuv, armug'on, taqchil, xufiya, maxfiy, falak, qasr, qadam, ko'klam, jo'rttaga, birdan.*

3-topshiriq. Sinonimlar lug'atidan foydalanib, manodosh so'zlar qatorini shakillantiring.

4-topshiriq. Sinonimlik qatordagi bosh so'zni topib, qolgan so'zlarnig uslubiy farqlanishini tushuntiring.

Keyingi etapda "Quruvchi" o'yinidan foydalanish mumkin. Bundan ko'zlangan maqsad manodosh va zid ma'noli so'zlarni hosil qiluvchi qo'shimchalarni topishdir. O'quvchilar mos qo'shimchalar bilan yangi so'zlar quradilar.

O'qituvchi: Men aytgan so'zlarga ma'nodosh bo'luvchi qo'shimchalar toping. Somsachi ...

O'quvchi: somsapaz

O'qituvchi: sutli

O'quvchi: sersut

O'qituvchi: mardona

O'quvchi: mardlarcha.

Shu tarzda *chorvachi*, *serharakat*, *adabiyotchi* va h.k. so'zlar o'quvchilar hukmiga havola qilinadi. Ular orasidagi nozik ma'no farqlanishlar tahlilga tortiladi. Zid ma'noli qo'shimchalar ham mana shu usulda topiladi.

O'qituvchi: Juda yaxshi. Sinonimlik, antonimlik hosil qiluvchi qo'shimchalarni eslab oldik. Bahongiz a'lo:

Aziz o'quvchi-talabalar. Siz bilasizki, nutqimizni bezab turgan til hodisalaridan yana biri frazeologik iboralardir. Bir umumiy ma'noni ifoda etuvchi bir necha iboraga nisbatan frazeologik sinonimlar deyiladi. Bular tilimizni yana ham boyitishga xizmat qiladi. (*Misollar keltirilib, o'qituvchi tomonidan o'qiladi, yoki jadvaldan ko'rsatiladi, ma'nosi o'quvchilardan so'raladi*)

Masalan:

1. Og'zi qulog'iga yetmoq, boshi osmonga yetmoq (quvonch).
2. Og'zi ochilib qolmoq, yoqasini ushlamoq (hayratlanish).
3. Dili siyoh bo'lmoq, yurak bag'ri qon bo'lmoq, o'pkasi to'lmoq, yuragiga qil sig'maslik (xafalik).
4. Yuragi orqasiga tortib ketmoq, yuragi chiqib ketmoq, o'pkasi yorilmoq (qo'rqinch).
5. O'zini qo'ygani joy topolmaslik, yuragiga g'ulg'ula tushmoq (bezovtalik).

Berilgan frazeologik sinonimlar o'rnini almashtirib ishlatib ko'rish, zid ma'noli iboralarining mosini tanlasah va izohlash o'quvchilarga topshiriq qilib beriladi.

Masalan: Tegirmonga tushsa, butun chiqadigan – qo'y o'g'zidan cho'p olmagan.

“Sehrli kitob” mushohada maydoni

Men bir kitob badiiy asar haqida o'yladim. Kitobni ko'z oldimga keltiruvdim. Asarning qahramonini o'ylab yurak-bag'rib ezildi. O'z yog'ida o'zi qovurilgan, ichini it tirnagan, yuraklari sim-sim oqqan ikkinchi qahramonga ham oson bo'lmadi. Peshonasiga taqdir qismati bitgan yoziqning qurboniga aylangan bu qahramonlar kim edi? (A.Qodiriy)

“O'tkan kunlar” dan olingan parchadagi frazeologik iboralar o'quvchi talabalar tomonidan topiladi va izohlanadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchi-talabalarga slayd taqdim etiladi. 1-slaydda sinonimlar noo'rin qo'llangan 5-6 ta gap berilgan bo'ladi. Noo'rin qo'llangan sinonim so'z qora harflar bilan yozilgan bo'ladi. Masalan: *Biz oftobli yurt farzandlarimiz.*

2-slayd: Zumrad va Qimmatni eslatuvchi surat namoyish etiladi. O'quvchi-talabalardan Zumrad va Qimmatning bir-biriga zid xususiyatlarini topib yozish so'raladi. Qaysi guruh ko'p so'z yozgan bo'lsa, o'sha g'olib sanaladi.

Masalan: Zumrad – oqila, go'zal, xushmuomala, mehribon, rahmdil ...

Qimmat – beshafqat, xunuk, ochko'z, berahm ...

3-slayd: Berilgan iboralarining sinonimlarini topish, izohlash, agar antonimi mavjud bo'lsa, topish, gap tuzish.

1-savol

“To'ydan oldin nog'ora chalmoq” iborasining sinonimini toping va izohlang. (Podadan oldin chang chiqarmoq - shoshilmoq)

2-savol

“Yerga kirib ketmoq” iborasining sinonimini toping va izohlang. (Boshini xam qilmoq, obro'si bir pul bo'lmoq - uyalib qolmoq)

3-savol

“O’pkasi yo’q” iborasining antonimini toping va izohlang. (O’pkasi yo’q-hovliqma, shoshqaloq; antonimi - dunyoni suv bossa, to’pig’iga chiqmaslik-beparvo, beg’am)

4-savol

“O’z yog’iga o’zi qovrilmoq” iborasining sinonimini toping va izohlang. (Ichini it tirnamoq, yurak-bag’ri ezilmoq, o’z etini o’zi yemoq - iztirob)

V. Xulosalash.

Mana, sinonim va antonim so’zlar, ularning yuzaga kelishi, badiiy asarlarda qo’llanishi, ibora va qo’shimcha shakllarda ham bu hodisaning kuzatilishini ko’rib chiqdik. Doimo bugungidek barcha fanlarni yaxshi o’zlashtiring. Murakkablikdan qo’rqmang, oldinga qarab intiling. Vatan ravnaqi siz yoshlarga bog’liq. Buyuk mutafakkir A.Navoiy ta’kidlaganidek:

Yo’l yomon-u yaxshisidan chekma g’am,
Bismilloh degin-u, qo’ygil qadam.

VI. Baholash.

O’quvchi-talabalar baholanadi va baholar izohlab beriladi. Eng faol qatnashgan o’quvchi-talabadan uchtasi rag’batlantiriladi (sovg’a tariqasida ruchka yoki kitob taqdim etish ham mumkin).

VII. Uyga vazifa.

“Jannatmakon diyor” mavzusida matn yozish, matnda sinonim va antonimlardan foydalanish.

FONETIKA VA LEKSIKOLOGIYA BO'LIMI

YUZASIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-topshiriq

Garchi shuncha mag'rur tursa ham ,
Piyolaga egilar choynak
Shunday ekan, manmanlik nechun?
Kibr-u havo nimaga kerak?
Kamtarin bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolani shuning uchun inson
O'par doim peshonasidan. (E. Vohidov)

1. So'zlarni bo'g'inga bo'lib ko'chiring. Ajratilgan so'zlardagi fonemalarga tavsif bering.
2. Fonema, uning asosiy belgisi, fonema va allafonlar (variantlar) haqida ma'lumot bering.

2-topshiriq

TOSHKENT GULLARI

Eh, Toshkent gullari, rang-barang gullar
Bir g'ubor topmaysiz yaproqlarida
Qizlardek muloyim, qizlardek ma'yus
Qizlar kulgisi bor yonoqlarida

Anvoiy ranglari entiktiradi.
Dillar yasharadi, ko'zlar yashnaydi.
Eh, gullar hamisha sizga tashnaman.
Yuragim hamisha sizga talpinar.

Uzub tutmaguncha aziz do'stlarga
Ta'rif qilolmayman jamolingizni
Hidlab, yuzin surtmay yaprog'ingizni
Hech kim his qilolmas kamolingizni.

Xiyobon kezarkan ko'nglim, xayolim,
Yuvilgan top-toza barglarda qoldi.
O'zim qo'shiq bo'lib qaytdim uyimga,
Xotiram ozoda parklarda qoldi.

Bir xayol singari sarxush, baxtiyor
Qalamga tutindim kelib ohista.
Eh, Toshkent gullari, rangba-rang gullar,
Mehrim, muhabbatim hamisha sizga. (S.

Zunnunova)

1. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tiling orfoepik me'yorlari haqida ma'lumot bering (yuqoridagi matn asosida).
3. Fonetik o'zgarishga uchragan so'zlarni ajratib, turini aniqlang.

3-topshiriq

1. Ha, shu... ming qo'y qayoqda, bolalik paytlar esga tushib ketdi.
G'o'za sug'organ chog'laringni esladingmi, inim? (O. Yoqubov)
2. Akram chuqur tin oldi. (O. Yoqubov)
3. Sayyora yuragiga quyilib kelayotgan issiq to'lqin sekin tarqalayotganini sezib, chuqur nafas oldi. (O. Yoqubov)
4. Ishlagan paytlarida yuragidagi g'ubor ko'tarilar, xayolidagi og'ir o'ylar esdan chiqib, dili sal yorishar edi. (O. Yoqubov)
5. Kaftim uzra jon olg'uvchi yor zulfingning tolasi,
Lol qoldirar tun siyohin qoralarning qorasi.
Muncha to'ymas qalb ko'zlarim yor soching bir bandiga,
Kiftida ash'or yanglig', sho'x kokil risolasi, (A.Xoji)
6. Savol ancha malol kelganini ko'rib, Saida ichida: "Muncha ham to'ng, muncha ham so'xtasi sovuq odam ekan,"-dedi-yu, bo'lak gap aytmadi. (A. Qahhor)
7. Erur bas chu husn-u malohat senga,
Yasanmoq, bezanmoq ne hojat senga. (A. Navoiy)
8. Dovruq tindi ohista-sekin,
So'zlardagi yolqin, alanga,
Lablardagi otash, harorat,
Bo'lar edim g'amxo'r, mehribon.
Men seniki abad, umrbod. (A.S. Pushkin)
9. Jahonda, dunyoda, olamda men yolg'iz emas, do'stlar,

- Jigarband-u, qarindosh-u, yaqin xesh-u taborim bor. (Habibiy)
10. Qing'ir-qiyshiq, sertuproq ko'chaning har yer-har yerida pastak tomiga pichan bosilgan uylar uchrab qoladi. (Said Ahmad)
 11. El-yurtning yuziga qandoq qarayman endi, bir bechora begunoh o'lib ketdi. (S. Ahmad)
 12. Mana, qarshingizda turgan barvasta qomatli, qarashi burgut nigohini eslatadigan, butun vujudidan kuch-g'ayrat, vafo, sadoqat, sezilib turgan kishi mana shu zavodning ilg'or ishchisidir. (H. Nazir)
 - 13 Bu qo'shiq shunchalar yoqimli, shirali ediki, temirchi yigitning yuragida allaqanday bir hisni uyg'otib yubordi. (S. Ahmad)
 14. Tetik, ziyrak, ulug', dono xaloyiq,
Bahs bergay bilib har kimga loyiq. (I. Sulton)
 15. Neki qalbingizga cho'g' bo'lib tushgan
Sening otashing-la toblangan bari.
G'ishtin binolaring taftida pishgan
Muhabbat atalmish sevgi gavhari.
O'ylar surar edik tebranganda uzoq
Toliba Layli-yu, Talaba Majnun.
Muhabbat darsidan bergansan saboq,
Bafo darsxonasi, ey dorulfunun.
Sening quchog'ingda topdik do'st-u yor,
Do'stlik nimaligin anglab ololdik.
Hazil mutoyiba bo'lsa ham bisyor,
Va lekin do'stlikka sodiq qololdik.
Bu kun har qaylarda yursak ham yiroq
Do'stlarni eslaymiz dilda hayajon
Otashin do'stlikdan berganda saboq
Ey, sen dorilfunun - munis onajon. (A. Oripov)

1. Ko'chiring. Sinonimik uya (qator)ga ega bo'lgan so'zlarning ostiga chizing, ularning sinonimlarini toping.
- 2, Sinonimlar, ularning turlari haqida ma'lumot bering. Sinonmik uya (qator), dominanta terminlarga izoh bering.

4-topshiriq

- I.1 Bo'ying sarv-u sanobardek, beling qil,

- Vafo qilg'on kishilarga vafo qil. (Xorazmiy)
2. Yuz nomarddan yuz qaytar
Bir mardni har kim maqtar. (Maqol)
 3. Ko'rdim-u, lol bo'ldi aqlim
O'ngimda bu yoki tush,
Yolvorib men pastda dedim.
Bir nafas yonimga tush. (E. Vohvdov)
 4. Kelur sel goho, bo'lsa ko'kda chaqmoq
Zarar qilg'ay danakni tishda chaqmoq.
Yomondir ikki o'rtoq o'rtasida
Urishtirmoq uchun bir-birga chaqmoq. (Habibiy)
- II.1. Yog'ochni uzun kes, temirni qisqa. (Maqol)
2. Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l.
(Maqol)
 3. Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib. (Maqol)
 4. Ko'z qo'rqqoq - qo'l botir. (Maqol.)
 5. Mingta yolg'ondan bitta rost yaxshi. (Madol)
 6. Tinchlik urushni yengadi.
- III. 1. Billsang edi, jonim, naqadar shirin
Janglar to'fonida seni o'ylamoq. (Uyg'un)
2. Bergan qovuningiz juda shirin ekan.
 3. Yo'lchi tishini qisib indamasdan o'rnidan turdi. (Oybek)
 4. Arrannig tishi o'tkir chiqib qoldi.
 5. Issiq nafasi yuzimga, ko'zlarimga urildi (O'. Umarbekov)
 6. Kosov bilan o'tning ko'zini ochdim. Ishning ko'zini biladi.

1. Ko'chiring. Birinchi matndagi omonim, ikkinchi matndagi antonim uchinchi matndagi polisemantik so'zlarning ostiga chizing.
2. Polisemiya bilan omonimiyaning farqi, ularning paydo bo'lish yo'llari haqida ma'lumot bering.

5-topshiriq

Toshkent-Andijon poyezdi Asakaga yetib keldi. Yo'lovchilar tez-tez vagonlardan tusha boshladilar. Havo ochiq, ko'kda son-sanoqsiz yulduzlar charaqlagan, mayin shabada esib turibdi. Shahrixon soyi shovillab, suv qirg'oqqa uriladi, poxsa devorlardan engashgan olcha munchoqlari, oq o'riklar oydinda ko'zga tashlanib qoladi, uzoqlarda elektr chiroqlari miltillaydi. Yuk xaltasini orqalab olgan yigit bu manzaralarga suqlanib, ko'cha o'rtasidan kelmoqda. Uzoq vaqt jang

olovlarida yurgan kishi uchun bu manzaralar orombaxsh tuyular, quvonchi ichiga sig'mas edi. Novcha teraklar uchida oyning kumush parchasi suzadi, shamol novda-nihollarni tebratadi. Ana, tong ham otmoqda. Allaqayerda bulbul to'lib-toshib kuylaydi, yaqin o'rtada xo'roz qichqiradi. Ko'prik oldida fonus ko'targan kishi paydo bo'ldi. Bu - Po'latjonning otasi edi. Po'latjonning tili tanglayiga yopishib qolgandek gapira olmas, vujudi esa karaxt bo'lib qolgandek qimirlamas edi. Farzand bilan ota uchrashuvini ko'kdagi oy kuzatar edi. (Said Ahmad)

1. Matnni ko'chirib, ostidan umumturkiy so'zlar, o'zbekcha so'zlar, forsha-tojikcha so'zlar, arabcha so'zlar, ruscha-internatsional so'zlarga bo'ling.
2. Tarixiy jihatdan hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami haqida ma'lumot bering.

6-topshiriq

1. Ulusni kim etar baxtiyor?
Mast, beparvo taxtda hukmdor?
Tafakkurni uzdi shu dami
Yosh mulozim chiroyli sasi:
Ruxsat tilar ikki musofir. (Oybek)
2. Ikki qo'li qonga belangan jallod ham bu xil nafis tongda ...
hayotidan kechgan eng lazzatli, eng mo'tabar onlarni eslaydi. (S. Ahmad)
3. Solihboyning oldiga qozi, hokim, pristavlar kirib kelishdi.
(Hamza)
4. Yetmish kunlik qamaldan keyin uch ming sipohini bir yarim
mingga tushirib, bir yarim ming sipohini Toshkent qo'rg'onlari
ostida qurbon berib, Normuhammad qushbegi quruq qaytishga
majbur bo'ldi. (A. Qodiriy)
5. Uyqudan uyg'onib xon,
Oygulni so'ramadi.
Zindonga tashlangan jon
Ne bo'ldi ham demadi. (H. Olimjon)
6. Mirqosim yengil ta'zimdan so'ng mirshabxonaga qarab ketdi.
(M. Ismoilov)

7. Komilov: A-a! Imoningiz komilmi? Demak, imoningiz bor ekan-da. Dushmanlarimiz bizni iymonsiz deydilar. Yolg'on! Bo'hton! Biz iymonsiz odamlar emasmiz. Bizning yuksak iymonimiz bor. Davrimizning eng ilg'or e'tiqodi va axloqi bizning imonimiz bo'ladi. (I.Sulton).

1.Ko'chiring. Birinchi matndagi uslubiy betaraf so'zlar ostiga bir chiziq, uslubiy chegaralangan so'zlar ostiga ikki chiziq chizing.

2.Barcha matndagi, istorzmlar ostiga bir chiziq va arxaizmlar ostiga ikki chiziq chizing

3.Arxaizm, istorizm haqida ma'lumot bering, arxaizm, istorizmlarning o'zaro farqini bayon qiling.

7-topshiriq

1. Ba'zan dovon oshishingga ko'zing yetmay, yuraging orqangga tortib ketadi. (O'.Umarbekov)
2. So'nggi bir-ikki soat ichida yuz bergan bu ikki quvonchli hodisa Rahim Saidovning boshini aylantirib qo'ygan, kim bilandir ularni o'rtoqlashgisi kelib qolgan edi. (O'. Umarbekov)
3. Voy, qulog'ingizga tanbur chertyapmanmi? Uzukni-da! Qarang, shunaqasi menga juda yarashar ekan. (O'. Umarbekov)
4. Tansiq, go'yo bo'g'ilganday uh tortdi. Shunday qarindoshlarni ko'kka ko'targan dadasidan xafa bo'ldi u. (Oybek)
5. Zokir o'z bo'yniga olgan tashvishning naqadar qiyinligini endi sezdi. (P.Qodirov)
6. Ammo Egamberdi mashinaning quli. Tez orada uncha-muncha mexanikka ham so'z bermay qo'yadi u. (Oybek)
7. Jumaniyoz aka o'zi borib, Xiva xonining oyog'iga bosh urmoqchi. (Oydin)
8. Shermatov hozir nimadan og'iz ochsa, raisga kaltak bo'lib tushmoqda. (H.No'mon)

1. Ko'chiring. Frazelogizmlarning ostiga chizing. Frazelogizm haqida, uning turlari, o'zaro farqlari haqida ma'lumot bering.

UMUMIY MAVZULARGA OID TESTLAR

1. Ilmiy stilning talabi nimadan iborat?

- a) fikrning aniq,mantiqli bo'lishini;
- b) nutqning ravon bo'lishini;
- c) fikrning asosli bo'lishini;
- d) nutqning aniqligini talab qiladi

2.Vatan uchun jangda jon olib,jon berayotgan o'zbek yigiti bizni eshit! Bu gap qaysi usulda.

- a) so'zlashuv;
- b) rasmiy;
- c) badiiy;
- d) publisistik

3.Oltin tanga,oltin boshqoq birikmalari ma'no ko'chishining qaysi turi?

- a) metonimya;
- b) sinekdoxa;
- c) metofara;
- d) sifatlash

4. Sinonimlarning turini aniqlang: boryapti,bormoqda.

- a) morfologik sinonim;
- b) leksik sinonim;
- c) freazalogik sinonim;
- d) sintaktik sinonim

5. Leksik sinonimlar berilgan qatorini toping.

- a) katta,kichik;
- b) katta,ketyapti;
- c) katta,ulug';
- d) to'g'ri javob yo'q

6. Do'ppisini osmonga otdi iborasiga teng keladigan so'zni toping.

- a) xafa bo'lmoq;
- b) xursand bo'lmoq;
- c) telbalik qilmoq;
- d) barcha javob to'g'ri

8. Eskilik yoki yangilik bo'yog'i yaqqol sezilib turadigan so'zlar...

- a) passiv so'zlar;
- b) istiorizm
- c) aktiv so'zlar;
- d) arxaizmlar

9. Qanday nutqda dialektizmlardan foydalanilmaydi.

- a) badiiy nutqda;
- b) rasmiy nutqda;
- c) so'zlashuvda;
- d) publisistik nutqda

10. Salbiy emotsional bo'yoqdor so'zlar qatorini toping.

- a) valdirama,vaysama;
- b) olma,kelma;
- c) vaysama,aytma;
- d) barcha javob to'g'ri

11. Adabiy tilda ishlatilmaydigan dag'al qo'pol so'zlar va iboralar.

- a) argonlar;
- b) jargonlar;
- c) vulgarizmlar;
- d) efemizmlar

12. Evfemizm nima?

- a) aytmoqchi bo'lgan fikr;
- b) aytmoqchi bo'lgan fikrni yumshoq va odobli qilib ifodalash;
- c) aytmoqchi bo'lgan fikrni qo'pol va dag'al qilib ifodalash;
- d) barcha javob to'g'ri

13. Evfemizmlar berilgan qatorni toping.

- a) og'iroyoq, boshi qorong'u;
- b) mashhur, obro'li;
- c) mudroq, uyg'oq;
- d) o'g'irlamoq, moylamoq

14. Emotsional-ekspressiv so'zlar berilgan qatorni toping.

- a) ochilmoq, gullamoq;
- b) xursandlik, xafalik;
- c) bahri ochildi, xursand bo'ldi;
- d) bahri ochildi, dimog'i chog' bo'ldi

15. Ketdi so'ziga teng keladigan iborani aniqlang.

- a) yuragidan urdi;
- b) ikki oyog'ini qo'liga oldi;
- c) tuyog'ini shiqillatdi;
- d) hafsalasi pir bo'ldi

15. Bir pul iborasining ma'nosi qaysi qatorda berilgan?

- a) qadr qimmatsiz, foydasi yo'q;
- b) idrok qilib yeta olmaslik, gapira olmaslik;
- c) yenga olmaslik, tushuna olmaslik;
- d) arzon, qadr qimmatsiz

16. So'zlashuv nutqiga xos frazeologik iboralar qatorini belgilang

- a) qo'li egri, ko'z bo'yamoq;
- b) ko'z bo'yamoq, siyosiy tanglik;
- c) juftakni rostlamoq, buzilmas do'stlik;
- d) buzilmas do'stlik, qo'li egri

17. Lug'atlar asosan necha tipga bo'linadi?

- a) ensiklopedik, leksik;
- b) ensiklopedik, filologik;
- c) filologik, leksik;
- d) to'g'ri javob yo'q

18. Nutqda intonatsiya nima uchun kerak?

- a) jonli va ifodali qilishga yordam beradi;
- b) jonli va chiroyli qilishga yordam beradi;
- c) to'g'ri javob yo'q;
- d) barcha javob to'g'ri

19. Obrazlilikka tayanadigan uslubni toping.

- a) badiiy uslub;
- b) barcha uslub;
- c) so'zlashuv uslubi;
- d) rasmiy uslub

20. Metaforik so'zlar, dialektizm, vulgarizm, frazeologik iboralar ko'p qo'llanadigan uslub turini ko'rsating.

- a) barcha uslublarda;
- b) badiiy uslub;
- c) publisistik uslub;
- d) so'zlashuv uslubi

21. Ijobiy bo'yoqdor so'zlar berilgan qatorni toping.

- a) jilmaymoq, chehra, jamol;

- b) qaramoq, o'qraymoq, gapirmoq;
- c) o'qimoq, izlanmoq, o'ylamoq;
- d) yaxshi, osmon, jamol

22. Betaraf so'zlar berilgan qatorni toping.

- a) kitob, qalam, daftar;
- b) otaxon, qizginam, onajon;
- c) chiroyli, suluv, bahaybat;
- d) ko'klam, tinchlik, stol

23. Hosilni 80% ini paxta terim mashinalarida terib olamiz.

Ushbu gapdagi uslubiy xatolikni toping.

- a) kelishik bilan bog'liq xato;
- b) sintaktik xato;
- c) so'z bilan bog'liq xato;
- d) punktuatsion xato

24. Grammatik

ko'rsatkichlarni noo'rin qo'llash qanaqa xatolikni keltirib chiqaradi?

- a) uslubiy xatoni;
- b) imloviy xatoni;
- c) imloviy, uslubiy xatoni;
- d) sintaktik xatoni

25. Polisemantik so'zlar qaysi uslublarda ishlatiladi?

- a) so'zlashuv, badiiy uslubda;
- b) rasmiy, so'zlashuv uslubida;
- c) badiiy uslubda;
- d) barcha uslubda

26. Narsa va hodisalar

orasidagi nisbiy o'xshashlik asosida ma'no ko'chirish...

- a) metafora;
- b) sinekdoxa;
- c) vazifadoshlik;

- d) metonimya

27. Buloqning ko'zi ochildi.

Ma'no ko'chishning qaysi turi qo'llangan?

- a) metofara;
- b) metofara, metonimya;
- c) sinekdoxa;
- d) ma'no ko'chish yo'q

28. Rang o'xshashligi asosida hosil bo'lgan ko'chish qaysi qatorda?

- a) oltin boshqoq;
- b) lojuvard osmon;
- c) oltin tanga;
- d) a va b javoblar

29. Gul kabi nozik zebo. Bu gapdagi o'xshatish vositasini toping

- a) kabi;
- b) zebo;
- c) o'xshatish vositasi yo'q;
- d) gul

30. Ko'chma ma'noli so'z berilgan qatorni toping.

- a) ko'z qo'rqqoq, qo'l botir;
- b) aravaga chiqib o'tirdi;
- c) bolalar urushda;
- d) a va c

31. Yodgorning yuzlari naqsh olmaday. Bu gapdagi o'xshatilgan narsani toping.

- a) naqsh olmaday;
- b) naqsh;
- c) Yodgorning yuzlari;
- d) - day qo'shimchasi

32. Ma'no ko'chish usullari qaysi uslublarda qo'llanadi?

- a) so'zlashuv, badiiy;

- b) badiiy uslubda;
- c) barcha uslubda;
- d) faqat badiiy uslubda

33. Omonim so'zlarni toping.

- a) bel, kel, tur
- b) osh, qo'y, bel
- c) bor, yo'q, chizmoq;
- d) bog', chaqmoq, o'tin

34. Diplomat-diplomant so'z juftligini tavsiflang.

- a) omonim so'z
- b) dublet so'z;
- c) variant so'z;
- d) paronim so'z

35. Paronim so'zni noo'rin qo'llash qanaqa xatolikka olib keladi?

- a) fonetik xato;
- b) imloviy xato;
- c) sintaktik xato;
- d) uslubiy xato

36. Keksa, oqsoqol, qari, mo'ysafid sinonimlardan faqat insonga nisbat qo'llaniladiganini toping.

- a) keksa, oqsoqol
- b) oqsoqol, mo'ysafid
- c) qari, oqsoqol;
- d) barchasi

37. Morfologik sinonimlar qatnashgan qatorni toping.

- a) og'zi qulog'ida-xursand;
- b) oftob, quyosh, xurshid;
- c) boryapti-bormoqda
- d) b, c javoblar

38. Sifat sinonimlar qatnashgan qatorni toping.

- a) yalqov, dangasa;

- b) yaxshilik, ezgulik;
- c) mehribonlik, oqko'ngillik;
- d) a, b, c javoblar

39. Sheva so'z va adabiy tildagi so'zning o'zaro sinonimlikka kirishi qaysi javobda berilgan?

- a) xum, mo'ndi
- b) oy, qamar;
- c) bosh, kalla
- d) faryod, fig'on

40. Sinonim so'zlarni bir o'rinda ketma-ket qo'llash.

- a) a, b, c javoblar;
- b) ma'noni kuchaytiradi;
- c) obrazlilik ta'minlanadi;
- d) ba'zan uslubiy xatoga olib keladi

41. Badiiy adabiyotda antiteza usulini hosil qiluvchi vosita.

- a) sinonimlik;
- b) antonimlik;
- c) omonimlik;
- d) ma'no ko'chishi

42. Mirzakarimboy ilonning yog'ini yalagan odam: hamma boylar kabi ayyor, mug'ombir, puxta-pishiq. Bu gapdagi sinonimlarning vazifasi nimadan iborat.

- a) b, c javoblar;
- b) uslubiy vazifa bajargan;
- c) ma'no ko'chishni ta'minlash;
- d) sinonimlar ortiqcha qo'llangan

43. Og'zi qulog'ida iborasi bilan antonimlikka kirishadigan so'zni aniqlang.

- a) xafa;
- b) qovog'idan qor yog'di;

- c) tarvuzi qo'ltig'idan tushdi;
- d) a,b,c javoblar

44. Qo'llanish doirasiga ko'ra faol so'zlar hisoblanadigan qatorni toping.

- a) sinonimlik;
- b) neologizmlar;
- c) kasb-hunar so'zlar;
- d) umumxalq so'zlar

45. Eskirib iste'moldan tushib qolgan ammo o'z ekvivalentiga ega so'zlar qanday nomlanadi?

- a) arxaizm;
- b) neologizm;
- c) istorizm;
- d) a,c javoblar

46. Kundalik turmushdagi yangi hodisa va tushunchalarni ifoda etuvchi so'z va iboralar nima deb nomlanadi?

- a) umumxalq so'zlari;
- b) frazeologizmlar;
- c) neologizmlar;
- d) kasb-korga oid so'zlar

47. Mahalliy so'zlar adabiy jihatdan qaysi xususiyatlarga ko'ra farq qiladi?

- a) morfologik jihatdan;
- b) leksik jihatdan;
- c) fonetik jihatdan;
- d) a,b,c javoblar

48. Otliq otning ayil va pushtagini qattiq tortdi, so'log'ini og'ziga soldi, xurjunni egar ustiga tashladi .(S.A) Qanday so'zlar qatnashgan?

- a) kasb-hunar so'zlar;

- b) eskirgan so'zlar;
- c) sheva so'zlar;
- d) arxaizmlar

49. Qo'pol, beadab so'zlarni pardali, yumshatib aytish qanday hodisa?

- a) evfemizmlar;
- b) argo so'zlar;
- c) adabiy so'zlar;
- d) umumxalq so'zlari

50. Gul hidini iskasam xush havolarda.Ushbu gapda qanday xato mavjud?

- a) uslubiy xato;
- b) morfologik;
- c) orfografik;
- d) sintaktik

51. -siz va be- qo'shimchalari qaysi so'zda sinonim bo'la olmaydi?

- a) pulsiz;
- b) beomon;
- c) hayosiz;
- d) beg'araz

52. Qaysi so'z turkumi shakllarida hissiy ta'sirchanlik boshqa turkumdagi so'zlarga nisbatan yorqinroq aks etib turadi?

- a) sifat;
- b) ot;
- c) son;
- d) fe'l

53. -lar affiksi so'roq olmoshlariga qo'shilib kelganda qanday ma'noni ifodalaydi?

- a) ma'no kuchaytirish;
- b) hurmat;

c) umumlashtirish;

d) ko'plik

54. -xo'sh, sizningcha nima

qilishim kerak, o'qimishli

akam, - dedi Yo'lchi

Abdushukurga. Ushbu gapdagi

egalik affiksi qanday ma'noni

anlatadi?

a) kichraytirish va erkalash;

b) biror shaxsni o'ziga tanish yoki yaqin tutish;

c) so'zlovchining xususiy munosabati;

d) kinoya, kesatiq

55. Vaqt tushunchasi bog'liq

birikmalarda qaratqich

kelishigi qaysi shaklda

ishlatiladi?

a) qisqargan;

b) belgili;

c) belgisiz;

d) barcha javob to'g'ri

56. O'rin-payt kelishigi qachon

doim belgili ishlatiladi?

a) o'rin ma'nosida ishlatilganda;

b) payt ma'nosida ishlatilganda;

c) she'riyatda;

d) shevada

57. Birgalik daraja shakllari

bilan qaysi qo'shimcha sinonim

bo'la oladi?

a) -mi

b) -niki

c) -lar

d) hech qaysi qo'shimcha sinonim bo'la olmaydi

58. Bo'lishsizlik shaklini

yasovchi elementlarni ayting?

a) a,b,c;

b) yo'q;

c) ohang;

d) -ma, emas;

59. Yetakchi, ko'makchi

fe'llardan tashkil topgan

birikuvlarda -ma affiksi qaysi

biriga qo'shilishi mumkin?

a) yetakchiga

b) ko'makchiga

c) ikkalasiga ham

d) a,b,c

60. Ey sabo, uyg'otmagil. Ushbu

gap kesimi qaysi maylda?

a) buyruq

b) ijro

c) xabar

d) shart

61. Shart mayli shakli -sa

orqali qanday ma'no

ifodalanadi?

a) shart;

b) orzu, xohish;

c) iltimos;

d) a,b,c

62. Nutqni jonli qilish u yoki bu

harakatni tinglovchining ko'z

o'ngida yoki yaqin vaqt ichida

aniq bajarilganligini ifodalash

uchun o'tgan zamonning qaysi

shakli kelasi zamon ma'nosi

uchun ishlatiladi?

a) -di;

b) -gan;

c) -(a)r edi;

d) -(i)b edi

63. Hozirgi zamon fe'lining

qaysi shakli kitobiy uslubga xos

bo'lib, obrazli ifodalarda tantanali publitsistik nutqda ko'p ishlatiladi?

- a) -yap
- b) -yotir
- c) -moqda
- d) -moqda, edi

64. Harakatning kuchsiz darajasini bildiruvchi shakllarini toping.

- a) -(i)nqira, -(i)msira;
- b) -a, -la;
- c) -kila(-qila, -g'ila);
- d) a, b, c;

65. Qishloqdagi bari yosh yigitlar urushga ketgan Ushbu gapda qaysi so'zdan so'ng pauza qo'yilsa, ma'no butunlay o'zgarib ketadi?

- a) yigitlar
- b) bari;
- c) qishloqdagi;
- d) yosh

66. Buni hamma biladi –buni kim bilmaydi? Ushbu gaplar sinonimyaning qaysi turiga misol bo'ladi?

- a) sintaktik;
- b) morfologik;
- c) leksik sinonimya;
- d) orfografik

67. Tarkibli kesimlarda shaxs-son, mayl, zamon ko'rsatkichlari qaysi qismga qo'shiladi?

- a) har ikkalasiga ham;
- b) yetakchi fe'lga;
- c) yordamchi fe'lga;

d) tarkibli fe'llarda bunday qo'shimchalar bo'lmaydi

68. Bersang olasan, eksang o'rasan. Bu qanday gap?

- a) shaxsi umumlashgan;
- b) shaxssiz;
- c) nominativ;
- d) shaxsi noma'lum

68. Oyni etak bilan yopib bo'lmas. Bu qanday gap?

- a) shaxsi umumlashgan
- b) shaxsi noma'lum;
- c) nominativ;
- d) shaxssiz

69. To'liqsiz gaplar asosan qaysi nutq uslubida ishlatiladi?

- a) so'zlashuv;
- b) rasmiy;
- c) publitsistik;
- d) ilmiy

70. Gapda undalmaning ishlatilish o'rni qanday?

- a) erkin
- b) doim gap o'rtasida;
- c) doim gap oxirida;
- d) doim gap boshida

71. Ilmiy uslubda qo'shma gapning qaysi turi ishlatilmaydi?

- a) zidlov bog'lovchili qo'shma gap
- b) biriktiruv bog'lovchili qo'shma gap;
- c) ayiruv bog'lovchili qo'shma gap
- d) inkor bog'lovchili qo'shma gap;

72. So`zlashuv uslubiga xos iborani ko`rsating?

- A) juftakni rostlang
- B) burni ko`tarilmoq
- S) siyosiy tanglik
- D) nog`orasiga o`ynamoq

73. Qaysi asarning nomiga maqol asos qilib olingan?

- A) "Oltin zanglamas"
- B) "Mehrobdan chayon"
- S) "Otamdan qolgan dalalar"
- D) A,B, S

74. Arava bo`lsa almisoqdan qolgan, yana sinibdi. Ushbu gapda iboraning sintaktik vazifasini toping.

- A) kesim
- B) aniqlovchi
- S) ibora qo`llanmagan
- D) to`ldiruvchi

75. Eskirgan maqol qatnashgan qatorni toping.

- A) Kambag`alni asrasang chorig`i bilan to`rga chiqar
- B) Ko`pdan quyon qochib qutulmas
- S) Andishaning oti qo`rqq
- D) Yer sotgan er bo`lmaydi.

76. Qadr-qiymatsiz, foydasi yo`q kabi ma`nolarni ifodalovchi iborani toping?

- A) og`ziga qatiq ivitmoq
- B) dumi xurjinga
- S) og`ziga talqon solmoq
- D) bir pul

77. Bug`doy noning bo`lmasa ham maqolni davom ettiring.

- A) bug`doy so`zing bo`lsin
- B) shirmoy so`zing bo`lsin
- S) shirmoy noning bo`lsin
- D)ochiq ko`ngling bo`lsin

78. Tildagi paronimlar ma`nosini bilmasdan ishlatish qanaqa xatolikni keltirib chiqaradi?

- A) uslubiy xato
- B) sintaktik xato
- S) imloviy xato
- D) B,S

79. "O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati" (1978) kitobining muallifini toping.

- A) E.Begmatov
- B) Sh.Rahmatullaev
- S) R.Doniyorov
- D) A.Hojiev

80. "O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati" (1974) kitobining muallifini toping.

- A) S.Ibrohimov
- B) R.Qo`ng`irov
- S) A.Hojiyev
- D) Sh.Rahmatullayev

81. A.G`ulomov, A.Tixonov, R.Qo`ng`irovlar qaysi lug`at muallifi?

- A) "O`zbek tili morfem lug`ati"
- B) "O`zbek tili omonimlarining izohli lug`ati"
- S) "O`zbek antonimlarining izohli lug`ati"
- D) "Imlo lug`ati"

82. "Navoiy asarlari lug`ati" (1972) kitobining muallifini toping.

- A) R.Shukurov, N.Mamatov
- B) O.Usmon, R.Doniyorov
- S) R.Qo`ng`irov, A.Tixonov
- D) P.Shamsiyev, S.Ibrohimov

83. Urg`u bilan ma`no farqlanmaydigan qatorni toping.

- A) qotishma
- B) ko`chirma
- S) yuklama
- D) akademik

84. Paronim so`z bilan bog`liq xatolik yuz bergan qatorni toping.

- A) Mansur yo`lakka qarab yura boshladi
- B) So`nggi gap shu
- S) Azm Buxoroga yashaymiz
- D) Asil mato ekanligini keyin bildim

85. Paranonim bilan bog`liq xatolikni aniqlang.

- A) Qizning tarifi Nizomjonga yetib keldi.
- B) Tog`ni larzaga keltiradigan baland ovoz keldi.
- S) Qayga yashirganini tezroq aniqla
- D) A, S

86. Tajnis san`atini vujudga keltiradigan hodisa

- A) antonimlik
- B) omonimlik
- S) sinonimlik
- D) uyadosh so`zlar

87. Tamizli so`zi qaysi qatordagi so`zlar bilan sinonimlikka kirishadi?

- A) fahmli, idrokli
- B) xursand, shod
- S) chaqqon, chaprost
- D) chiroyli, go`zal

88. Tarixiy voqealarni, hodisalarni real tasvirlashda ishlatiladigan til hodisasi....

- A) faol so`zlar
- B) umumxalq so`zlari
- S) arxaik so`zlar
- D) sinonimlar

89. Quyidagi sinonimik qatordan qaysi biri o`z qatlamga tegishli? Ko`k-osmon-samo

- A) Ko`k-osmon-samo
- B) samo
- S) ko`k-samo
- D) ko`k

90. Sheva so`zlar qaysi uslubda nisbatan ko`p qo`llanadi?

- A) so`zlashuv uslubda
- B) so`zlashuv, badiiy uslubda
- S) rasmiy uslubda
- D) badiiy uslubda

91. Sheva so`z qo`llangan qatorni toping.

- A) Qarachi, tomiga shoti yetarmikan?
- B) Bunday keyin qozon-tovoqqa o`zing qarash
- S) Yosh xotinlar qolinlarga gul solar edi
- D) A,B,S

92. Salbiy bo`yoqdor so`z berilgan qatorni ko`rsating?

- A) tasqara
- B) xunuk

S) ishyoqmas

D) aft

93. Xafa soʻzining antonimi bilan sinonimlikka kirishadigan iborasini toping.

A) yogʻ tushsa yalagudek

B) tishi oʻtmaydi

S) bahri ochildi

D) kapalagi uchdi

94. Kampaniya-kompaniya juftligi qanday hodisa

A) paronimlik

B) variant soʻz

S) dublet soʻz

D) orfoepiya bilan bogʻliq hodisa

95. Fuzuliyni oldim qoʻlimga.

(H.O) Maʼno koʻchishining qaysi turi mavjud?

A) kinoya

B) sinekdoxa

S) metafora

D) metonimiya

96. Nikolay zamonida ostonam tuyoq koʻrmadi (O). Maʼno koʻchishning qaysi turi mavjud?

A) metanomiya

B) sinekdoxa

S) metafora

D) maʼno koʻchish yoʻq

97. Singramoq soʻzining sinonimik qatorini toping.

A) yigʻlamoq, siqtamoq

B) kulmoq, jilmaymoq

S) ketmoq, joʻnamoq

D) kelmoq, tashrif buyurmoq

98. Antiteza usulida shakllangan kitob sarlavhasi mavjud qatorini toping.

A) “Toʻyda aza”

B) “Oʻtgan kunlar”

S) “Obid ketmon”

D) “Temir xotin”

99. Oʻrik raʼnoguldoshlarga mansub mevali daraxt. Daraxti 10-15 m. gacha. Bargi keng, tuxumsimon. Bu qaysi uslubga tegishli?

A) badiiy uslub

B) rasmiy uslub

S) ilmiy uslub

D) soʻzlashuv uslubi

100. Daryo qoʻltigʻi, togʻ etagi kabilar koʻchishning qaysi turiga mansub?

A) metafora

B) sinekdoxa

S) metonimiya

D) maʼno koʻchish oʻzgarmaydi

MUNDARIJA

So'zboshi	3
1-mavzu: Til va tafakkur, ularning o'zaro munosabati. Til va nutq. Nutqiy faoliyat ko'rinishlari.....	4
2-mavzu: O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari	9
3-mavzu: Davlat tili haqidagi qonun va undan kelib chiqadigan vazifalar	13
4-mavzu: To'g'ri yozish savodxonlik asosi. O'zbek imlosining nazariy asos va tamoyillari.....	16
5-mavzu: Asos va qo'shimchalar imlosi.....	21
6-mavzu: Qo'shma va juft so'zlar imlosi.....	26
7-mavzu: Bosh harf va qisqartma so'zlar imlosi	32
8-mavzu: Tinish belgilari imlosi	36
9-mavzu. So'z qudrati	41
10-mavzu: So'z tanlash va qo'llash mahorati.....	46
11-mavzu. So'z ma'nosining taraqqiyoti	50
12-mavzu. Ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar tavsifi	54
13-mavzu. So'zlarda hissiy-ta'siriy munosabat ifodasi.....	59
14-mavzu: Ifoda aniqligi – fikr ravshanligi	62
15-mavzu: Matn turlari. Dialog, monolog matni. Gaplar orasida ma'nodoshlik	66
16-17 mavzu: Matnni kengaytirish va qisqartirish yo'llari	70
18-mavzu: Murakkab qo'shma gap haqida ma'lumot	72
19-mavzu: Ergash gapli murakkab qo'shma gaplar	75
20-mavzu: Aralash murakkab qo'shma gaplar	79
So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'tishda zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish	82
Fonetika va leksikologiya bo'limi yuzasidan amaliy mashg'ulotlar ..	91
Umumiy mavzularga oid testlar	97

To'lqin Hamroyevich Asadov

ONA TILI

(Kasb-hunar kollejlari uchun metodik qo'llanma)

MUHARRIR:

TEXNIK MUHARRIR:

MUSAHHIH:

SAHIFALOVCHI:

I. SUBHONIY

R. SHARIPOVA

D.RAJABOV

A.QALANDAROV

Nashriyot litsenziyasi A-1 № 115 30.09. 2008. Original – maketdan bosishga ruxsat etildi: 20.12.2012. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozi. Bosma tabog'i 6,7. Adadi 100. Buyurtma №.70. Bahosi kelishilgan narxda.

Buxoro Matbuot va axborot boshqarmasi
“Buxoro” nashriyoti: Buxoro shahri, I. Mo'minov
ko'chasi, 27.

“Sharq-Buxoro” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy